



Тадқиқот **uz**

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

**2020**

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

**No 19**  
31 август

[conferences.uz](http://conferences.uz)

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 19-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
3-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
19-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-3**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
19-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-3**

**ТОШКЕНТ-2020**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 19-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 август 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 77 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиши йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга баршиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, очимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажида Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чарисев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чарисев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлантириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлантириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР**

<b>1. Sulaimanova Sanoat Umurovna, Sulaimonov Muzaffar Solijonovich</b> УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ТАРИХ ДАРСЛАРИНИ ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРДА ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ .....	8
<b>2. Astanova Nasiba Qudiratovna</b> JAHON SIVILIZATSIYASINING TAMAL TOSHI YOHUD UNING AKADEMIYASI .....	10
<b>3. Bo'ronova Mehriniso Mustafayevna</b> XIV ASRNING IKKINCHI YARMI – XV ASRDA MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA – MUΣIQA SAN'ATI.....	12
<b>4. Kalandarova Intizor Kuranboyevna</b> BURHONIDDIN AL – MARG'INONIYNING ILMIY MEROSI.....	14
<b>5. Kambarova Dilfuza Ikromovna</b> ABU NASR FOROBIY YOHUD SHARQ ARISTOTELI.....	16
<b>6. Kenjayeva Zuvayda Abdubannabovna</b> ABULQOSIM MAHMUD AZ – ZAMAHSHARIY VA UNING ILMIY MEROSI.....	18
<b>7. Mirsamadova Sevara Erkinovna</b> BIZKIM SOHIBQIRON – JAHONGIR TEMUR AVLODLARI .....	20
<b>8. Muyitova Kamola Homidovna</b> AHMAD AL – FARG'ONIYNING FAOLIYATI VA UNING ILMIY MEROSI.....	22
<b>9. Numonova Ziyoda Abdunazarovna</b> TARIX FANINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI.....	24
<b>10. Qo'chqarov Elyor Madaminovich</b> MA'MUN AKADEMİYASINING FARZANDI – ISMOIL AS-SAOLIBIY .....	26
<b>11. Rahmatillayeva Muxlisa Ismatullayevna</b> MUHAMMAD IBN ISMOIL AL – BUXORIY YOHUD HADIS ILMINING SULTONI.....	28
<b>12. Tilanova Tabassum Umaraliyevna</b> “ABULXAYR IBN HAMMOR” YOHUD “IKKINCHI GIPPOKRAT” .....	30
<b>13. Қурбаниязова Айзада Пулатовна</b> ҚАДИМГИ ДҶҮЙРДЕ САКЛАР-МАССАГЕТЛЕРДИН ДИНИЙ ТУСИНИКЛЕРИ .....	32
<b>14. Davlatova Ozodaxon Xusanboyevna</b> TARIXIY DALIL YA UNING INTERPRETATSIYASI .....	34
<b>15. Ismoilova Bonu Ibragimovna</b> TARIXIY OBIDALAR – MA'NAVİYATIMIZ KO'ZGUSI.....	36
<b>16. Sapayeva Munira Ramatovna</b> TARIX FANINI O'QITISHDA O'YIN METODLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI .....	38
<b>17. Shodiyeva Marxabo Gulmuratovna</b> O'RTA OSIYO XALQLARI TURK XOQONLIGI DAVRIDA.....	40
<b>18. Жўраев Хуршид Алишерович</b> МИЛЛИЙ ФОЯ ФАНИНИ ЎҚИТИЩДА ЎҚУВЧИ ЁШЛАРГА МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАТИШ .....	42
<b>19. Жўраева Нафиса Абдумуминовна</b> ТАРИХ ДАРСЛАРИДА ТАРИХИЙ МАНБАЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ .....	43
<b>20. Каракулов Шарофиддин Ахмадович</b> АМИР ТЕМУРНИНГ ДАВЛАТЧИЛИК БОШҚАРУВИДА ДАВЛАТЛАРАРО МУНОСАБАТЛАР ВА ДИПЛОМАТИК АЛОҚАЛАРИ .....	45
<b>21. Зарипов Жахонгир Гулмурадович</b> ПРОБЛЕМЫ ВНУТРЕННЕЙ И ВНЕШНЕЙ МИГРАЦИИ: НА ПРИМЕРЕ МИГРАНТОВ ИЗ УЗБЕКИСТАНА В БАЛТИЙСКОМ РЕГИОНЕ .....	47

<b>22. Jabborova Iroda Ashurovna</b>	
КО'ННА MINORA PESHTOQIDAGI BITIKLAR .....	49
<b>23. Tuxtayev Javohir Ulug'muratovich</b>	
MARKAZIY OSIYONING OLTIN DAVRI .....	51
<b>24. Usmonova Sarvinoz Murodullayevna</b>	
MARKAZIY OSIYONING GEOSTRATEGIK VA GLOBAL IQTISODIY SHAROITIDA MUHIMLIGI .....	53
<b>25. Рахматуллаева Гавҳар Илҳомовна</b>	
"МИЛЛИЙ ҒОЯНИНГ ИЛДИЗЛАРИ, МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШДАН – МИЛЛИЙ ЮҚСАЛИШ САРИ" .....	55
<b>26. Ahmedov Qudrat Axmedovich</b>	
TARIX DARSLARIDA QO'LLASH MUMKIN YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR .....	58
<b>27. Boymurzayev Bekzod Toxirovich</b>	
O'Z TAJRIBAMDA QO'LLAGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR .....	59
<b>28. Maraximova Xurshida Abdusattorovna</b>	
O'ZBEKİSTONDA TURİZMNI RIVOJLANISHI UCHUN QILINAYOTGAN ISHLAR .....	61
<b>29. Sayipnazarova Raxila Sabirbaevna</b>	
IKKINCHI JAHON URUSHI KO'LAMINING KENGAYISHI .....	63
<b>30. Sharopova Gulshana O'ktamovna</b>	
BUXORO AMIRLIGI QUSHBEGI DEVONXONASI ARXIV MA'LUMOTLARI .....	65
<b>31. Ҳакимов Равшан Раимович</b>	
ПЕРВЫЕ ИЗЫСКАНИЯ В ГОЛОДНОЙ СТЕПИ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XXВЕКОВ И ПРОЕКТЫ ОРОШЕНИЯ .....	67
<b>32. Ниғора Ҳакимова</b>	
МАҲОСИН АСАРИНИНГ ОКСФОРД ҚЎЛЁЗМАСИ: КОДИКОЛОГИК ТАҲЛИЛ .....	69
<b>33. Очилов Алишер Тўлис ўғли</b>	
БУХОРОДА МАВЖУД МУЗЕЙЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИДА САМАРАДОРЛИККА ЭРИШИШ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖОРИЙ ҚИЛИШ .....	72
<b>34. Юлдашева Шахноза Эргаш қизи</b>	
ИККИНЧИ ЖАХОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН САНОАТНИ ФРОНТГА САФАРБАР ЭТИЛИШИ .....	74



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

### УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ТАРИХ ДАРСЛАРИНИ ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРДА ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ

*Сулаймонова Саноат Умаровна  
Сирдарё вилоят Гулистан туман №3 мактабда  
тарих фани ўқитувчиси*

*Сулаймонов Музаффар Солижонович  
Сирдарё вилояти Гулистан ихтисослаштирилган олимпия  
захиралари мактаб интернати тарих фани ўқитувчиси*

**Аннотация:** Ушбу мақолада умумтаълим мактабларида тарих дарсларини замонавий педагогик технологиялар ва интерфаол усулларда ташкил этиш масалалари, ўқитишининг фаол ва инновацион методларига оид қимматли маълумотлар ва масалалар хусусида мулоҳазалар юритилган.

**Калит сўзлар:** Билим, кўникма, тафаккур, Муаммоли таълим.

Умумтаълим мактабларида Ўзбекистон тарихи фанини ўқитишининг самараси ўқитувчининг ўз предметини нақадар яхши билиши, дарсга тайёргарлик кўриши, дарс ўтиши, берилган билимларни мустаҳкамлаш усулларига боғлик. Маълумки, ўқитувчиликни эндинга бошлаган ёш педагог тажрибали ўқитувчига қараганда дарс ўтишга тайёргарлик кўриш жараёнида кўп ишлаши лозим бўлади. Олий ўқув юртида ижтимоий-гуманитар фанлар блокидаги Ўзбекистон тарихи, умумкасбий фанлар блокидаги Ўзбекистон халқлари тарихи фанларини ўрганиш вақтида маълум тарихий давр хақида олган билимлари ҳали унинг эсида яхши турган бўлса ҳам, лекин у ўзидаши шу билимларни ўқувчиларнинг сави-ясига қараб ишга солишга ҳамиша ҳам муваффақ бўлавермайди. У олий ўқув юртида Амир Темур ва Темурийлар даври тарихига доир фактларни ҳам муайян ҳажмда билиб олган, аммо шуниси борки, олий ўқув юрти дарсликлари ва маърузаларида фактларни конкрет ва жонли қилиб баён этиш мактаб таълимида зарур бўлган даражадан камрок бўлади.

Ёш ўқитувчининг педагогик амалиёт вақтида мактаб ҳаёти ҳақида ҳосил қилган умумий тасаввuri бўлади. Лекин ўқитувчиликни эндинга бошлаган ёш педагог ўқувчиларнинг психологиясини, уларнинг сўз бойлигини, фикр юритиш хусусиятларини яхши билмайди. Ёш ўқитувчи ўзининг ўқитиш усуллари ва услублари ҳақидаги билимларини амалда татбиқ этишнинг уддасидан ҳамма вақт ҳам чиқа олмайди.

Тажрибали ўқитувчи мактаб дастурига ўзгаришлар киритилган киритилмаганини билаш учун уни кўздан кечиради, холос. Ўқитувчиликни янги бошлаган киши эса ўқувчилар эгаллаши зарур бўлган билимлар нималардан иборат бўлишини, бўлим ва мавзуларнинг материални ўрганишга таҳминан қанчадан ўқув вақти ажратилганини яхши билиб олиши керак. У мактаб дарслигини диққат билан ўқиб чиқиб, уни дастурга солиштириб кўриши, турли масалалар дарсликда қанчалик чукур ва конкрет баён қилинганини аниқлаши лозим.

Ўқитувчи дарснинг ҳар қайси бўлими тарих ўқитишининг таълим-тарбиявий вазифаларини ҳал этишда қандай роль ўйнашини билиб олиши керак. У ўқувчиларда маълум бир тарихий даврнинг умумий хусусиятларини очиб берадиган тушунчалар ҳосил қилиш ишининг умумий йўналишини белгилаб олиши лозим. Дарслик бўлимларига доир умумлаштирувчи хуносаларни, савол ва топшириқларни диққат билан ўқиб чиқиши фойдалидир. Бошқа фан ўқитувчилари билан фикрлашиб, ўқувчиларнинг билим ва малакалари нималардан иборатлигини билиб олади.

Ўқитувчи қайси тарих дарсидан дарс берадиган бўлса, ўша дарсларга доир қандай адабиётлар борлигини дарс беришга тайёргарлик кўриш вақтида аниқлаб олиши ва ана шу



турли хил адабиётлардан фойдаланиш дастурини белгилаб олиши керак. У бу китобларнинг бъзиларини, масалан умумий услугий қўлланмаларни ўқув йили бошлангунча қадар ўқиб чиқига, бошқаларидан эса дарсга тайёрланиш чоғида фойдаланишга ҳаракат қилиши лозим. Ўқитувчининг тарих дарси беришга тайёрланишдаги навбатдаги босқич мавзу юзасидан ўтиладиган дарслар тизимини ишлаб чиқишдан иборатdir.

Ўқитувчининг мавзуни режалаштиришдан асосий мақсади – мавзу мазмунини назарий жиҳатдан тушуниб олишга эришишdir: ўқитувчи мавзунинг асосий ғояларини ва мантиқий негизини, унинг бошқа мавзулар билан қандай муҳим боғланишлари борлигини ҳар томонлама ўйлаб кўради, кейин эса бу ишининг натижаларини қисқача мавзуй (тематик) режа тарзида тузиб чиқади. Аммо мавзу 2-3 дарсда ўрганиладиган бўлса (бундай мавзулар оз эмас, айниқса ўрта асрлар тарихи кўрсида кўпdir, жумладан биз кўриб чиқаётган Амир Темур ва Темурийлар даври тарихи мавзуси ҳам шундайлар ҳисобига киради), мавзуни ўтишга тайёрланиш айрим дарсларни ишлаб чиқиши вақтида амалга оширилиши мумкин. Ўқитувчи, аввало, мавзунинг таълим-тарбиявий вазифаларини аниқлаб олади. У дастур ва дарсликнинг мазмунига таяниб, ўқувчиларда асосий тушунчаларни таркиб топтириш юзасидан қилинадиган иш тартибини белгилайди. Бу муҳим масалани худди шу бутун мавзуни ўтишга тайёрланиш вақтида ҳал қилиш керак, чунки ўқувчиларда кўпгина таянч тушунча ва иборалар бир-бирига боғланган дарслар давомида таркиб топтирилади. Мавзуни ўтишга тайёрланиш вақтида асосий масалаларнинг мазмуни ишлаб чиқилади ва уларни қайси дарсларда такрорлаш лозимлиги аниқланади: ўқитувчи илгари ўрганилган материал қайси дарсларда ва нима учун такрорланишини мавзуй режада кўрсатади.

Ўқитувчи тарихий асарлардан фойдаланганда улардан тарбиявий аҳамияти бўлган ёки тушунчаларни конкретлаштиришга ёрдам берадиган фактларни танлаб олади, уларни ихчамлироқ ва тушунарлироқ баён қилиш йўлларини ўйлаб кўради, бу фактларни қачон ва дарснинг қай ерида баён қилишини, уларнинг дарснинг асосий мазмуни билан қандай боғлашини белгилаб олади. Шундай қилиб, ўқитиш усувларини ишлаб чиқиши дарс мазмуни устида ишлаш жараёниданоқ бошланади. Шу билан бирга ўқувчиларнинг билиш фаолиятини ташкил этиш мўлжаллаб қўйилади.

Ўқитувчи дарснинг мазмуни ва усувларини белгилаганда дарс бераётган синфнинг хусусиятларини назарда тутиши керак. Шундай қиоишга уни таълим-тарбия жараёни мажбур этади. Ўқувчиларнинг тайёргарлиги бўш бўлган синфда билимларни текшириш кўпроқ вақтни олиши мумкин, шунинг учун материални баён қилишда келтириладиган фактлар сонини қисқартиришга тўғри келади. Ўқувчиларнинг фаоллиги паст даражада бўлган синфда ўқитувчи уларга сухбат асосида тушунтиrmокчи бўлган материални, вақтни тежаш учун, ўзи баён қилиб бериши лозим.

Холосақилибайтганда, инновационфаолияттатайёрлашданбошмақсад–ўқитувчиларнинг янгиликка интилувчанлигини, янгиликни мустақил излаш, яратиш, қўллаш қўнимка ва малакасини шакллантириш, педагогик технологиялар, интерфаол методлардан фойдаланиб дарс ва дарсдан ташқари машғулотларни ўtkазиш маҳоратини такомиллаштиришдан иборат.

### Адабиётлар рўйхати

1. Толипов Ў., Баракаев М., Шарипов Ш., “Касбий педагогика” – Т., 2001 йил.
2. Хаджабоев А., Хусанов И. “Касбий таълим методологияси” – Т., 2007 йил.
3. Баракаев М., Курбанова Г. ““Касбий таълим” йўналиши бўйича педагогик амалиётни ўtkазиш методикаси”. – Т., 2007 йил



## JAHON SIVILIZATSIYASINING TAMAL TOSHI YOHUD UNING AKADEMIYASI

*Astanova Nasiba Qudiratovna  
Buxoro viloyati Buxoro shahar 40-sonli  
umumi o'rta ta'lim maktabining Tarix fani o'qituvchisi  
Telefon: +998(90) 611 55 07  
nasibaastanova24@gmail.com.*

**Annotatsiya:** Quyida berilgan ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Xorazmnинг jahon sivilizatsiyasidagi o'rni, Xorazmnинг qadimgi tarixi va uning Akademiyasi haqida ma'lumotlari va Ma'mun akademiyasida xizmat qilgan olimlarning yo'nalishlari haqida qisqacha ilmiy asosda yondashishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** "Avesto", Amudaryo, "Axtarvenik", Oromiy, Tanga, Istaxriy, Ali ibn Ma'mun, Shom, Behnom, Suhayliy.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytib o'tganlaridek, Xorazm deganda, jahon ilm-fani, madaniyat va san'ati taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan, o'zbek davlatchiligining tamal toshi qo'yilgan betakror bir o'lka ko'z oldimizga keladi. Insoniyat tarixidagi eng qadimi yozma manbalardan biri bo'lgan "Avesto" kitobining aynan shu zaminda paydo bo'lgani Xorazm yurtining tarixi qanday teran ekanidan dalolat beradi.

Ilk o'rta asrlarda aynan shu yerda asos solingen Ma'mun akademiyasi butun Sharq va G'arb olamida qanday yuksak shuhrat qozongani barchamizga yaxshi ma'lum. Jo'shqin Amudaryodan suv ichib, muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog'idan unib-o'sgan, xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamashshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oniy, Sakkoliy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko'plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan<sup>1</sup>.

Xorazm hududida Jonbos qal'a, Gyovur qal'a, Qir qal'a, Qo'yqirilgan qal'a, Tuproq qal'a, Ayoz qal'a va boshqa shu kabi qadimi shahar xarobalarining mavjudligi qadimgi Xorazmdagi urbanizatsiya va u bilan bog'liq ushbu zamindagi fan va madaniyatning yuksak darajada bo'lganidan dalolat beradi. Bu yerlardan yuqori bosqichdagi shaharsozlik madaniyatidan va ilm-fan izlaridan ma'lumot beruvchi ashyoviy dalillar topilgan. Jumladan, Qo'yqirilgan qal'adan topilgan astronomik kuzatishga moslashtirilgan qurilma va uskunalarining qismlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Islomgacha Xorazmda astronomiya ilmining yaxshi rivojlanganligi haqida Beruniy ham dalillar keltiradi. Olim u paytlar xorazmliklar astronomiyani "axtarvenik" deganlari va ularning astronomik bilimlari arablarnikidan yuqori va aniq bo'lganini o'z asarida bayon etadi<sup>2</sup>.

Xorazmliklar oromiy alifbosiga asoslangan o'z yozuvlariga ega bo'lganlar. Bu yozuvning miloddan avvalgi IV asrga taalluqli namunalari saqlangan. Xorazmni qadimdan shohlar boshqargan va ular o'z nomlari bilan tanga pullar zarb qilganlar. Bunday pullarning miloddan avvalgi II asrdan boshlab zarb qilingan namunalari mavjud. Xorazmliklarning tabiatan ilmga o'chligini tadqiqotchilar o'rta asrlardayoq kuzatganlar. Chunonchi, X asrning bиринчи choragida Xorazmda bo'lgan mashhur sayyoh Istaxriy "Masolik al-mamolik" nomli asarida boshqa mintaqalar qatorida Xorazmni ham ta'riflab, xorazmliklarning ilmga o'chliklarini ta'kidlab: "Hozir Bag'dodda biror olim yoki faqih yo'qki, uning xorazmlik shogirdi bo'lmasin", degan so'zlarni yozadi. Ma'rifatparvar shoh Ali ibn Ma'mun Gurganjda madaniy-ma'rifiy ishlarni juda rivojlantirib yubordi. Saroy qoshida shohona kutubxona barpo etib, uni Sharqning turli shaharlaridan keltirilgan nodir qo'lyozmalar bilan boyitdi. Xorazm Ma'mun akademiyasida xorazmliklardan tashqari Buxoro, Samarqand, Jand, Marv, Nishapur, Balx, Eron, Iroq, Hindiston, Misr, Shom (Suriya) va boshqa viloyatlardan kelgan yuzdan ortiq olimlar, huquqshunoslar, adiblar, dinshunoslar tadqiqotlar o'tkazib, fanning turli sohalarida, buyuk kashfiyotlar qildilar. Ma'muniylar ilm-ma'rifatni qadriga yetadigan hukumdorlardan edi.

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. – B. 242.

<sup>2</sup> Xorazm Ma'mun akademiyasi. –T.: Шарқ, 2006. – Б. 22.



Ular Ma'mun akademiyasida xizmat qilgan olimlarga homiylik ko'rsatdi, ilmiy-ijodiy ishlarini har taraflama qo'llab-quvvatlardilar, ularga zarur sharoitlarni yaratib berdilar.

Abu Rayhon Beruniy boshchiligidagi Xorazm Ma'mun akademiyasini asosini quyidagi olimlar tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin – Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq Ja'diy (vafot 1036 -yil), Abu Hayr Hasan ibn Sivor ibn Bobo ibn Bahrom (yoki Behnom) (941–1048), Abu Sahl Iso ibn Yahyo Masihiy Jurjoniy (X–XI asrlar), Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973–1048), Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Sino (980–1037), Ahmad ibn Muhammad Husayn Saxliy (Suhayliy) Xorazmiy (X–XI asrlar), Abu Mahmud Ho'jandiyy(X–XI asarlар), Abu Ahmad ibn Muhammad ibn Ya'qub ibn Miskavayh (1030-yili vafot etgan), Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy (961–1038), Abu Fadl Ahmad ibn Muhammad Sahriy (X–XI asrlar), Abu Ali Hasan ibn Horis Xorazmiy Hububiy (X–XI asrlar), Abu Abdulloh Muhammad ibn Homid (X–XI asrlar) va boshqa o'z zamonasining yetuk olimlari ko'plab ilmiy va amaliy muammolarni yechib, jahon fani rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Yuqorida nomlari zikr qilingan olimlar Ma'mun akademiyasida xizmat qilgan allomalarining hozircha aniqlangan, lekin to'liq bo'limgan ro'yxati bo'lib, shular qatorida xorazmliklar aksar ko'pchilikni tashkil qilganligi ma'lum. Olimlar dunyoviy va tabiiy fanlar bilan, xususan astronomiya, matematika, fizika, kimyo, mineralogiya, kartografiya, geografiya, geometriya, tabiatshunoslik, tibbiyat, falsafa, tarix, arab tili, mantiq, adabiyot, islam huquqshunosligi va boshqa ilmlar sohasida chuqur tadqiqotlar qildilar. Ular arab, fors, hind, lotin, yunon va turkiy tillarini mukammal bilganlar. Yunon olimlaridan Platon, Aristotel, Ptolemey, Yevklid va Galen asarlarini chuqur tahlil qilib, ularga bag'ishlab sharhlar bitganlar. O'zlari yuqorida ilmlar sohasida tadqiqotlar o'tkazib, fanni yangi g'oyalar bilan boyitdilar. Ayni vaqtida ular Gurganj madrasalarida yoshlarga ta'lim-tarbiya berib, iste'dodli shogirdlar tayyorlashga katta hissa qo'shdilar.

Xulosa o'rnida shuni qo'shimcha qilishimiz mumkinki - Buyuk Xorazmlik olim Abu Rayhon Beruniy aytganidek, xuddi Misr Nilning mahsuli bo'lgani kabi Xorazm ham Amudaryoning mahsuli bo'lgan<sup>1</sup>. Shuningdek, akademiyada Beruniyning astronomiya, Abu Nasrning matematika, Abul Xayr Hammorning kimyo maktablarida ham yoshlarga chuqur bilim berildi. Bu davrga kelib Gurganj madrasalari va yuqorida maktablar haqiqiy ilm-maskanlariga aylangan edi. Ularda ta'lim olgan yoshlar keyinchalik Sharqning mashhur allomalari bo'lib yetishdilar. Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari aniq va gumanitar fanlarga doir ko'p asarlarni yozib, insoniyatga o'chmas ilmiy meros qoldirdilar.

#### Foydalilanigan adabiyaotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. –484 b.
2. Хоразм Маъмун академияси. –Т.: Шарқ, 2006. – 168 б.
3. Xorazm Ma'mun akademiyasi.// <http://www.mamun.uz>
4. Xorazm Ma'mun akademiyasi.// <http://library.ziyonet.uz/uz/book/11946>

<sup>1</sup> Хоразм Маъмун академияси. –Т.: Шарқ, 2006. – Б. 20.



XIV ASRNING IKKINCHI YARMI – XV ASRDA MOVAROUNNAHR VA  
XUROSONDA – MUSIQA SAN'ATI

*Bo'ronova Mehriniso Mustafayevna  
Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani 2-sonli  
umumi o'rta ta'lif maktabining Tarix fani o'qituvchisi  
Telefon: +998(91) 508 97 17  
boronovamexriniso@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Temur va temuriylar davri madaniyatining yuksak rivojlanganligidan dalolat beruvchi yana bir soha – musiqa san'ati, Ibn Arabshoh va Alisher Navoiylarning musiqa san'atiga oid ilmiy ma'lumotlari, X va XII asrlarda vujudga kela boshlagan musiqa san'atining yangi turi va XV asrda yashab ijod qilgan shoir Ahmadiyining "Sozlar munozarasi" asari haqida qisqacha ma'lumotlar berishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, Samarqand, Ibn Arabshoh, "Mezonul-avzon", Oruzvoriy, O'n ikki, "Shashmaqom", "Sozlar munozarasi", Soqiy.

Temur va temuriylar davri madaniyatining yuksak rivojlanganligidan dalolat beruvchi yana bir soha – bu musiqa san'atidir. Buyuk Sohibqiron Amir Temur haqidagi manbalarda va xalq rivoyatlarida uning musiqa san'atiga juda katta e'tibor bilan qaraganligi, turli mamlakatlardan poytaxti Samarqandga ko'plab san'at shinavandalarini to'plab, bazmi jamshid davralarini musiqa va qo'shiq ixlosmandlari bilan qurbanligi hikoya qilinadi. Ibn Arabshoh Temur saroyida juda ko'plab musiqashunoslar, hofiz va qo'shiqchi san'atkorlar ham bo'lganligini yozadi: "... Xoja Muhammad az-Zohid Buxoriy, ulug' tafsirchi, hadischi, hofiz bo'lib, Qur'on ul-Karimni yuz jilda tafsir qilgan... Qorilardan mana shular ikkalasi va mavlono Faxruddin bor edi. Qur'oni qiroatda ham savtda ham tajvid bilan yod olgan kishilardan Abdullatif ad-Domg'oni, mavlono Asaduddin, Sharif Hofiz Husayniy, Mahmud Muhriq al-Xorazmiy, Jamoliddin Ahmad al-Xorazmiy va musiqa ilmida ustoz bo'lgan Abdulqodir al Marog'iy edi"<sup>1</sup>.

Bu davrda musiqa san'atining rivoj topganligini shu narsadan ham bilsa bo'ladiki, Alisher Navoiy "Mezonul-avzon" asarida xalq qo'shiqchiligining 8 turi bo'lganligini yozadi. Bu – tuyuq, changi, turkiy, orzuvoriy (yoki oruzvoriy), muhabbatnama, mustazod va boshqalardir. Ayrim miniatyurlar, badiiy obrazlar va boshqalar xalq san'atining ham rivojlanganligidan dalolat beradi. Xalq kuylari va qo'shiqlari musiqa san'atining rivojiga samarali ta'sir ko'rsatgan. X va XII asrlarda vujudga kela boshlagan musiqa san'atining yangi o'n ikki maqom turi bu davrga kelib yuksak bosqichga ko'tariladi, yangi kuylar bilan boyiydi. O'n ikki maqom ko'pgina kuylar birikmasidan tashkil topgan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: Rost, Isfaxon, Iroq, Zirafkan, Buzruk Xijoz, Buslik, Ushshoq, Husayniy, Zangula, Navo, Rahoviy. Bu maqomlarning har bin ikki shuba (qism)dan iborat bo'lib, jami 24 shubani tashkil etadi: Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjoh, Muxayyar, Hisor, Muboraki, Nayrez, Nishopurak, Royi Iroq, Mag'lub, Rakb, Bayot, Zabul, Avj, Navro'zi xora, Ma'mur, Ashiron, Navro'zi sabo, Humoyun, Nuhuft, G'azal, Arabon va Ajam. Xalq o'rtasida "Shashmaqom" (olti maqom) nomi bilan kuylanib kelinayotgan musiqa asarlari yuqorida sanab keltirilgan o'n ikki maqom zaminida shakllangandir.

Musiqa san'atining taraqqiyotini she'riyat olamidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi. Musiqa va she'riyat doimo bir-birini to'ldirib kelgan. Musiqa bilan she'riyat o'rtasidagi aloqani XV asrda yashab ijod qilgan shoir Ahmadiy "Sozlar munozarasi" asarida ajoyib badiiy bo'yoqlarda tarannum etadi. Ahmadiy majoziy xarakterda yozilgan o'zining bu asarida sozlar munozarasini beradi. Munozarada ishtirok etgan barcha sozlar: Tanbur, Ud, Chang, Qubo'z, Rubob va boshqalar o'zlaricha kerilib maqtanadilar. Nihoyat ularning munozarasiga Piri xarobot (soqiy) aralashadi va sozlarining har biriga nasihatlar qiladi, ularning har birining o'ziga xos fazilatlari borligini ta'kidlaydi. Bu asar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan didaktik ijod mahsuli hamdir. Shoir maqtanchoq, mutakabbir va xudbin kishilami tanqid qiladi, ularni insofga, kamtarlikka va ahillikka chaqiradi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Ибн Арабшоҳ. Ажойб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). Ўринбоеб А. мухаррирлиги остида. – Т.: "Мехнат". 1992. – Б. 85 – 86.

<sup>2</sup> Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. –T.: Sharq. 2010. – B. 482.



Xullas, musiqa san'ati taraqqiyotida Temur va temuriylar zamonida erishilgan muvaffaqiyatlar xalqimizning ma'naviy meros boyligi bo'lib, avlodlar ongida badiiy estetik qarashlar va oliyjanob insoniy fazilatlarning shakllantirishning muhim vositasidir.

Foydalanimanligan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. –T.: Sharq. 2010. – 512 b.
2. Ибн Арабшоҳ. Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойи-ботлари). Ўринбоеб А. мухаррирлиги остида. – Т.: “Мехнат”. 1992. – 191 б.



## BURHONIDDIN AL – MARG’INONIYNING ILMIY MEROSI

*Kalandarova Intizor Kuranboyevna  
Xorazm viloyati Urganch shahar 6-sonli  
umumiyo'rta ta'lim maktabining Tarix fani o'qituvchisi  
Telefon: +998(90) 516 11 53*

**Annotatsiya:** Quyidagi ushbu ilmiy maqolada, Burhoniddin al-Marg’inoniyning hayoti va ilmiy faoliyati, Abdulhay al-Lankavining Burhoniddin Marg’inoniya bergan ta’rifi, Fiqhshunos olimning asarlari ayniqsa Uning “Xidoya” asari haqida ilmiy yondashishga qisqacha harakat qilingan.

**Kalit so’zlar:** “To’g’ri yo’l”, Shariat, Fikr ilmi, Huquqshunos, “Hidoya fi furu’ al fiqh”, “Xidoya”, Huquqiy va axloqiy qoidalar, xanafiyalar mazhabi.

IX – XII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda islom huquqi – shariat ancha rivoj topgan edi. Shariat yangi izchil huquqiy tizim sifatida taxminan XI asrda ash-Shariyada (arabcha “to’g’ri yo’l”) barqaror shaklga kirgan. Shariat – bu islom axloqiy qadriyatları va musulmon huquqi falsafasidan iborat bo’lib, uning tub mohiyati fiqh deb yuritiladi. Fikr ilmi – musulmon qonunshunosligi – Sharq xalqlari va islom madaniyati erishgan buyuk yutuq bo’lib, bu borada Movarounnahr va Xorazm allomalari juda boy meros qoldirganlar. Vatandosh fiqhshunos olimlarimiz: Abu Havs al-Buxoriy, Abu Mansur al-Moturidiy, Abul-l-lays as-Samarqandiy, Abu Bakr al-Buxoriy, Faxr ud-din Qozixon, Shams ul-a imma as-Saraxsiy va boshqalar o’z davrida islom dunyosida ma’lum va mashhur bo’lganlar. Nomlari yuqorida tilga olingan olimlar orasida Ali ibn Abu Bakr ibn Abdul Jalil Al-Farg’oniy Ar-Rishtoniy al-Marg’inoniy alohida o’rin tutadi. Huquqshunos olim Akmal Saidovning ma’lumotlariga qaraganda, buyuk olim 1123-yil 23-sentabrda Marg’ilonda tavallud topgan va 1197-yil 29-oktabrda 74 yoshida vafot etgan. Burhoniddin Marg’inoniy ilmiy barkamollikka Rishton, Marg’ilon, Buxoro, Samarqand va Movarounnahrning boshqa shaharlardagi ilm dargohlarida musulmon huquqi xanafiya mazhabining buyuk nazariyotchisi va amaliyotchisi bo’lib yetishgan. Bu to’g’rida Abdulhay al-Lankavi: “... u imom, qonunshunos bo’lgan. Hadislari bilan shug’ullangan. Qur’oni yod bilgan va unga sharhlar bergen. Ilmlarni yig’gan va muayyan fan tizimiga keltirgan. Nihoyatda zukko va sinchkov tadqiqotchi va xudojo’y pok inson bo’lgan. Fan va adabiyotda tengi yo’q buyuk huquqshunos, adabiyotshunos va shoir bo’lgan”, deb yozadi<sup>1</sup>.

Burhoniddin Marg’inoniy musulmon olami fani erishgan barcha bilimlarni egallagan, ulug’ allomalardan saboqlar olgan, sunniy shariatining to’rt asosiy mazhablari asoschilarini va ularning shogirdlari asarlarini qunt bilan mutolaa qilgan. Bu narsa ulug’ allomaga fiqh ilmi bo’yicha tengsiz asarlar yozib qoldirishiga imkoniyat yaratdi. Fiqhshunos olimning “Boshlovchilar uchun dastlabki ta’lim”, “Yakunlovchilar uchun tugal ta’lim”, “Mazhabning yoyilishi”, “Ilmni ziyoda qiluvchi kitob”, “Farzlar kitobi”, “Nozil bo’lgan narsalar to’plami”, “Haj marosimlari”, “Shayxlar haqidagi kitob” kabi buyuk asarlar shular jumlasidandir. Albatta, ulug’ alloma ijodida “Hidoya fi furu’ al fiqh” (“Fiqh sohalari bo’yicha qo’llanma”) tengi yo’q shaoh asrdir. Bu asarni olim 1178-yilda Samarqandda yozgan. Burhoniddin Marg’inoniyning “Xidoya” kitobi to’rt jilddan iborat va 56 bobni tashkil etadi. Bu asar o’ziga xos shariat kodeksi bo’lib, hozirgi kunda ham islom dunyosi qonunshunoslari uchun asosiy qo’llanma sifatida xizmat qiladi. Unda shariat masalalarida muallifning fikr-xulosalari bilan bir qatorda xanafiyalar mazhabining barcha imomlari, shuningdek, boshqa mazhab vakillarining mulohazalari ham o’rin olgan. Asarda islomning asosiy marosim talablari, huquqiy va axloqiy qoidalari, xususan tahopat, namoz, zakot, ro’za, xaj, qurbanlik; oila-nikoh bilan bogliq bo’lgan masalalar, huquqiy qoidalarni bajarmaganlik uchun jazo choralar belgilangan. “Xidoya”da mulkiy va moliyaviy munosabatlarga, jinoyat va jazo, fuqarolik huquqlari, sud va protsessual masalalar keng o’rin olgan. Yana unda urushlar, o’lja olish va uni taqsimlash, turmush va faoliyatdagi taqiqlashlar, ijozatlar haqida ham huquqiy yo’l-yo’riqlar beriladi.

“Xidoya” kitobi jamiyatshunos, huquqshunos, tarixshunos, sharqshunos, dinshunos hamda ona Vatan tarixi va shariat bilan shug’ullanuvchi barcha kitobxonlar uchun bebafo qo’llanmadir.

<sup>1</sup> Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. –T.: Sharq. 2010. – B. 257.



Shu boisdan ham Burhoniddin Marg'inoniyning bu asari bir qancha tillarga taijima qilingan. Xususan "Xidoya" xanafiyalar mazhabi tarqalgan bir qator arab davlatlarida, Afrikaning ayrim mamlakatlarda, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Afg'oniston, Xitoy musulmonlari orasida keng tarqalgan. Bu asar O'rta Osiyo, Kavkaz, Rossiya musulmonlari orasida ham keng tarqalgan va islom madrasalarida fiqh ilmi bo'yicha asosiy o'quv qo'llanmasi bo'lib kelgan.

Xullas, ilm-fan, madaniyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ulug' vatandoshimiz – Burhoniddin Marg'inoniyi jahon ilm-faniga qo'shgan ulkan hissasini bilib oldik. Ular shu darajada ko'PKI, barchasini qalamga olishning imkoniyati yo'q. Chunki biz oddiy insonlarning avlodlari emasmiz, balki bag'ri, qalbi, butun ildiz-tomirlari va tayanchlari benihoya mustahkam, jahon fani va madaniyati beshiklarini tebratgan, uning taraqqiyotiga salmoqli va buyuk hissa qo'shgan ulug' siymolar – daholarning avlodlarimiz.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. –T.: Sharq. 2010. – 512 b.
2. Burhoniddin Marg'inoniy.// [https://uz.wikipedia.org/wiki/Burhoniddin\\_marg'inoniy](https://uz.wikipedia.org/wiki/Burhoniddin_marg'inoniy)
3. Burhoniddin al-Marg'inoniy.// <https://arboblar.uz/uz/people/burkhanuddin-al-marginoni>



## ABU NASR FOROBIY YOHUD SHARQ ARISTOTELI

*Kambarova Dilfuza Ikromovna  
Andijon viloyati Jalaquduq tumani 20-sonli umumiy  
o'rta ta'lif maktabining Tarix fani o'qituvchisi  
Telefon: +998(90) 144 17 73*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada - Abu Nasr ibn O'zlug' ibn Tarxon al-Forobiyning egallangan fanlari bo'yicha ilmiy asarlari, buyuk olimning ilm va dunyoqarash doirasining beqiyos darajada kengligi va chuqurligidan dalolat beruvchi asarlari, umuman, Forobiy ilmlarning beshta asosiy turkumini ko'rsatishi haqida qisqacha ma'lumot berishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** Aris, Shosh, Forob, Ilmu urfon markazlari, Aristotel, Ptolemey, Ellin, "Ikkinchi Sharq Aristotel".

Sharq allomalarining yirik namoyandalaridan bin bo'lgan Abu Nasr ibn O'zlug' ibn Tarxon al-Forobi Aris daryosining Sirdaryoga quyiladigan joyida, Shosh – hozirgi Toshkent shahridan 200 – 260 km shimoli-g'arbda joylashgan Forob (O'tror) shahrida tavallud topgan. U Forobda ta'lif olib, Buxoro va Samarcandda, ilmu urfon markazlari Bag'dod va Damashq shaharlarida yashab o'z ilmiy darajasini oshirgan, deyarli fanning barcha sohalarini egallab, 160 dan ortiq asarlar ijod qilgan, Forobiy riyoziyot, falakiyat, tabobat, musiqa, falsafa, tilshunoslik va adabiyotga oid buyuk asarlari, risolalar yozib jahonga mashhur bo'ldi. U yozgan "Aristotel (Arastu)ning "Metafizika" asari maqsadlari haqida", "Tirik mavjudot a'zolari haqida", "Musiqa kitobi", "Baxtsaodatga erishuv haqida", "Siyosat al-Madoniya", ("Shaharlar ustida siyosat yurgizish"), "Fozil odamlar shahri", "Masalalar mohiyati", "Qonunlar haqida kitob", "Tafakkur yuritish mazmuni haqida", "Mantiqqa kirish haqida kitob", "Falsafaning mohiyati haqida kitob" va boshqalar buyuk olimning ilm va dunyoqarash doirasining beqiyos darajada kengligi va chuqurligidan dalolat beradi.

Forobiy ellin madaniyati donishmandligining hadsiz bilimdoni edi<sup>1</sup>. U Platon, Aristotelning barcha falsafiy tabiiy, ilmiy asarlariga, Ptolemyning osmon jismlari harakati, Aleksandr Afrodiziyning ruh haqidagi psixologiyaga oid, Galenning tibbiyot bo'yicha asarlari, shuningdek, Epikur, Zenon, Yevklid, Porfiriy risolalariga taqriz va sharhlar yozdi. Agar ilm-fan rivojidagi o'zining qo'shgan buyuk xizmatlari uchun Aristotel "birinchi muallim" unvoniga sazovor bo'lgan bo'lsa, Forobiy ellin donishmandligini, Aristotelni yaxshi bilganligi, qomusiy aqli va ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligi uchun "Al-Muallim as-Soni" – "Ikkinchi Sharq Aristotel" degan mo'tabar unvon oldi. Forobiyning "Inson tanasining a'zolari haqida"gi risolasi tibbiyot ilmining maqsad va vazifalarini aniqlashga bag'ishlangan. Shu ma'noda bu asar muallifi buyuk hakim Abu Ali ibn Sinoning bevosita o'tmishdoshi bo'lganligini isbotlaydi. Forobiy "Astrologianing to'g'ri va noto'g'ri qoidalari haqida" risolasida astrologlarning ruhiy va ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni osmoniy jismlar haqidagi ilmiy taxminlarga asoslangan faoliyatlarini yolg'on tasavvurlar va uydirmalardan farqlash zarurligini ta'kidlaydi.

Olimning ko'p jildli "Musiqa haqida katta kitob" asari musiqa ilmining katta bilimdoni bo'lganliginiga emas, ayni zamonda Forobiyning taniqli musiqashunos sozanda va ajoyib bastakor ham bo'lganligini dalillaydi. U yangi musiqa asbobining ixtirochisi ham bo'lgan. Forobiy yirik mantiqshunos olim sifatida ham nom chiqargan. Bu borada u yunon olimlarining ijobjiy an'analarini davom ettirib, mantiq ilmining turli muammolariga oid bir qator risolalar ijod qilgan.

O'rta asr fanining rivoji va taraqqiyotida Forobiyning ilmlar tasnifi bo'yicha olib borgan ilmiy ijodiy ishlari g'oyatda qimmatlidir, U "Ilmlarning kelib chiqishi haqida", "Ilmlarning tasnifi haqida" va boshqa risolalarida o'sha davrda ma'lum bo'lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tartibi, tasnifi va tafsilotini beradi. Umuman, Forobiy ilmlarning beshta asosiy turkumini ko'rsatadi:

1. Til haqidagi ilm (grammatika, poetika, to'g'ri yozuv va boshqalar, Jami yettita bo'limdan iborat.)
2. Mantiq. Sakkiz bo'limdan iborat.
3. Matematika, yetti mustaqil ilm: arifmetika, geometriya, optika, sayyoralar, musiqa, og'irlik,

<sup>1</sup> Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. –T.: Sharq. 2010. – B. 227.



mexanika.

4. Ilm at-tabiyy va ilm al-ilohiy-tabiyy va ilohiy ilmlar yoki metafizika.
5. Siyosat ilmi (ilmal-madaniy – shahar haqidagi ilm, shaharni boshqarish ilmi), yurisprudensiya (fiqh) va musulmon teologiyasi (kalom).

Xullas, Forobiyning ilmiy-falsafiy merosi xalqimizning buyuk ma'naviy boyligi sifatida asrlar osha avlodlar uchun ilhom va ijod manbayi bo'lib xizmat qilaveradi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. –T.: Sharq. 2010. – 512 b.
2. Abu Nasr al-Forobiy.// <https://arboblar.uz/uz/people/abu-nasr-farabi>
3. Abu Nasr al-Forobiy.// <http://library.ziyonet.uz/uzc/book/74010>



## ABULQOSIM MAHMUD AZ – ZAMAHSHARIY VA UNING ILMIY MEROsi

*Kenjayeva Zuvayda Abdubannabovna  
Farg'ona viloyati Dang'ara tumani 32-sonli  
umumiyl o'rta ta'lif maktabining Tarix fani o'qituvchisi  
Telefon: +998(99) 329 31 85*

**Annotatsiya:** Quyida berilgan ushbu ilmiy maqolada Abulqosim Mahmud Az – Zamahshariy va uning ilmiy merosi haqida ilmiy yondashishga harakat qilingan ya'ni – Az-Zamahshariyning hayot yo'li va ilmiy ijodi, Uning "Al-kashshof", "Al-Mufassal", "Asos al-balogs'a", "Devon az-Zamahshariy" asarlari haqida qisqacha ma'lumot berishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** Jorulloh, Izmixshar, Madrasada, Abu Muzar Mahmud az-Zabbiy, Mutazimiylar, "Al-kashshof", "Al-Mufassal", "Notiqlik asoslari", "Arablar va g'ayri-arablar ustozi".

Xorazm ilm-fani va madaniyatini dunyoga tanitgan buyuk siymolardan yana biri arabshunos olim, shoir, yozuvchi va imom Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad Jarulloh Zamahshariyidir. U 1075-yil 18-martda Xorazmning Zamahshar (hozirgi vaqtida Turkmanistonning Toshhovuz viloyatiga qarashli Paxta tumanidagi Izmixshar qishlog'i) qishlog'ida tavallud topgan. Boshlang'ich ma'lumotni u o'z zamonasining o'qimishli imomi bo'lgan otasi Umar ibn Ahmad qo'lida oladi. Yoshligida baxtsiz hodisa tufayli tomdan yiqilib mayib bo'lib qolgan va yog'och oyoqda yurishga majbur bo'lgan Zamahshariy ruhiy tushkunlikka tushmaydi. U otasidan Urganch madrasalaridan biriga o'qishga olib borib qo'yishni iltimos qiladi. Ota o'g'lining iltimosini qondirsa-da, biroq kambag'allik tufayli uni moddiy tomondan qo'llay olmaydi. Zamahshariy mohir husnixat sohibi bo'lganligidan madrasada o'qish bilan birga qo'lyozma asarlami ko'chirish bilan ham shug'ullanadi va buning evaziga maosh olib yashash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bo'lg'usi olimdag'i nodir qobiliyatni payqagan Abu Muzar Mahmud az-Zabbiy Isfahoni Zamahshariyga ustozlik qilishni o'z zimmasiga oladi, unga har tomonlama ham ilmiy, ham moddiy yordam ko'rsatadi. Abu Muzar Xorazmda mutazimiylar ta'lifotini yoyish bilan shug'ullanardi. Bu ta'lifotga ko'ra, insonning qilmishi azal va taqdirda belgilanganiday majburiy bo'lmasdan, erkin holatda, uning o'z ixtiyori bilan sodir bo'lishi lozim. Zamahshariy, umrining oxirigi qadar ana shu tariqatga sodiq qoldi. Urganjda tahsil ko'rgan Zamahshariy o'z bilimini takomillashtirish maqsadida Buxoro, Xuroson va Isfahonga boradi, o'z zamonasining yirik olimlari va mutafakkirlaridan saboqlar va maslahatlar oladi. Undan keyingi hayotini buyuk olim Bag'dod, Damashq, Xijoz va Makkai Mukarrama kabi qadamjolar bilan bog'laydi. Zamahshariy umrining so'nggi yillarini Urganchda turg'unlikda ilmiy ishlar yozish bilan o'tkazadi va 1144-(538) yil Qurbon xayiti arafasida 71 yoshda vafot etadi. Az-Zamahshariydan juda ko'p ilmiy meros qolgan, uning tilshunoslik, adabiyotshunoslik, lug'atshunoslik, fiqh, tafsifshunoslik islam tarixi, falsafa, uslub va notiqlik san'ati, tafsir, hadis va boshqa fanlar bo'yicha yozgan ellikdan ortiq asarlari bor. So'zsiz, Az-Zamahshariyning eng yirik va mashhur asari "Al-Kashshof an haqayiq ut tanziyl va uyin il-aqoviyl fi vujuh it-ta'viyl"dir ("Qur'onagi yashirin haqiqatlarni ochib beruvchi"). U qisqacha "Al-kashshof" deb ataladi. Bu kitobni olim 1132 – 1135-yillarda Makkai Mukarramada bo'lgan chog'ida yozgan. Zamahshariy Makkada uzoq vaqt yashaganligi uchun Jarulloh (Allohnning qo'shnisi) degan faxrli laqabni olgan. Asarda buyuk alloma, Qur'oni Karimni til jihatidan izohlab, harbir so'z ma'nosini arab grammatikasi asosida tushuntiradi. Vatandoshimizning mazkur kitobi Qur'onga yozilgan eng mashhur va mo'tabar tafsirlardan bo'lib, hozirga qadar musulmon dunyosi va ilmiy jamoatchilik undan keng foydalanib kelmoqda<sup>1</sup>. Qohiradagi butun dunyoga mashhur Al-Azhar diniy universitetining talabalari Zamahshariyning "Al-Kashshof" asari asosida Qur'oni va uning tafsirini o'rganib, undan muhim bir qo'llanma sifatida foydalanib keladilar. Az-Zamahshariy asarining g'oyatda qimmatli asar ekanligiga yana yorqin bir dalil sifatida uning qo'lyozma nusxalarining ko'pligi, asarga yozilgan bir qancha sharhlar va uning arab mamlakatlarida qayta-qayta nashr qilinishini ko'rsatish mumkin. Nemis sharqshunos olimi Karl Brok Kelman dunyoning turli qo'lyozma jamlanmalarida "Al-Kashshof"ning yuzga yaqin qo'lyozmalari va yigirmadan ortiq asarning o'ziga yozilgan sharh va tafsirlari borligini ma'lum qiladi. Az-Zamahshariyning yana bir asari "Al-Mufassal" bo'lib,

<sup>1</sup> Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. –T.: Sharq. 2010. – B. 253.



u 1119 – 1121-yillarda yozilgan. Bu asar arab grammatisiga oid eng qimmatli asardir. Asar Misrda nashr etilgan, nemis tiliga taijima qilingan. “Al-Mufassal”ning bir qo’lyozma nusxasi Toshkentda Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot institutining hujjatxonasida saqlanmoqda. Buyuk arabshunos olimning “Asos al-balogs'a” (“Notiqlik asoslari”) kitobi arab tilining izohli lug’ati bo’lib, arab lug’atshunosligrini yuqori pog’onaga ko’tardi. Bu asar Qohirada ikki jilda nashr qilingan. Zamahshariyning “Hadislardagi notanish so’zlarni o’zlashtiruvchi” asari Payg’ambar hadislarida uchraydigan, kam ishlatalib, ko’chma ma’noda qo’llaniladigan so’zlarning izohli lug’ati hisoblanadi. Vatandoshimizning “Devon az-Zamahshariy” (“Zamahshariy devoni”) nomli devonida olimning qasida, qit’a va nazmiy xatlari o’rin olgan. Uning lirik she’rlari asosan falsafa va ahloq mavzulariga bag’ishlangan edi.

Biz xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, ulug’ allomaning boy ijodiy merosidan ba’zilari to’g’risida qisman fikr yuritdik, xolos. Zamahshariy dunyo tan olgan alloma. U hali hayotligidayoq yozgan asarlari, musulmon olamida unga shon va shuhrat keltirgan edi. Dunyo olimlari Zamahshariyni yuksak hurmat va mehr bilan ulug’lab “Arablar va g’ayri-arablar ustozি”, “Jorulloh” (“Allohning qo’shnisi”), “Xorazm fahri” deya e’zozlaganlar.

Foydalaniman adabiyotlar ro’yxati:

1. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. –T.: Sharq. 2010. – 512 b.
2. Abulqosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad Zamaxshariy// <http://tarix.uz/abulqosim-mahmud-ibn-umar-ibn-ahmad-zamaxshariy/>



## BIZKIM SOHIBQIRON – JAHONGIR TEMUR AVLODLARI

Mirsamadova Sevara Erkinovna  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
3-kurs, uyg'ur-engliz guruhi talabasi  
Telefon: +998977141973  
[mirsamadovasevara@gmail.com](mailto:mirsamadovasevara@gmail.com)

Jadiy burji ko 'ringaydir kiyik shaklida,  
O'sha yili tug'ilgaydir bir Sohibqiron.

Eng avvali shoh Iskandar, undan so 'ng esa  
Tug 'ilmishdir Rasuli-Akram Payg 'ambarimiz.  
Uchinchisi Hazrat Temur – Sohibqirondir.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk sarkarda, ulug' bobokalonimiz bo'lmish Amir Temurga bo'lgan hurmat va u haqidagi shaxsiy, tarixiy fikr-mulohazalar aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** Shayx Zayniddin, Amir Tarag'ay, Amir Temur, Marsel Brion.

Qaryib bundan yetti asr avval ko'hna diyorimizning janubida bir ko'r kam chaqaloq dunyoga keldi. Jajji go'dak solih va soliha insonlar oilasida tarbiya topa boshladi. Kelajakda sharaflı ishlar kutayotgan bolakayning jismiga monand ravishda "Tamurru" Temur ya'ni "larza" deya ism berildi. Bu sharaflı ishga shayx Zayniddin va padari buzrukvorı Amir Tarag'ay sazovor bo'ldi. O'yashimcha, gap kim haqida borayotgani hammamizga ma'lum.

Yurtimiz asrlar mobaynida qanchadan-qancha buyuk shaxslarni beshigida allalab katta qildi. Islom dunyosida Qur'oni Karimdan so'ng ikkinchi o'rinda turuvchi Hadisi Sharif sahihlarini bir joyga jamlagan muhaddis Imom al-Buxoriy deysizmi yoki tibbiyot ilmida qimmatli asarlaridan bugungi kungacha foydalanib kelinayotgan Abu Ali ibn Sino deysizmi yoki bo'lmasa Yevropadan VII asr avval okean ortida quruqlik borligini aytib bera olgan Beruniy deysizmi, bularning hammasi aynan bizning ajdodlarimiz deya hech ikkilanmay aytga olamiz. Shular jumlasiga dunyoga ma'lum va mashhur sarkarda, uch qit'ani o'z hokimiyyati ostida birlashtirgan Sohibqiron Amir Temur ham kiradi albatta. Shu kabi shaxslarni sanab sanog'iga yeta olmaymiz. Bejizga ham yurtimiz jannatmakon, Allohning nazari tushgan yurt deya tilga olinmaydi.

Hozirda esa nafaqat meni, balki butun dunyoni olqishiga, hurmatiga sazovor bo'lgan buyuk bobokalonimiz Amir Temur haqida fikr yuritmoqchiman. Uzoq emas yaqin tariximizga nazar soladigan bo'lsak, sovet tuzumi davrida biz bugungi kunda ulug'lab, nomiga sharaflar aytayotgan ajdodimiz qonxo'r, jallod shaxs sifatida uqtirib kelingan. Shukrlar bo'lsinki, vaqt o'tib bo'lsa ham, aslida kim qonxo'r-u, kim xalqparvar ekanligi barchaga oydek ravshan bo'lib turibdi. Biz yoshlar buyuk sarkarda tarixiga beparvolik bilan qaray olmaymiz. Buning sababi bu inson bizning ajdodimiz ekanligida emas, balki bugungi kunda ham yurtni boshqarishda, muhim qarorlar qabul qilishda, millatlararo munosabatlarda va shu kabi bir qator masalalarda hech ikkilanmay foydalansa bo'ladigan bebahoh meros egasi bo'lgani uchundir.

So'zlarimning dalili sifatida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 1996-yildagi farmoni bilan ta'sis etilgan Amir Temur ordeni, shahar markazida qad rostlab turgan Temuriylar tarixi muzeyi, Prezidentimizning 2017-yil 5-iyuldagı "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq Respublikaning barcha harbiy akademik litseylariga "Temurbeklar maktabi" nomi berilishini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, maktab darsliklarida buyuk sarkardaga alohida bob ham ajratilgan. Xatto, xarbiy oliv o'quv yurtlariga kirish uchun o'tkaziladigan imtihon darsliklari qatoriga "Temur tuzuklari" ham kiritilgani bejiz emas. Bularning hammasi tarixga bo'lgan hurmat-ehtiromdir.

Sohibqiron bobomiz umrlari davomida o'z qo'llari bilan yozgan kundaliklari tayyor bir kitob holiga kelib, bugun jahon adabiyoti durdonasiga aylanib ulgurdi. Aynan shu asarni mutolaa qila turib o'zim uchun kichik bir dunyoni yarata oldim. Olimlar fikricha ikkala qo'lida bir xil yoza oladigan insonlarning miya faoliyatini oddiy kishilarga qaraganda ikki barobar kuchli bo'lar ekan. Amir Temur ham ana shunday noyob hislat egalaridan biri bo'lgan. Shu hislatini ilg'agan Temurbekning ustoz mullo Alibek o'sha paydayoq bunday kishilar ulg'ayib ikki dunyoda ham



nom qoldirishini ta'kidlab o'tgan. O'z – o'zidan fikrlash qobiliyati kuchli bo'lgan kishining xotirasi ham mustahkam bo'ladi. O'n yoshlar atrofida bo'lgan yosh Temurbekka zamonasining ilmli kishilar "Hofiz" (Qur'oni yoddan o'quvchi) unvonini berishgani buning yaqqol isbotidir. Harbiy san'at bilan shuhrat qozongan ajdodlarning avlodi bu san'atni ham havas qilgulik tarzda egallagan. Ayniqsa, Samar tarxon ismli ustozining qo'llagan usuli (Temurning o'ng qolini tanasiga mahkam bog'lagan holda jangga kirishga majbur qilgan) bobomizni ko'p marotaba o'lim iskanjasidan saqlab qolgan. Otlarga o'zgacha mehr qo'ygan Jahongir ular bilan qanday til topishishni juda yaxshi bilgan. Bedov otlarni bo'ysundirish, ot ustida yugurgan holda kamondan o'q uzish, bir vaqtning o'zida bir necha otni minish hislatlari Amir Temurning harbiy mahoratni qay darajada egallaganini yaqqol ko'rsatib beradi. Aynan shu hislatlarini umumlashtirib Eronda uni "Miri tabam" (Ulug' yo'lboshchi) deya nomlashgan. Amir Temurning zehni shu darajada kuchli bo'lganki, diniy va dunyoviy bilimlarni birdek egallagan. Fransuz olimi Marsel Brionning ta'kidlashicha, ayrim xorijlik hukmdorlar uning huzurida cho'kka tushib, qulluq qilmoqchi bo'lganlarida, Temurbek bunga izn bermagan ekan. U faqat Allohga cho'kka tushib qulluq qilish mumkin deya hisoblagan. O'zi uchun esa oddiygina ta'zim bajo keltirishni kifoya deb bilgan.

Yuqorida keltirilganlar shunchaki maqtov emas, balki fan tili bilan aytganda asosli dalillar hisoblanadi. Ammo bular buyuk bobomiz Sohibqiron Amir Temurning boy tarixlaridan keltirilgan xamir uchidan patirdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, mullo Alibek, Shayx Shamsiddin, Samar tarxon kabi malakali ustozlar biz yoshlarga ta'lim berishsa, biz yosh avlodlarning dovrug'imiz buyuk ajdodlarimiz kabi yetti olamga albat yoyilajak.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. I.A.Karimov.Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, Toshkent - 2008
2. Abdulla Oripov. "Sohibqiron dramasi"
3. Marsel Brion. Menkim sohibqiron – jahongir Temur, Toshkent – 2013
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)



## AHMAD AL – FARG'ONIYNING FAOLIYATI VA UNING ILMUY MEROSSI

*Muyitova Kamola Homidovna*

*Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi 4-sonli  
umumi o'rta ta'lif maktabining Tarix fani o'qituvchisi  
telefon: +998(97) 301 80 87*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada – IX asrda yashab ijod etgan vatandoshimizning "Baytul Hikma" bilan bog'liqligi, rasadxona qurilishida ishtirok etishi, uning "Kitob Fi Usul ilm an-Nujum" risolasini besh nom ostida saqlanishi, olimning – Hindiston, Qohira, Olmoniyada, Berlin va Parijda saqlanayotgan qo'lyozmalari hamda "Astronomiya negizlari" asari va boshqa asarlari va fandagi yutuqlarini manbalarga tayangan holda qisqacha yoritishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** Farg'ona, Filolog olim, Bag'dod, "Baytul Hikma", Raqoq, Ptolemey, "Falakiyat ilmining usullari haqida kitob", Nil daryosi, "Astronomiya negizlari", Eyler XVIII, "Al Fraganus", Dante, Misr, Quva.

Saxovatlari keng ona tuprog'imiz, O'zbekiston nomini faxr va g'urur his- tuyg'usi bilan uzoq-uzoq avlodlarga ko'z-ko'z qilishga arzигуллик ulug' siymo va allomalardan biri Ahmad Farg'oniydir. Asli kindik qoni Farg'onada tomgan va IX asrda yashab ijod etgan vatandoshimiz haqida ma'lumot beruvchi tarjima hujjatlar deyarli yo'q darajada. Filolog olim Aziz Qayumovning ma'lumotlariga qaraganda Ahmad Farg'oniy yoshlikdan fanga, ilm olishga chanqoq bo'lib o'sgan. U asosan tabiiy fanlar: falakiyatshunoslik, matematika, geografiya kabi fanlar bo'yicha ijod qilgan. Ahmad Farg'oniyning ijodiy faoliyati Bag'dod bilan, ulug' mutafakkir olim Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy rahbarligida faoliyat ko'rsatgan "Baytul Hikma" bilan bog'liqidir. U arab atamashimosligining paydo bo'lishi va ilmiy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi. Bag'dod va Damashqdagi rasadxonalar qurilishiga shaxsan qatnashdi. Bag'dodning Raqoq nomi bilan ataluvchi mavzesida qurilgan rasadxona qoshida tashkil etilgan falakiyatshunoslik maktabiga rahbarlik qildi. Ahmad Farg'oniy zamondosh, kasbdosh olimlar va shogirdlari bilan hamkorlikda Ptolemey "Yulduzlar jadvali"dagi ma'lumotlarni tekshirish ishlarni olib bordi. Uning falakiyatshunoslikka oid ilmiy-tadqiqot ishlari ijodiy samaralar berdi. Ahmad Farg'oniyning oltita kitobi dunyoga ma'lum va mashhurdir. "Kitob Fi Usul ilm an-Nujum" ("Falakiyat ilmining usullari haqida kitob"). Bu risolaning asl qo'lyozmalari matni bir xil bo'lsa-da, besh nom ostida saqlanadi. Ya'ni Al-Majistiya bag'ishlangan "Falakiyat risolasi", "Falak sferalari sababiyati", "Al-Majistiy" (Ptolemeyning "Almagest" asari), "Ilm al-haya" ("Falakiyat ilmi") deb ataladi. Bu nodir qo'lyozmalar Angliya, Fransiya, AQSH, Marokash, Misr va Sankt-Peterburgda saqlanmoqda<sup>1</sup>.

Olimning "Al-Farg'oniy jadvallari", "Usturlob bilan amal qilish haqidagi kitob" Hindistonda, "Oy Yerning ustida va ostida bo'lganida vaqtini aniqlash" risolasining qo'lyozmasi Qohirada, "Yetti iqlim hidi" asarining qo'lyozmasi Olmoniyada, "Usturlob yasash haqidagi kitob" qo'lyozmasining to'rtta nusxasi Berlin va Parijjadir.

Ahmad Farg'oniy bu asarlaridagi ilmiy kashfiyotlari bilan jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan va munosib hissa qo'shdi. Hususan, uning 812-yilda Quyosh utilishini oldindan bashorat qilishi, Yerning dumaloq shar shaklida ekanligini ochganligi olimga shuhrat keltirdi. Keyinroq Misorda yashagan chog'ida Nil daryosi suvini o'lchaydigan asbob yasagan. Bu asbob tutash idishlar qoidasiga asoslangan bo'lib, hozirgacha saqlanadi. Ahmad Farg'oniyning falakiyatga oid yirik ilmiy asarlaridan biri "Samoviy harakatlar va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob"dir. Bu asar "Astronomiya negizlari" deb ham yuritiladi. Unda buyik mutafakkir o'zi yashagan davrdagi falakiyatga oid bilimlarni tartibga soldi. O'zining yangi xulosa va natijalari bilan boyitdi. Falakiyat ilmiga oid asboblar, quyosh soatlarining bayonini berdi. O'sha davr an'anasisiga muvofiq mamlakatlarni yetti iqlimga bo'lib o'rgandi, joylarning geografiyaga oid koordinatlarini sharqdan g'arbg'a yo'nalishda berdi. Falakiyatga oid bilimlar qomusi hisoblanmish mazkur asar Yevropada Kopernikkacha bo'lgan falakiyat ilmidan asosiy qo'llanma bo'lib xizmat

<sup>1</sup> Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. –T.: Sharq. 2010. – B. 225.



qildi. O'zidan keyingi olimlar uchun ijobiy samaralar berdi.

Olimning stereografik proyeksiyalar nazariyasini undan ming yil keyin buyuk matematik Eyler XVIII asrda geografiyaga oid xaritalar tuzish nazariyasiga tatbiq qildi va "Katta geografik xarita"ni tuzishda ishlatdi. Undan tashqari kompleks o'zgaruvchan miqdorlar tekisligi, noevlid geometriyalar, Lobachevskiy tekisligining Beltrami-Kleyn proyeksiyasi kosmografiyalarning zaminida ham Ahmad Farg'oniyning shu nazariyasi yotadi. Ahmad Farg'oniy asarlari lotin, olmon, ingliz, fransuz, rus va boshqa tillarga tajjima qilingan. Mustaqillik sharofati bilan allomaning 1998-yili 1200 yillik yubiley sanasi nishonlandi. Ahmad Farg'oniyga atab Quvada bog' barpo etilib, allomaning haykali o'rnatildi, Uning boy ijodiy merosini o'rganish va chop etish borasida ham ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning sa'y-harakati bilan Misr poytaxti Qohirada Ahmad Farg'oniyga atab haykal o'rnatildi.

Xullas, Ahmad Farg'oniy bajargan ilmiy tadqiqot natijalari qaysi fan sohasida bo'lishidan qat'i nazar g'oyatda pishiq, puxta va nihoyatda mukammal bo'lgan, shu boisdan uning asarlari fan olamida shuhrat topgan. XII asrdayoq alloma asarlarining lotin tiliga tarjima qilinishi va butun Yevropaga tarqalishi bu fikrimizning isbotidir, Yevropa ilmiy muhitiga farg'onalik allomaga katta hurmat bajo keltirgan. Yevropaliklar Ahmad Farg'oniyini o'zlaricha talaffuz etib, "Al Fraganus" deb ataganlar, Hatto bu nomni buyuk Dante ham ehtirom ila tilga olgan. Umuman olganda Ahmad al-Farg'oniy insoniyatga cheksiz ilm-ma'rifat qoldirdi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. –T.: Sharq. 2010. – 512 b.
2. Ahmad al – Farg'oniy.// <https://arboblar.uz/uz/people/akhmad-al-fergani>
3. Ahmad al – Farg'oniy.// <http://library.ziyonet.uz/uz/book/11946>



## TARIX FANINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI

*Numonova Ziyoda Abdunazarovna  
Farg'onan viloyati Buvayda tumani 47-umumiy  
ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi  
Telefon:+998(93)3748524*

Annotatsiya: ushbu maqolada tarix fani darslarida qo'llaniladigan interfaol metodlar haqida bayon etilgan. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish, shuningdek, ulardagi mavjud tushuncha va tasavvurlarini shakllantirish, erkin fikrlash qobiliyatini yanada rivojlanishiga maqsadida ushbu maqola yozildi.

Kalit so'zlar: interfaol metod, aqliy hujum, pinbord, insert, blits-o'yin texnologiyasi, davra suhbatni metodlari.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining "Xalq ta'limi tizimi faoliyatini mazmunan takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha" chora tadbirlar rejasida ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish, o'qituvchilarini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish va ular asosida dars mashg'ulotlarini tashkil etishga yo'naltirish o'quvchilarga zamonaviy bilim olish yo'llarini o'rgatish, aqlan va jismonan yetuk, ma'naviy dunyoqarashi keng, har qanday vaziyatda o'zining sog'lom fikri bilan munosabat bildira oladigan barkamol shaxslarni tarbiyalash kabi vazifalar ko'rsatib o'tilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda tarix fanining o'rni beqiyos. Tarix fanida interfaol metodlarni qo'llash yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar o'quvchi ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlanirilib turilishi kerak. Interfaol metodlar deganda o'quvchilarini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida o'quvchi bo'lgan metodlar tushiniladi. Bu metodlar qo'llanilganda o'qituvchi o'quvchini faol ishtirok etishga chorlaydi.

"Aqliy hujum" metodi - biror muammo bo'yicha o'quvchi tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. "Aqliy hujum" metodining yozma va og'zaki shakllari bor. Og'zaki shaklida o'qituvchi tomonidan berilgan savolga o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Ushbu metod to'g'ri va ijobjiy qo'llanilganda shaxsni erkin fikrlashga o'rgatadi.

"Pinbord" metodi - pinbord (inglizchadan: pin-maxkamlash, board-yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat. O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi. Fikrlarni taklif qiladi, muhokama qiladi, baholaydi va eng samarali fikrni tanlaydi. Ularni tayanch xulosaliy fikr sifatida alohida qozog'larga yozadi va doskaga mustahkamlaydi.

"Insert" metodi – ushbu metod o'quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirishini engillashtirishda qo'llaniladi. Shuningdek bu metod o'quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

"Blits-o'yin" texnologiyasi – sana va voqealarni to'g'ri xranologik ketma-ketlikda joylashtiring. Sanalar-395, 527-565, 534 yillar, VI asr o'rtalari. Tarixiy voqealar – Rim imperiyasi ikki mustaqil davlatga bo'lindi, Konstantinopol, Yustinian imperatorligi davri, Yustinian I Velisariyni shimoliy Afrikaga jo'natdi, Vizantiyaning zaiflashuvi slavyan qabilalarini istilolariga yo'l ochdi, Vizantiyaga slavyan qabilalari kelsin o'rasha boshlaydi.

"Davra suhbatni" matodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan o'quvchilar tomonidan o'z fikr mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjud. So'zlayotgan o'quvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalarni tinglab bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Turli xil metodlardan foydalanish ilm olish salohiyatini oshiradi. O'quvchilarni yangi bilim olishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlarydan foydalanish har bir darsni qiziqarli va sifatli o'tishiga ko'maklashadi. Jamoa bo'lib guruhlarda ishlash o'quvchilarni o'zgalar fikrini eshitishga va mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. "Tarix o'qitish metodikasi" Sadiyev A, Fuzailova G, Hasanova M. Toshkent 2008
2. "Pedagogika fanidan izohli lug'at" Hasanboyev J, To'raqulov X, Haydarov M, Hasanboyeva O. Toshkent 2008.



## МА’МУН АКАДЕМИЯСИНING FARZANDI – ISMOIL AS-SAOLIBIY

*Qo’chqarov Elyor Madaminovich*

*Xorazm viloyati Qo’shko’pir tumani 50-sonli  
umumiyo rta ta’lim maktabining Tarix fani o’qituvchisi*

*Telefon: +998(97) 451 55 84*

*equuchqorov@bk.ru*

**Annotatsiya:** Quyida berilgan ushbu ilmiy maqolada Xorazm Ma’mun akademiyasining yetakchi olimlaridan bo’lgan, buyuk olim, shoir va tarixchi bo’lgan as-Saolibiyning hayoti va ilmiy faoliyati haqida, manbalarga tayangan holda yondashishga harakat qilingan, ya’ni – Uning “Asr axlining fazillari haqida zamonasining durdonasi” asarini Abul Abbas Ma’mun bilan bog’liqligi, “Eron podshohlari haqida xabar va hikoyalar sarasi” va boshqa ilmiy asarlari hamda, atoqli arabshunos o’zbek olimi Ismatullo Abdullayev ham as-Saolibiyning ilmiy faoliyati haqida ma’lumotlar berishga harakat qilganligi to’g’risida so’z boradi.

**Kalit so’zlar:** Nishopurda, “Yatimat ud-dahr fi mahosin ahl al-asr”, Abul Abbas Ma’munga, “Kitob al-g’urar”, “Tatimmat al-yatima”, “Yatimat ud-dahr”, “Kitob latoif al-maorif”, “Shams ul-adab fi iste’mol al-arab”, Beruniy, Bayrut.

Abu Mansur Abdalmalik ibn-Muhammad ibn Ismoil as-Saolibiy (961–1038) yozuvchi, adabiyotshunos, tilshunos va tarixchi olim bo’lgan. U Xorazm Ma’mun akademiyasining yetakchi olimlaridan bo’lgan. Buyuk olim, shoir va tarixchi bo’lgan as-Saolibiy 961-yili Nishopurda tavallud topgan. Arabiston, Iroq, Ispaniya, Xuroson va Movarounnahr bo’ylab sayohat qilgan<sup>1</sup>. U yoshligida tarix, adabiyot, mantiq va arab tilini chuqur o’rgangan. 992-yilda Buxoroga, so’ng Xorazmga kelgan. Og’ir sharoitda hayot kechirgan olim po’stindo’zlik kasbi bilan shug’ullanib tirikchilik qilgan. As-Saolibiy turli shahar va mamlakatlarda, shu jumladan, Marv, G’azna, Buxoro va Xorazmda bo’lib, yetuk olimlar bilan hamsuhbat bo’lgan. Keyingi hayoti Gurganjda Ma’mun akademiyasida kechib, olimlar orasida katta hurmatga sazovor bo’lgan. Ayrim manbalarga qaraganda as-Saolibiy tarix, mantiq, adabiyotga doir 51 ta asar muallifi bo’lib, bizgacha quyidagi asarlari yetib kelgan, “Yatimat ud-dahr fi mahosin ahl al-asr” (“Asr axlining fazillari haqida zamonasining durdonasi”), tazkirasi mashhur bo’lib, u o’sha davr Movarounnahr, Xorazm, Xuroson va arab adabiyoti haqidagi noyob manbadir. Ya’ni bu asarda arabiyanislar haqida keng ma’lumat beriladi<sup>2</sup>. Asarning ilk nusxasi 994–1000-yillarda yozilgan bo’lib, muallif 1011–1017- yillarda uni qayta ishlab to’ldirgan va xorazmshoh Abul Abbas Ma’munga taqdim etgan. Tazkira muqaddima va 4 qism (40 bob)dan iborat bo’lib, unda X asr hamda XI asr boshlarida arab tilida ijod qilgan movarounnahrlik va bir qancha xurosonlik shoirlar hayoti hamda ijodi yoritilgan. “Kitob al-g’urar” (“Ma’lumotlar kitobi”), “Tatimmat al-yatima” (“Yagona durdonaga qo’shimcha” 1032–1038)<sup>3</sup>, asarida esa “Yatimat ud-dahr” ga kirmay qolgan yoki keyinchalik tanilgan yana 209 shoir (ulardan 104 nafari Movarounnahr va Xurosandan) haqida ma’lumot berilgan. “Kitob latoif al-maorif” (“Ajoyib ma’lumotlar haqida kitob”<sup>4</sup>) asari buvayhiylar sulolasiga vaziri as-Sahib (X–XI-asrlar) ga bag’ishlangan. As-Saolibiy islomgacha va islom davrida o’tgan ko’plab shoirlar, mashhur kishilar, xalifalar, lashkarboshlar va ularning taxalluslari, to’g’risida nodir ma’lumotlar keltirgan. “Shams ul-adab fi iste’mol al-arab” (“Arab tilidan foydalanishda adab quyoshi”), “Kitob al-Tamsil va-l-muxadarat” (“Nodir so’zlar va suhbat kitobi”), “Makorim ul-ahloq” (“Afzal hulqlar”) va “G’urar axbor muluk al-furs va siyarihim” (“Eron podshohlari haqidagi xabar va hikoyalar sarasi”) nomli tarixiy asar, “Shohnoma” va bir she’riy devon ham yaratgan. “At-Tamassul valmu xozarat” va “Mubhij” asarlarini Qobus ibn Vushmgir (hukmronlik davri, 978–1012) da bag’ishlagan<sup>5</sup>. Bizgacha sa-Saolibiyni yuqorida aytib o’tilgan asarlari yetib kelgan. As-Saolibiyning “Yatimat ud-dahr” hamda “Kitob al-g’urar” asarlari O’rta Osiyo xalqlarining X–XI asrlardagi tarixiy madaniyatini o’rganishda qimmatli manbadir. As-Saolibiyning “Eron podshohlari haqida xabar va hikoyalar

<sup>1</sup> Ўзбекистон миллый энциклопедияси. 8-том. –Т.: Ўзбекистон, 2004. –Б. 170.

<sup>2</sup> Ўзбекистон миллый энциклопедияси. 9-том. –Т.: Ўзбекистон, 2004. –Б. 203.

<sup>3</sup> Абдуллаев И. Абу Мансур ас-Саолибий. –Т.: Фан, 1990. –Б. 3.

<sup>4</sup> Абдуллаев И. Абу Мансур ас-Саолибий. –Т.: Фан, 1987. –Б. 6.

<sup>5</sup> Ўзбекистон миллый энциклопедияси. 8-том. –Т.: Ўзбекистон, 2004. –Б. 170.



sarasi" asari to'rt jilddan iborat bo'lib unda Eron yo Afg'oniston va O'rta Osiyoda ro'y bergen ijtimoiy-siyosiy voqealar hikoya qilinadi. Umuman, tarixchi olim as-Saolibiy asarlarda Xorazm, Xuroson va O'rta Osiyoda yashab ijod etgan 124 nafar olim, adib va davlat arboblari haqida ishonchli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Jumladan, olimning "Yatimat ul-dahr fi mahosin axl al-asr" risolasida Beruniya zamondosh va uning bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatgan Abu Bakr Muhammad al-Xorazmiy, Abu Sa'id Ahmad ibn Shabib ash-Shabibiy, Abul Hasan Ma'mun ibn Muhammad ibn Ma'mun, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ibrohim ar-Raqqoshiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Hamid al-Xorazmiy, Abul Qosim Ahmad ibn Zirg'on kabi xorazmlik alloma, adib va davlat arboblari haqida qimmatli ma'lumotlar bor. As-Saolibiyning ilmiy asarlari Yevropa va rus sharqshunos olimlari tomonidan yuqori baholangan.

Xulosa o'rnida shuni qo'shimcha qilishimiz mumkinki – As-Saolibiy keyinchalik Sulton Mahmud saroyida Abu Rayxon Beruniy bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan edi. Olimning "Yotimat ud-dahr fi mahosin axl al-asr" asari 1883 va 1947-yillarda arabcha matnda Bayrut va Qohirada nashr qilinganligini, o'tgan asr o'rtalarida esa – asarning fransuz, lotin, rus va o'zbek tilidagi tarjimalari ham nashrdan chiqarilganligini ko'rishimiz mumkin. Atoqli arabshunos o'zbek olimi Ismatullo Abdullayev ham bu borada, o'zining uzoq yillar ilmiy tadqiqotlari tufayli as-Saolibiyning arab tilida yozilgan ilmiy va badiiy asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, o'rta asrning bu noyob madaniy merosi bilan hozirgi avlodlarni tanishtirishga muvaffaq bo'ldi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев И. Абу Мансур ас-Саолибий. Т.: Фан, 1992. –133 б.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон, 2004. –700 б.



## MUHAMMAD IBN ISMOIL AL – BUXORIY YOHUD HADIS ILMINING SULTONI

*Rahmatillayeva Muxlisa Ismatullayevna  
Toshkent viloyati Angren shahar 4-sonli  
umumi o'rta ta'lim makatabining Tarix fani o'qituvchisi  
Telefon: +998(93) 668 86 83  
muxlisarahmatillayeva@gmail.com*

**Annotatsiya:** Quyida berilgan ushbu ilmiy maqolada – Imom al-Buxoriyning hayot yo'li va ilm sohasidagi bebahoh durdonasi haqida so'z boradi ya'ni – Uning yoshlikdagi faoliyati, Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod kabi shaharlarini kezib chiqishiga sabablar, Nishopurlik al-Hakimning Uning ilmiy faoliyatiga bergen ta'rifi, Buxoriy bilan Buxoro hukmdori Holid ibn Ahmad az-Zuhaliy o'rtasida adovat hamda "Al-Jome' as-sahiyh" ("Ishonarli to'plam") asari haqida va boshqa ma'lumotlar haqida ilmiy yondashishga qisqacha harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** Hijoz, Nishopurlik, 600 ming, 100 ming, 200 ming, Ahmad az-Zuhaliy, Xartang, "Al-Jome' as-sahiyh".

"Hadis ilmidagi Amir-ul mu'miniyn" degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan muhaddis olim Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Mugira al-Buxoriy al-Jubfiy hijriy 194-yil shavvol oyining 13-kuni, hozirgi hisobda 810-yil 20-iyulda Buxoroda tavallud topgan. O'n yoshga yetmasdan ilmi hadisni o'rganmoqqa kirishgan imom Buxoriy 11 yoshida ba'zi ustozlarining xatolarini topa boshlagan. O'n olti yoshga yetganida 825 – 826-yillarda onalari va akalari bilan haj safariga ravona bo'ladilar. Makka va Madinani ziyorat qilib, olti yil Hijozda yashab hadis ilmini astoydil o'rganadi. Shundan so'ng imom Buxoriy Muhammad alayhissalomning hadisi shariflarini yanada chuqurroq o'rganish va ularni to'plab tartibga solmoq niyatida o'sha davrda islom fani olamining yirik bo'lmish Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod kabi shaharlarini kezib chiqadi. Bu yerlarda u hadis ilmi bilan bir qatorda fiqhidan ham ta'lim va saboqlar oladi, yirik olimlar davrasida bahs-munozaralarda qatnashadi va ilmi toliblarga dars ham beradi. Nishopurlik al-Hakimning (1025-yilda vafot etgan) ma'lumotlariga qaraganda, imom Buxoriy ustozlarining soni to'qson kishi atrofida bo'lgan. Ayni zamonda o'zlari ham "Minglab shogirdlar yetishtirganlar – Muslim ibn Hajjoj, Iso at-Termizi, An-Nasoriy, Abu Zur'a, Yusuf al-Forobi, Abu Bakr ibn Xuzayma kabi mashhur muhaddislar, shular jumlasidandir". Imom Buxoriy jami 600 ming hadislami to'plaganlar, Shulardan 100 ming "sahiyh" hadislarni va 200 ming "g'ayri sahiyh" hadislarni yoddan bilganlar, Hadis ilmi bobida imom Buxoriyga teng keladigan biror kimsa musulmon olamida bo'lmagan. Imom Buxoriy horijdan qaytgach, hadis ilmini targ'ib qilishga kirishadi. Ko'pchilik uni hurmatlagan va e'zozlagan. Ammo ba'zi g'arazgo'y va qora niyatlari kishilar al-Buxoriyga hasad qilar edilar. Ularning hasadgo'yligi va qutqusi oqibatida imom Buxoriy bilan Buxoro hukmdori Holid ibn Ahmad az-Zuhaliy o'rtasida adovat paydo bo'ladi. Buning sababi shundaki, hukmdor allomadan huzuriga kelib "Al-Jome' as-sahiyh", "At-Ta'rix" kitoblarini farzandlariga o'qib dars berishni talab qiladi. Imom Buxoriy bu talabni rad etadi: "Men ilmni xor qilib, uni hokimlar eshigi oldiga olib bormayman, kimga ilm kerak bo'lsa, o'zi kelsin. Lekin Alloh oxirat kuni ilmni yashirmay, uni toliblarga sarf qilganim uchun meni kechiradi", – deb javob beradi. Buxoro hokimi ig'vogarlarning maslahatlariga qulog solib, imom Buxoriydan shaharni tark etishni talab qiladi. Olim Samarqand ulamolari taklifi bilan yo'lga chiqadi. Yo'lda Samarqandga yaqin Xartang (hozirgi Poyariq tumani) qishlog'ida qarindoshlaridan bo'lmish Abu Mansur G'olib ibn Jabril degan kishining uyida tunaydi va bir necha kun bu yerda betob bo'lib yotib qoladi. Imom Buxoriy ko'p vaqt yerda, hijriy 256-(milodiy 870-yil 1-sentabrda) yili 62 yoshida vafot etadi va shu yerda dafh qilinadi. Endilikda uning qabri Movarounnahr diniy boshqarmasi ixtiyorida bo'lib, tabarruk va ziyoratgoh joylardan bin sifatida davlat muhofazasidadir, Imom Buxoriydan ulkan va boy meros qolgan. U yozgan asarlarning soni yigirmadan ortiqdir<sup>1</sup>. Olimning "Al-adab al-Mufrad", "At-Ta'rix as-Sagir", "At-Ta'rix al-Kabiyr", "Kitob al-Ilal", "Asomi us-Sahoba", "Kitob al-Kuna" va boshqa asarlari orasida shoh asar hisoblanmish "Al-Jome' as-sahiyh" ("Ishonarli to'plam") asari to'rt jilddan iborat bo'lib, islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadislar to'plamlari orasida eng ishonarlisi va

<sup>1</sup> Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. –T.: Sharq. 2010. – B. 262.



mukammalidir. Unda Muhammad alayhissalom hadislaridan tashqari fiqh, islom marosimchiligi, axloq-odob, ta'lim-tarbiya hamda o'sha davr tarixi va etnografiyasiga oid qimmatli fikr va xulosalar ham bor. Bu to'plamga olimning butun umri davomida to'plagan 600 ming hadisdan faqat 7275 ta eng "sahiyh" hadislar kirgan. Bu nodir asarning yozilganiga taxminan 1200 yil bo'ldi. O'sha davrdan to shu kunga qadar u islom ta'limotida Qur'onni Karimdan keyingi ikkinchi o'rinda turuvchi muqaddas kitob, qimmatli manba asari hisoblanadi. Istiqlol sharofati bilan Buxoriyning o'lmas merosi el-yurt bag'riga qaytdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225-yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori (1997-yil 29-aprel) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi. Buxoroning boy ma'naviy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi tuzildi (1998-yil 4-noyabr)<sup>1</sup>.

Xullas, buyuk vatandoshimiz imom Buxoriy qoldirib ketgan boy ma'naviy meros avlodlarimizni bundan keyin ham ulug' insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashdek olajanob maqsad yo'lida xizmat qilaveradi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. –T.: Sharq. 2010. – 512 b.
2. Imom al-Buxoriy// <https://uz.wikipedia.org/wiki/Buxoriy>
3. Imom al-Buxoriy// <https://arboblar.uz/uz/people/imam-ismail-al-bukhari>

<sup>1</sup> Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. –T.: Sharq. 2010. – B. 263.



**"ABULXAYR IBN HAMMOR" YOHUD "IKKINCHI GIPPOKRAT"**

*Tilanova Tabassum Umaraliyevna  
Toshkent shahar Olmazor tumani 22-sonli  
umumiy o'rta ta'lif maktabining Tarix fani o'qituvchisi  
Telefon: + 998(99) 892 25 39  
@tilanova8886@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada Ma'mun akademiyasining yetakchi olimlaridan biri – Abulxayr ibn Hammorning hayoti va ilmiy faoliyati, Uning suryon tilidagi muvaffaqiyati, falsafa va tabobatga oid asarlari, Beruniy bilan bog'liq jarayonlar va boshqa ilmiy faoliyati bo'yicha qisqacha yondashishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** Bag'dod, Forobiy, Ma'mun ibn Ma'mun, Gurganch, Suryon, "Meteorologiya", "Tabiblar imtihoni haqida kitob", "Ikkinch Gippokrat", "Tib qonunlari".

Ma'mun akademiyasining yetakchi olimlaridan biri – Abulxayr ibn Hammor uning to'liq ismi Abu Xayr Hasan ibn Sivor ibn Bahrom, ko'proq Ibn Xammor nomi bilan mashhur<sup>1</sup>. U Bag'dodda tug'ilib, o'sha davrda Forobiyning shogirdi bo'lmish Yahyo ibn Adiyning qo'lida falsafa va mantiqdan ta'lif oltan. Bu yerda u yetuk olimlardan tabobat, mantiq, falsafa ilmini o'rganib, o'z davrining taniqli olimi darajasiga ko'tarilgan. Mantiqshunos, Bag'dod madrasalarida mudarrislik qilgan<sup>2</sup>, edi. Keyinchalik Ma'mun ibn Ma'mun huzuriga Gurganchga kelib, shu yerda ilmiy faolitatini davom ettiradi. Umrining so'nggi yillarini G'aznada o'tkazgan. Uning iste'dodi ayniqsa tabobat sohasida namoyon bo'lib, Sharqda ikkinchi Suqrot degan faxrli nomga sazovor bo'lgan. Abulhayr ibn Hammor arab, fors, suryoniy va yunon tillarini puxta o'rganib suryoniy va yunon tilidagi ko'pgina kitoblarni arab tiliga tarjima qilgan edi. Xammor suryon tilini yaxshi bilgan va shu tilda yozilgan bir qancha kitoblarni, jumladan, Aristotelning "Meteorologiya" sini suryoniy tilidan arab tiliga tarjima qilgan. O'zi ham falsafa va tabobatga oid bir qancha asarlar, shu jumladan, "Tabiblar imtihoni haqida kitob", "Homiladaorlar haqida kitob", "Qariyalar tadbiri haqida kitob" kabilarni yozgan, lekin ular bizgacha yetib kelmagan. Olimning qalamiga mansub asarlardan faqat birginasi – "Suv bug'uning asorati sifatida havoda hosil bo'ladi" kamalak va tuman haqida kitob" o'rta asr bibliografi Ibn Hadim (X asr) tomonidan zikr etilgan. Beruniy ham o'zining dorishunoslikka oid "Farmakognoziya" asarida Xammorning "Pavel kitobiga sharh" va "Ovqatlar haqida kitob" kabi tibga oid ikkita asaridan iqtiboslar keltiradi<sup>3</sup>. "Birlamchi modda haqida kitob", "Faylasuflar va nasroniyalar o'rtasidagi fikr muvofiqligi haqida kitob", "Maqola fi xulq al-inson va tarkib a'zoih" ("Insom xulqi va a'zosining tarkibi haqida kitob"). Hammor ko'proq tibning nazariy masalalari bilan qiziqqan, uning asarlarida anatomiya, qariyalarning parhezi, tabiblarni sinash, oziq moddalarva epilepsiya masalalari bayon etilgan. XIII asrda yashagan matematik Shamsiddin Samarqandiyning aytishicha, Xammor tengyonli uchburchaklarning asosidagi burchaklariga oid bir teoremani isbotlagan. Bu teorema uning nomi bilan "ash-shakl al-xammoriy", yani "Xammoriy teoremasi", deb mashhur bo'lgan. Ibn Hammorning ko'p asarlari tibbiyotning nazariy va amaliy masalalarini o'z ichiga oladi. Ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" asarini yozishda ibn Hammor asarlaridan birinchi manba sifatida foydalangan. Sulton Mahmud G'aznaviy Xorazmni qo'lga kiritgandan keyin Xammorni o'zi bilan G'aznaga olib ketadi. O'sha yerda 102 yoshida musulmonchilikni qabul qildi. Ungacha Xammor nasroniy dinida edi. Manbalarda keltirilishicha, sulton Mahmud G'aznaviy Abulxayr ibn Xammorni islomni qabul qilganligi uchun unga G'azna yaqinidagi Xammor nohiyasini mult sifatida iqto (hadya) qilib bergen (Xammor laqabi shundan). Boshqa manbalarda Xammor so'zi ro'mol yoki ayollar uchun hijob tikuvi ma'nosida qo'llaniladi<sup>4</sup>.

Xulosa o'mida shuni qo'shimcha qilishimiz mumkinki, Ma'mun akademiyasida ijod qilgan boshqa olimlar qatori ibn Xammor ham o'z asarlarini o'sha davrning ilm-fan tili bo'lgan arab tilida

1 Хоразм Маъмун академияси. –Т.: Шар , 2006. – Б. 94.

2 Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-том. –Т.: Ўзбекистон, 2004. –Б. 72.

3 Хоразм Маъмун академияси. –Т.: Шар , 2006. – Б. 94.

4 Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-том. –Т.: Ўзбекистон, 2004. –Б. 73.



qalam tebratgan. Xammor falsafadan tashqari tabobatda ham juda mashhur bo'lganligi uchun ham "Buqroti soniy", ya'ni "Ikkinch Gippokrat" laqabiga sazovor bo'lganli, shubhasiz U tabobat ilmida ham o'z davrining buyuk dohiysi ham bo'lgan.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. Хоразм Маъмун академияси. –Т.: Шарқ, 2006. – 168 б.
2. Ўзбекистон миллӣ энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон, 2004. –700 б.
- 3.[https://uz.wikipedia.org/wiki/Abulxayr\\_ibn\\_Hammor\\_Hasan\\_ibn\\_Sivor\\_ibn\\_Bobo\\_ibn\\_Bahrom\\_Xorazmiy](https://uz.wikipedia.org/wiki/Abulxayr_ibn_Hammor_Hasan_ibn_Sivor_ibn_Bobo_ibn_Bahrom_Xorazmiy)
- 4.[https://www.wikiwand.com/uz/Abulxayr\\_ibn\\_Hammor\\_Hasan\\_ibn\\_Sivor\\_ibn\\_Bobo\\_ibn\\_Bahrom\\_Xorazmiy](https://www.wikiwand.com/uz/Abulxayr_ibn_Hammor_Hasan_ibn_Sivor_ibn_Bobo_ibn_Bahrom_Xorazmiy)
5. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/453>



## ҚАДИМГИ ДӘҮИРДЕ САКЛАР-МАССАГЕТЛЕРДИН ДИНИЙ ТУСИННИКЛЕРИ

*Курбаниязова Айзада Пулатовна  
Эжинияз атындағы Нөкис мәмлекеттік  
педагогикалық институты академиялық лицейиниң  
тариих пәни оқытышысы  
Телефон: +998(97) 220 29 60*

**Аннотация:** Қадимги дәүирде саклар-массагетлердин жәмийеттік тұрмысы, қудайлар көриниси, көркем өнерлери, зергерлик буйымлары, Саклардың мифологиясы, мәденият естеликтери, диний дәстүрлерди ҳәм тили ҳаққында баян етиледи.

**Гилт сөздер:** әскерий демократиялық, ҳайуанат стили, қанатлы ат тулпарлар, Митра, Индра қудайлары, Алпамыс, Қоблан дәстанлары, сакендр көркем өнери.

Б.э.ш. III-II әсирлерде Кубла Арап бойы жерлерине турклердин араласыуы күшайды, әсиресе усы дәүирде гүннлар, теле этнослары жети асарлар менен бирге Хорезмге де араласады. Б.э.ш. VII-V әсирлерде саклардың жәмийеттік тұрмысы әскерий демократиялық, конфедерациялық мәмлекеттік дәрежесине көтериледи. Қадимги дәүирде саклар-массагетлер-сарматлар, қанлылар, гүнналар, теле қәүимлери ерте түрк этносына киреди.

Кубла Арап саклары, Иран ахеменийлери, Бактрия, Хорезм ҳәм Қытайлардың Чжоу және Хань империясы дәүириндеги көркем өнерлери менен таныс болған «Б.э.ш. VIII әсирден баслаپ саклар арасында көң таралған» ҳайуанат стили атты коркем тури көп тарапады. Көп ғана буйым заттарда қошқар, түйе, жолбарыс, буркит сыйқылар жәниүарлар көринислери салынды. Саклардың түснегинше қудайлар адамларға қанатлы ат тулпарлар, құслар, басқа ҳайуанлар түрінде көринеди деп ойлаған. Усы образлардың мифологиясының ауыз-еки әспаналарда көң орын алғаны ушын «хайуанат стили» пайда болады. Саклардың зергерлик көркем өнерлери үлгиси (сырға, бронзадан исленген жүзик, курал жарақтар, ҳайуанат сүйретлери менен безелген буйымлары) Тегискен, Уйгарак, Ыссық қәбирлеринен табылды. Саклардың мифологиясында: атлар, құн менен от пенен байланыслы болады.

Тулпар атлар ҳаққында қарақалпақлардың Алпамыс, Қоблан дәстанларында ушырасады. Саклар дүньяны тәбиятты, космосты түснегінде өзинше түснегерге ийе болған. Митра, Индра құсаған қудайларға байланыслы дүнья: жер асты, дүнья, орта дүнья, жер бети ҳәм жоқарғы дүньялар аспан үстилери деп түснеген. Олардың түснегинше дүньяның төрт тәреши он, сол, алғы ҳәм артқы тәреpleri болған. Улыўма алғанда сак-массагетлердин «хайуанат стили» сак қәүимлердин дүньяны аңлат түснегінде ҳақыйқый көриниси, олардың мифологиясында көркем өнеринде сәүлеленийи, саклардың идеологиясының қәлиплескенин дәлилләйди. Б.э.ш. VII-VI әсирлерде саклардың жәмийеттік дүзими әскери демократиялық конфедерациялық мәмлекеттік дәрежесине көтериледи. Қәдимги дәүиринде сак-массагетлер, сарматлар, қанлылар, гүннлар қәүимлери Арап бойы халықтары менен бирге өзлериңе тән материалы руýхый мәдениятты, диний дәстүрлерди дүзеди. Усы дәүирилерде Қарақалпақстан аймағында ерте түрк тилинде сейлейтуғын халықтар жасайды. Қадимги халықлардың диний түснегерлер олардың мәденият естеликтеринде де сәулесин тапқан, Суретлеў искусствосында ҳәм олардың диний түснегерлерининг белгилери бар.

Накши-Рустем таў тасындағы жазыуда саклар үш топарға бөлингегин көрсетеди: Саки-Тиграхауда, Саки-хаумаварка, саки-тарадарайя. Сол үш саклардың Уатаны мәкан жайы, географиясы бойынша илимде тартыслар жудә көп. Әмиудәръя ғәзийнеси деп аталған саклар көркем өнеринде алтын пластинкада адам (сак) сүйрети берилген. Персеполь рельефинде саклар сүүрети берилген, олар Иран шахына тән ат, х.т.б. алып барғаны көрсетилген. Орта Азия еки дәръя аралығында сакендр көркем өнери бойынша С.П.Толстов басшылығында Хорезм экспедициясы ағзалары Уйгарак, Тегискен кәбиристаннан тапты. Бул сак искусство миyrаслары толық жәрияланбады. С.П.Толстов «Сырдәръя делтасындағы скиф қәуимлери» (І36 бет) ниң материаллық мәдениятты бойынша жазды. Арап бойы сак-массагетлер бойынша W.E.Тагл, В.В.Струве, А.Н.Бернштейн, С.П.Толстов жазды . Ол «Приаралья скифлери ҳәм Хорезм» (СЭ, 1961, W4.) макала жазды. Сырдәръяның ески аңбары Кувондәръя, Жаңадәръя бойларында ярым көшпели шаруалар хожалығы жасаған. Сали Варвар Кәуимлердин естеликтери. Жети асар, Чирикрабат, Бабиши мулла, Баланды,



Барак Там, Уйгарак, Тегискен естеликлеринде сакланған еди. Инкардәръя бойында Сак-сакафаваклар естелиги изертленди. Массагет кәуимлери батпаклар, көллөрде жасаған», - деп жазды Страбон Батпаклық ҳәм атаудағы саклар-апасиаклар болған.

Сырдәръя бойы Тегискен, Уйгарак естеликлерин С.П.Толстов, М.А.Итина казыулары нәтийжесинде саклар мавзолейи, өли өртеу, өли жерлеу өзгешелігі анықланды, «хайуанат» стилинде тау ешкиси (боран) басы, еки хайуан фигурасы, арслан, барс фигуralы, Алтын бляшкада ешин тулғасы, Арал бойы саклар көркем өнерин көрсетеди.



Акинак - қанжар, сүуын («звериний стиль»)

#### ПАЙДАЛАНҒАН ӘДЕБИЯТЛАР:

- 1.Агаджанов С.А. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX-XIII вв. Ашхабад, 1969.
- 2.Вишневская О.А. Культура сакских племен низовьев Сырдарьи в VII-V вв. до н.э.// - М.1973.
- 3.Манилов Ю. П. Средневекового Хорезмские памятники Устюрта. Ташкент,1978.



## TARIXIY DALIL YA UNING INTERPRETATSIYASI

*Davlatova Ozodaxon Xusanboyevna  
Xolmatova Irodaxon Ruzimamatovna  
Andijon shahar 13-son umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchilari  
Tel: +998916152940; +998999727227*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarixiy dalillar va ularning interpretatsiyasi haqida fikrlar berilgan, shuningdek tarixiy tadqiqotlar tarixni yanada keng o'rganishda muhim ekanligi takidlangan.

**Kalit so'zlar:** dalil, interpretatsiya, tadqiqot, jarayon, tarixchi, fakt, manba.

Tarixiy dalillarni aniqlash va ularning interpretatsiyasi zamonaviy tarix tadqiqotlarining asosiy omillaridan biri sanaladi. Tarixchi nafaqat professional mahoratga ega bo'lishi kerak, balki tarixiy dalil yuzasidan o'zining ilmiy qarashlariga ham ega bo'lishi (qay tarzda qo'llanilishi, tahlili qilinishi va dalillarni interpretatsiyalashi) talab etiladi. Tarix fani mavjud bo'lган barcha davrlarda «tarixiy dalil» tushunchasi yuzasidan bahs va munozaralar ham doimiy ravishda mavjud bo'lган. Bu haqda fikrlar shunchalik ko'PKI, ularni tarixiy ijodni shakllantirib beradigan «g'ishtchalar»dan boshlab, tafakkur orqali shakllantiriladigan tasavvurlargacha ko'rish mumkin. Biroq bu bahslar va munozaralar asoslanmagan quruq safsatalar emas, balki umumiy holatda tarixiy tafakkurni mukammallashtirib, yangi yondashuvlarning yuzaga kelishi va tarixiy tadqiqotlarda yangi uslublarning qo'llanishiga yo'l ochib berdi.

Tarix fani o'zining bir necha ming yillik taraqqiyot yo'lida tarixiy dalilga bo'lган munosabatni aniqlashtirib olish uchun birmuncha murakkab, ilmiy tafakkur, ilmiy bilish va ilmiy xulosalar chiqarish tajribalarini o'tadi. Tarix fanining ibtidosida tarixchining vazifasi asosan dalillarni yig'ish bo'lган. Og'zaki manbalar, afsonalar, rivoyatlar dastlabki vaqtarda o'tmisni tasvirlab beruvchi asosiy omillar bo'lса, tarix fanining taraqqiyoti jarayonida dalil va unga bo'lган munosabat, dalilni tarix faniga va tarixiy voqealarning asoslab berilishiga jalb etilishi ham jiddiyashib, murakkablashib bordi. Aniq va muayyan sodir bo'lган tarixiy jarayon yoki hodisa haqida aniq dalillarni topish tarixchi oldidagi asosiy vazifalardan va muammolardan biriga aylandi.

Asosiy muammolardan yana biri dalilni izohlab berish edi. Asta-sekinlik bilan dalil va uning izohi borasidagi fikrlar, qarashlar, yondashuvlar shakllana boshladi va ayni vaqtida ularning turli xilligi bu tushunchalar o'rtasidagi ziddiyatlarning yuzaga kelishiga ham sabab boldi.

Zamonaviy tarix fanida tarixchining vazifasi sifatida o'tmis voqealarini aniq va ilmiy asoslangan, haqqoniyligini va xolis yondashgan holda tavsiflash, tasvirlash, talqin qilish tushuniladi. Tarixiy bilishda voqeanning turlicha interpretatsiyalari mavjud. Sharqli ravishda ularni real va konstruktiv interpretatsiyalarga bo'lish mumkin.

Nisbatan keng tarqalgan real interpretatsiyaga ko'ra o'tmisda sodir bo'lган voqealarning barchasi o'zining tarkibiy qismlari va tuzilishlariga ega bo'lib, turli manbalarda qayd etilgan. Shu tariqa voqealar tarixchi uchun «xomashyo» vazifasini o'taydi. Bu holatda tadqiqotchining faoliyati haqqoniyligini nuqtayi nazaridan o'tmis voqealari haqidagi materiallarni va ma'lumotlarni talqin qilishda teng munosabat yondashuviga amal qilishi bilan baholanadi.

Konstruktiv interpretatsiya tarafdarlarining ta'kidlashicha, voqealarni tadqiqotchidan alohida va unga bog'liq bolmagan holda mavjud bo'lmaydi. Tarixchi turli manbalar bilan ishlash jarayonida muayyan bir xulosaga kelgan holda voqeanning intellektual konstruksiyasini yaratadi. Shu tariqa voqeani tarixchining aqliy faoliyati natijasi sifatida tushunish mumkin.

Bugungi kunda tarix fani metodologiyasida mavjud bo'lган tarixiy dalil va uning interpretatsiyasi tushunchasi tarixiy dalillar, yozma va moddiy manbalardagi ma'lumotlar va o'ziga xos jihatlarni tahlil qilgan holda tarixiy jarayon va voqelarni tahlil qilish, ular yuzasidan ilmiy xulosalar berishda aniq dallilarga asoslanilishini ko'zda tutadi.

Tarixiy faktlarni aniqlash, ularni talqin qilish tarixga oid tadqiqotlarning muhim vazifasidir. Tarixchi nafaqat professional mahoratga ega bo'lishi, shu bilan birga tarixiy faktlarni aniqlash, tahlil va talqin qilishda o'zining obyektiv qarashlariga ham ega bo'lishi kerak.

Tarixni o'rganishda eng birlamchi manba sifatida tarix yoki tarixiy jarayonning o'zini asosiy o'ringa qo'yish, yozma manbalar, moddiy manbalardan foydalanish jarayonida uning mohiyatini ochib berishda, ularga baho berishda yoki talqin qilishda esa ularning o'ziga xos subyektiv



xususiyatlarini va ayni vaqtida tadqiqotchi tomonidan subyektivlikka yo'l qo'yilishi mumkinligini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Har qanday tadqiqotning asosida eng avvalo birlamchi manba bu tarixning o'zi, ya'ni ana shu tarix jarayonlari sodir bo'lgan vaqt, jarayonlarni yuzaga keltirgan tarixiy sharoit va hududiy omillar bo'lishi kerak. Bunda tarixiy davrning va hududning siyosiy va iqtisodiy holati, jamiyat ma'naviy hayotining asosiy jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa tarixchidan tegishli davr tarixiy jarayonlarini chuqur bilishni, shu davrga oid manbalar va dalillarni tadqiqotga jalb etish va ulardan foydalanishda va ayni vaqtida ularga nisbatan mantiqiy fikrlay olishi mahoratiga ega bo'lish talab etiladi. Tarixchi tadqiqot mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda yozma va moddiy manbalarni, ulardagi ma'lumotlar, ya'ni faktlar va dalillarni tanlash asnosida ularni saralaydi, ularni sharhlash orqali «jonlantiradi», o'zining ilmiy nuqtayi nazaridan, tasavvuri, tavsifi va sharhlari orqali ilmiy tizimga kiritadi va ma'lum bir tarixiy jarayonning bir qismini yorita oladi. Bunda birinchidan, tarixiy manbalarning tahlili orqali undagi ma'lumotlar, faktlar orqali tarixiy jarayonlarning tavsifi va tahlili shakllantirilsa, ikkinchidan yozma manbalardagi mavjud ma'lumotlar orasidagi mavhumlik, yozma va moddiy manbalarni solishtirish va mantiqiy xulosalar chiqarish yordamida esa tarixiy jarayonlarning tavsifi va tahlilidagi uzilishlar va mavhumliklarni to'ldirish imkoniyatini beradi.

#### Foydalaniman adabiyotlar

1. Alimov D.A., Ilxamov Z.A. Tarix fani metodologiyasi.
2. Umumta'lim maktablari tarix fani darsliklari.
3. [www.tarix.uz](http://www.tarix.uz)



## TARIXIY OBIDALAR – MA'NAVIYATIMIZ KO'ZGUSI

*Ismoilova Bonu Ibragimovna  
Navoiy viloyati Navoiy shahri 11-AFCHO'IM  
Tarix fani o'qituvchisi  
Telefon: +998(90)6653920*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada mustabit tuzumi davrida toptalib, mustaqillik tufayli qayta qad ko'targan o'zbek xalqining ma'naviy va madaniy meroslari bo'lmish tarixiy obidalar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'z:** Tarixiy yodgorliklar, me'moriy obida, monumental san'at, qo'riqxona, Oqmasjid, Toshmasjid.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan madaniy tarixiy merosga e'tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqlol yillarda Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent. Qo'qon. Shahrисabz kabi shaharlarda ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta'mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalişlaridan biriga aylandi.

Toptalgan tariximiz, qutlug' qadamjolar, hatto nomlari ham unutilayozgan obidalar ta'mirlandi, qayta tiklandi. Imom al Buxoriy, Imom at-Termizi, Abu Mansur al-Moturudiy, Ahmad al-Farg'oniy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi ulug'allomalarimizning sha'nlariga munosib yodgorlik majmualar yaratildi. Toshkent, Samarqand va Shahrисabzda Sohibqiron Amir Temur, Toshkentda Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Urganchda Jaloliddin Manguberdi, Termizda Alpomish haykallari qad ko'tardi.

Bugungi kunda mamlakatimizda etti mingdan ortiq yodgorlik, shu jumladan, 2500 ta me'moriy obida, 2700 tadan ortiq monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. 1991 yildan Xivadagi Ichانqal'a qo'riqxonasidagi, 1993 yildan Buxoro shahri markazidagi, 2000 yildan Shahrисabz shahri markazidagi yodgorliklar Yuneskoning "Umumjahon madaniy merosi" ro'yxatiga kiritildi.

Mustaqillik yillarda qayta tiklangan muqaddas qadamjolardan biri bo'lgan Oqmasjid Navoiy viloyati Xatirchi tumanida joylashgan. Bu masjidni ulug'zotlardan biri Sayyid ota bunyod etganlar. Qariyalarning aytishiga ko'ra, 1380-1390 yillarda bunyod etilgan Oqmasjid istiqlol davrida xalqimizning muqaddas ziyoratgohiga aylanib, yaxshilik va eзgulikka, tinchlik va osoyishtalikka. O'zaro ahil va hamjihat bo'lishga xizmat qilmoqda. Masjid 1920 yillargacha musulmonlarning eng sevimli maskaniga aylangan. Bu masjidda Buxoro madrasalarini tamomlab kelgan mudarrislar, ulamolar dars bergenlar, namozxonlarga shariat va tariqat yo'llaridan saboq bergenlar, ularni halollik va poklikka, tinchlik va osoyishtalikka da'vat etganlar. Biroq, o'sha mustabid sovet tuzumi boshlangandan keyin mullalar, namozxonlar qatag'on qilindi. Masjidlar yopib qo'yildi. Biri «qulоq», biri «Xalq dushmani», biri «Ruxoniy», biri «Bosmachi», deb ayblangan xalqimiz masjidlarga borishdan uzoqlashdilar. Urush yillarda esa boshqa masjidlar kabi Oqmasjid ham omborxonaga aylantirildi. Sayyid ota qabrlari ham, masjid ham qarovsiz qolib, ko'rimsiz bir joyga aylanib qolgan edi. 1980 yillar atrofida ham namozxonlar kommunistik mafkura siyosatchilaridan qo'rqa-pisa masjidga kelib-ketar edilar. 1981 yil 1 sentyabrda tuman markazidagi Shayx Gadoy Selkin masjidining faoliyat ko'rsatishiga ruxsat berildi. Shu jumladan, Oqmasjidga ham. Shundan so'ng din peshvolari, namozxonlar hashar uyushtirib, darhol obodonlashtirish ishlarini boshlab yuborishdi. 2003 yil 5 sentyabr kuni Oqmasjidning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Masjid yana faoliyat yurita boshladi.

Navoiy viloyatida bunday qadamjoylar va masjidlar juda ko'plab misollar keltirishimiz mumkin masalan; Qiziltepa tumani Toshrobot mahallasida joylashgan Toshmasjid ham xuddi shunday mustaqillik tufayli o'z mahobatini qayta tiklagan qadamjoylardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda Navoiy viloyatini o'zining mahobatli ko'rinishi bilan bezab turgan bu masjidlar kishilarni eзgulikka chorlab, namozxonlarga sharoit yaratib bermoqda. O'tmishimizni avaylash, tarixiy obidalarni e'zozlash, asori-atiqalarni, qolaversa, xalqimizning buyuk o'tmishi, yashayotgan ijtimoiy hayoti va kelajagi bilan bevosita bog'liqidir. Bu xususiyatlar millatimiz va xalqimizning milliy qadriyati bo'lib, azaldan ularning qon-qoniga singib ketgan.



#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000-y
2. R. Rajabov “Tarix fanining metodologik asoslari”Toshkent.:”Istiqlol” 2013, B-50
3. S.Inoyatov. “Karmana tarixi”.Buxoro-2005



## TARIX FANINI O'QITISHDA O'YIN METODLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Sapayeva Munira Ramatovna  
Xorazm viloyati Hazorasp tuman  
14-son mактаб tarix fani o'qituvchisi  
Tel 93 286 52 51*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix fanini innovatsion uslubda o'qitish va zamonaviy metodlardan keng foydalanish haqida fikr boradi.

**Kalit so'zlar:** miliy ong, tafakkur, pedagogik texnologiya.

Bizga ma'lumki tarix-juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko'rsatuvchi „ko'zgu” desak bo'ladi va bu ko'zguga qarab har qanday inson, jamiyat, xalq o'z kelajagini belgilab olishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o'rinnegi egallashi onson kechgani yo'q. Shuning uchun tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilar bugungi kunning qadriga yetishini, o'tmishda yo'1 qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikni, o'tmishdagи xatolardan xulosa chiqarib olishini o'rgatish lozimdir. Qolaversa, maktabda tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarda o'zlari mustaqil va ijodiy fiklashimi rivojlantirishga, miliy ong va tafakkurni o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim. Bu borada tarix darslarini tashkik etishda zamonaviy pedagogiktexnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sababi, ushbu pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etiladigan darslarning asosini turli o'yin va qiziqarli shartlar, musobaqalar hisobiga tashkil etish mumkin. Aynan shunung uchun ham, tarix darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bizga ma'lumki, tarix fanining asosini ma'lumotlar tashkil etadi. Ularni to'liq eslab qolishi o'quvchilar uchun bir oz qiyinchilik tug'dirishi mumkin (ayrim past o'zlashtiruvchi o'quvchilar). Bu kabi ma'lumotlarni o'quvchilar xotirasida bir umrga esda qolishi,turli xil sahnali ko'rinishlar,qiziqarli o'yinli usullar,krossvordlar,guruuhlar bilan ishslash,baxs-munozaralar olib borishiga bog'liq. Shu xususda pedagoglar tomonidan keng qo'llanilayotgan usullardan biri «Mavzuga zamin» usuli bo'lib, maskur usulning samarasini yuqori hisoblanib, O'quvchilarni o'tilgan mavzuni mustahkamlashdan oldin, shu mavzu bo'yicha o'quvchilarni darsga tayyorlash ya'ni zamin hozirlash. Bizga ma'lumki o'quvchilar mavzuni o'qituvchi tushuntirib berishi chog'ida va o'zi darslikdan o'qib o'zlashtirishi mumkin. Lekin bu degani sinfda hamma o'quvchilar o'zlashtira oladi degani emas. Chunki hamma o'quvchilarning xotirasi,fikrlash doirasi birdayin bo'lmaydi. Shuning uchun ularga turli xil o'yinlar, sahnali ko'rinishlar,baxs-munozaralar orqali darslar tashkil qilinsa,sinfagi uncha yaxshi o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar ham mavzu haqida tushuncha hosil qilibgina qolmasdan,mustahkamlab oladi. Dars jarayonida o'tilgan mavzuni mustahkamlash chog'ida, avvalombor, o'quvchilarni darsga tayyorlab olishi kerak.Yaxshi dars o'tilishi,o'quvchilarning yaxshi o'zlashtira olishi eng birinchi navbatda o'qituvchi o'quvchilarni o'ziga jalb qilishi, o'tilgan mavzuni dab-durustdan boshlab,ularga o'tilgan mavzu yuzasidan topshiriqlar berishdan emas, aksincha o'quvchilarni o'tilgan mavzu haqida qisqacha tasavvur hosil qilib olishiga bog'liq.

Bu usul ko'proq o'quvchilarni darsga tayyorlab olishi, o'tilgan mavzuni takrorlab,mustahkamlashga zamin hozirlash uchun ishlataladi. Bu usul 5-11 sinflarda amalgalashishga maqsadga muvofiq. Guruuhlar belgilanadi. O'quvchilar guruhlarga 5-7 kishidan bo'linishlari kerak. Guruhlarga bo'lish chog'ida guruhlarning kuchlari teng bo'lishiga ahamiyat berish lozim. Har bir guruhgaga 2-3 ta yaxshi o'zlashtira oladigan o'quvchilarni va unga yaxshi o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarni joylashtirib bo'lish kerak. Har bir guruh o'ziga nom qo'yish kerak.Buning uchun o'qituvchi guruhlarga quyidagicha murojaat qiladi: „Siz guruhgaga nom qo'yayotganda quyidagilarga e'tibor bering?”Siz guruhingizga o'tilgan mavzuning ichidan biror-bir voqeani keltirib chiqaruvchi so'zlar yoki o'tilgan mavzuning asosiy mazmunlaridan birini tashkil etuvchi so'zlar orqali nom qoying;Guruhingiz bilan bu nomni nima uchun qo'yanligingizni aytib berish uchun tayyorlaning (1-minut vaqt beriladi).Har bir guruh nom qo'yib bo'lgandan so'ng,u guruhlardan bu nomni nima uchun qo'yanligi so'ralishi kerak.Yuqoridagilarni o'tkazib bo'lgandan so'ng,o'quvchilar o'tilgan mavzu haqida qisqacha tushuncha hosil qilib,o'quvchilar



mavzuni mustahkamlash uchun zamin hozirlanadi.Keyin o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun shu guruhlarga savollar,topshiriqlar berish mumkin.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, hozirgi zamон har bir fan o'qituvchisi zimmasiga inson,uning jamiyatdagi o'rni va roliga har tamonlama qarash vazifasini yuklaydi.Buning uchun o'qituvchi ta'lim-tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o'zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi a'nanaviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilishi hamda ijodkor bo'lmos' i lozim.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. <https://shuhratbek.uz/tarix-darslarida-qiziqarli-oyinli-usullardan-foydalanish>

2. "PEDAGOGIKA. PSIXOLOGIYA" FANIDAN O'QUV-USLUBIY MAJMUA O.J.Suyunov.  
Samarqand – 2013



## O'RTA OSIYO XALQLARI TURK XOQONLIGI DAVRIDA

*Shodiyeva Marxabo Gulmuratovna  
Toshkent shahri Uchtepa tumani  
78-son umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi  
Tel: +998936137728*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada VI asrda Turk xoqonligining tashkil topishi, ularning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari, xoqonlikning harbiy-siyosiy harakatlari haqida malumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Turk xoqonligi, Bumin, Istami, eftallar, Eron, sosoniylar.

**Xoqonlikning tashkil topishi. VI asr o'rtalarida** Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan turkiy qabilalarni birlashtirgan yangi davlat vujudga keldi. Bu davlat tarixga Turk xoqonligi nomi bilan kirgan. Uning asoschisi **Bumin** edi. **552-yilda Bumin** "xoqon" deb e'lon qilindi. **Oltoy** xoqonlikning markazi qilib belgilanadi. Turkarning g'arbga tomon yurishlariga **Istami** boshchilik qiladi. Unga "**Yabg'u xoqon**" degan unvon beriladi. Tez orada Yettisuv va Sharqiy Turkistonga tutashgan yurtlarda yashovchi turkiy qabilalar bo'yundiriladi. **555-yildayoq** turklar Sirdaryo va Orol dengizi bo'ylarigacha cho'zilgan keng o'lkalarni egallaydilar. Xoqonlik chegarasi Eftallar davlati hududlariga tutashib ketgan.

Natijada Eftallar davlatining shimoliy hududlari xavf ostida qoldi. Bunday qulay vaziyatdan foydalangan sosoniylar Toxariston va Chag'oniyonni eftallardan tortib oladilar.

Turk xoqonligining eftallar bilan to'qnashishi muqarrar edi. Bunday murakkab siyosiy vaziyat xoqonlikni Eron, so'ngra Vizantiya bilan yaqinlashadiradi. Uzoq vaqt eftallar tazyiqida yashagan sosoniylar bu davlatning tamomila barbod bo'lishidan manfaatdor edi. **Xusrav I Anushervon** (531–579) tashabbusi bilan yuzaga kelgan o'zaro harbiy ittifoq Eron shohining **Istamiga** kuyov bo'lishi orqali yanada mustahkamlanadi.

Eron askarlarining **Balxga** hujumi ko'magida turklar **563-yilda** Eftallar davlati yerlariga bostirib kiradilar. **Parak** (Chirchiq) vodiysi va uning markazi **Choch** shahri ishg'ol qilinadi. Sirdaryodan o'tib, Zarafshon vodiysiga kirib boradilar. Ular **Samarqand**, **Kesh** va **Naxshabni** egallab, **Buxoroga** yaqinlashadilar. **Sakkiz kun** davom etgan shiddatli jangda eftallar qo'shini yengiladi. Shunday qilib, janubdan Eron sosoniylaridan, shimoldan esa Turk xoqonligidan **563–567-yillarda** zarbaga uchragan Eftallar davlati tamomila barbod bo'ladi. Natijada mag'lub davlatning merosi o'zaro bo'linib, Amudaryoning janubiy qirg'oqlarigacha bo'lgan viloyatlar Eron, uning o'ng sohillari bo'ylab Kaspiy dengizigacha cho'zilgan yerlar Turk xoqonligi tasarrufiga o'tadi.

Eftallar davlati qulagach, vaziyat tubdan o'zgaradi. Endilikda o'z chegarasini shimoli sharqqa tomon kengaytirib olgan Eron Amudaryodan to Suriyaga qadar Ipak yo'li ustidan o'z nazoratini o'rnatdi. Uzoq Sharqdan Eron hududlarigacha karvon yo'li nazoratini o'z homiyligi ostiga olgan turklar esa Eron orqali Vizantiya bilan bevosita savdo qiladigan bo'lidi.

**Turk xoqonligining boshqaruvi.** Turk xoqonligi qanchalik katta bo'lmasin, chinakam markazlashgan davlat emas edi. Uning asosiy qismi turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalar ittifoqidan iborat bo'lgan. Bu ittifoqni xoqon boshqargan. Hukmdorning hokimiyati urug'-aymoq udumlariga tayangan harbiy-ma'muriy boshqaruvga asoslangan. Mamlakat ko'chmanchi chorvador va o'troq dehqon aholiga bo'lingan. Ko'chmanchi chorvador aholi "**budun**" yoki "**qora budun**" nomlari bilan yuritilgan. Budun o'z navbatida qabilalar ittifoqi birlashmasini tashkil etardi. O'n o'q budun yoki elning hokimi "**yabg'u**" yoki "**jabg'u**" nomi bilan atalardi. Yabg'u darajasiga faqat xoqon urug'iga qon-qarindosh bo'lganlargina ko'tarilardi. O'n o'q el sardori bir tuman (ya'ni o'n ming) suvoriyni safga tortar edi. Bunday harbiy bo'linmaning tumanboschisi "**shod**" deb yuritilgan.

**VI asrda** Chirchiq, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo havzalarida *o'ndan ortiq voha hokimliklari* mavjud edi. Ularning iqtisodiy va siyosiy boshqaruvi mahalliy sulola hukmdorlari qo'lida qoldirilib, turklar ulardan faqat boj va yasoq undirib olish bilan cheklanadilar.

**Xoqonlikning bo'linishi.** Katta-katta qabilalar yoki qabilalar ittifoqi markaziy hokimiyatga bo'yunsunmaslikka intilganlar. Turk xoqonligi tasarrufida bo'lgan hududlardagi hokimlar mustaqil bo'lishni istar edilar. Bu omillar xoqonlikning mustahkam markazlashgan davlatga aylanishiga imkon bermagan.

Bo'yundirilgan hududlarni mahalliy hokimlar orqali boshqaruv tartibi xoqonlikni tobora zaiflashtira borgan. Buning ustiga, Vizantiya, Xitoy va Eron bilan doimiy raqobat xoqonlik ahvolini



yanada og'irlashtirgan. Oqibatda, Turk xoqonligi **VI asrning 80-yillari oxirlarida** ikkiga: **Sharqiy turk xoqonligi** va **G'arbiy turk xoqonligiga** bo'linib ketadi. Buyuk turk xoqonligi barpo etilgan el-yurt Oloy tog'lari sharqidan to Uzoq Sharqqacha bo'lgan hudud, ya'ni *Janubiy Sibir, Urxun havzasi* (Mo'g'uliston), *Shimoliy Xitoy Sharqiy turk xoqonligi* tasarrufida bo'lgan. Mazkur xoqonlikning poytaxti **O'tukan vodiysi** (Mo'g'uliston)da qaror topgan. Oloy tog'larining g'arbida joylashgan o'lkalar: *Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Sirdaryo* va *Amudaryo havzalari* hamda ularga tutashgan hudud **G'arbiy turk xoqonligi** tomonidan idora etilgan, qarorgohi *Yettisuvda* joylashgan.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Muhammadjonov O'zbekiston tarixi, darslik.
2. Alimova D.A, Ilxamov Z.A. Tarix fani metodologiyasi.
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



## МИЛЛИЙ ҒОЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ЎҚУВЧИ ЁШЛАРГА МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАТИШ.

**Жўраев Хуршид Алишерович**  
**Термиз шаҳар 1-сонли мактаб ўқитувчиси**  
**Телефон: +998(93)-671-98-98**  
**Xurshid\_9898@bk.ru**

**Аннотация:** Мазкур мақолада “Миллий истиқлол ғояси” фанининг ўқитилиши давомида ёшлар онгидаги ижобий фикрлар ва маълумотлар уларнинг фаровон ва тинч ҳаёт кечириши, бунинг натижасида эса мустақиллигимиз хавсизлигининг таъминланишига хизмат қилиши ҳақида маълумотлар берилган.

**Калит сўзлар.** Мафкура, онг, гоя, жамият мафкураси, тарихий мерос, шахсий ибрат.

Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти Ислом Каримов миллий ғоя мафкурунинг халқни-халқ, миллатни-миллат этиш борасидаги аҳамиятини таъкидлаб, шундай ёзган эдилар:” Одамларнинг минг йиллар давомида шаклланган дунёқараши ва менталитетига асосланган, айни вақтда шу халқ, шу миллатнинг келажагини кўзлаган ва унинг дунёдаги ўрнини аниқ равshan белгилаб беришга хизмат қиласиган, кечаги ва эртанги куни ўртасида ўзига хос кўприк бўлишга қодир ғояни мен жамият мафкураси деб биламан”. Эркин демократик жамият барпо этишни бош мақсад қилиб олган ва тараққиёти ижтимоий ҳамкорликка ассоланган давлатлардаги халқларнинг миллий ғояси ва мафкураси одаларни ана шу эзгу мақсад йўлида бирлаштиради. Ўзбекистон халқининг миллий ғояси ва мафкураси ҳам жамиятимизни янада жипслаштиришга, Ватан равнақи, юрт тинчлиги, халқ фаровонлигини ўйлаб, соғлом эътиқод ва дунёқараш билан яшашга даъват этади. Мафкура ҳар қандай жамият хаётида зарур. Мафкура бўлмаси одам, жамият, давлат ўз йўлини йўқотиши мұқаррар. Қаерда мафкуравий бўшлиқ вужудга келса, ўша ерда бегона мафкура хукмронлик қилиши ҳам тайин.

“Миллий истиқлол ғояси” фанининг жорий этилиши ва уни ўрганишнинг вазифаси хусусида гап борадиган бўлса, бу албатта давр талаби, истиқлолимиз туфайли қўлга киритилган иқтисодий, сиёсий, ижтимоий соҳалардаги ғалабаларимиз моҳиятини ўқувчи ёшлар онгига тизимли равишда сингдириб бориш билан уларнинг шахсий эътиқод-ғояларига ўсиб ўтиши ва кундалик амалий фаолиятларида ҳаракат дастури даражасига кўтарилишини тақозо этади. Яъни “Миллий истиқлол ғояси” фанининг ўқитилиши давомида ёшлар онгидаги ижобий фикрлар ва маълумотлар уларнинг фаровон ва тинч ҳаёт кечириши, бунинг натижасида эса мустақиллигимиз хавсизлигининг таъминланишига хизмат қиласиган.

“Миллий истиқлол ғояси” фанини ўқитишда асосий эътиборни ўқувчиларга ўзини, ўзлигини англатиб боришга қаратиш керак. Ўзлигини англатишни эса ўзбек халқининг тарихини ўргатишдан бошланади. Ўзбек халқининг бой тарихий меросга, тенгсиз улуғвор ва тақорланмас қадриятарга, урф-одатларга эга эканлиги, азал-азалдан ўзининг давлат бошқарувига эга бўлганлигига ҳеч қандай исбот шарт эмас. Тарихни яхши билган, танқидий ва мантиқий фикрлаш эга бўлган педагог фанни ўқитишда ўқувчиларга ўзининг таҳлилий фикрларига асосоланиб маълумотлар бериб боради. Ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасидаги баҳс, мунозара, таҳлил асосида олиб борилган дарс ўқувчиларга тўғри йўл кўрсата олади. Миллий истиқлол ғояси фанида ўқувчилар қалби ва онгига педагогик технологияда маълумотлар кетма-кетлиги, миқёси ва меъёри, давомийлиги тамойиллари жуда муҳимdir. Айниқса, мактаб ўқитувчисининг шахсий ибрати- дарсда ўқувчиларга миллат манфаатлари, орзу-умидлари, интилишлари тўғрисидаги фикрларига шу ўқитувчининг ҳатти-ҳаракатлари айтган гапларида мужасам бўлса, бу ўқувчилар учун самарали таъсир воситасига айланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Каримив И.А. “миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар” рисоласига сўз боши. Т.9.-Т.: “Ўзбекистон”, 2001.

2. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар, -Т.: “Янги аср авлоди”, 2001.



## ТАРИХ ДАРСЛАРИДА ТАРИХИЙ МАНБАЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Жўраева Нафиса Абдумўминовна  
Тошкент шаҳри Учтепа тумани  
81-сон мактаб тарих фани ўқитувчиси  
Тел: +998903469772

**Аннотация:** Ушбу мақола умумий ўрта таълим мактабларидағи тарих дасрларининг ташкил қилинишида тарихий, илмий адабиётларнинг ўрни ва дарс самарадорлигидаги аҳамиятига қаратилган тавсиялар тақдим қилинган.

**Калит сўзлар:** тарих дарси, ўқувчилар эсда сақлаб қолиш хотираси, мантиқий фикрлаш, тарихий, илмий адабиётлар, манбалар.

Буюк алломаларимиздан бири Алишер Навоий тарих фанини билиш-нинг аҳамияти катта эканлигини таъкидлаб, инсонларни тарихни ўрганишга даъват қилган. Унинг фикрича, тарих фани шоҳлар, ҳукмдорларнинг таржимаи ҳолини эмас, балки мамлакат тарихини ўрганиши керак.

Юқоридаги фикрлар тарих фанининг салмоғи қанча муҳимлигини таъкидлаши билан бирга бу фанга ўқувчининг билим олиши, тарбиясининг шаклланишида ҳам муҳим эканлигини ҳис қилиш лозим. Чунки, тарих фанининг асоси тарихий манбалар, илмий ва тарихий адабиётларни ўрганиш билан очиб берлади. Бундай вазиятда халқимизнинг билимли бўлишида тарих фанининг роли катта.

«Авесто» илк қўлёзма сифатида аҳамиятли, шу мавзуни ёритишида ўқувчига қўйидаги маълумотни келтириб ўтиш лозим.

«... Зардуштийлик пайдо бўлган дастлабки пайтларданоқ, ибодатхонлар қошида мактаблар ташкил этилиб, уларда таълим-тарбия тизими қоҳинлар томонидан қўйидагича амлага оширлган:

Жисмоний тарбия  
Ўқиш ва ёзишга ўргатиш  
Диний ва аҳлоқий тарбия

Ўғил болаларга 7 ёшга тўлганда оқ ипакдан тикилган “муқаддас кўйлак” кийдириш маросими жамоа оқсоқоли, қоҳинлар, ота-оналар иштирокида ўтказиш расм бўлган...». Ушбу тушунчаларни маълумот сифатида келтириш билан дастлаб мактаблар Юноностон ва Римдаги каби юртимизда мавжуд бўлганлигини таъкидласак, ўқувчи қалбига кириб бориш мумкин.

Дарсликларда ҳарбий қуроллар жанг услуби қизиқарли талқин қилинган. Шу билан бирга шундай мавзуларни ёритиши жараённида қўшимча манбалар дарс мазмунини янада оширади. Масалан, ”... ўтрок аҳоли душманга карши олиб борган мудофаа ва хужум ҳаркатлари вақтида “жим-жимадор” белгилардан ҳам фойдаланганлар. Шу билан бирга ҳарбий ва мудофаа ишларида от ва итлардан кенг фойдаланганлар”. Бундай мазмундаги маълумотлар ўқувчи ёдида бир умрга муҳланади.

Дарсликларда иккита Маъмун академияси ва уларда ижод қилган алломалар тўғрисида етарлича маълумот келтирилган. Шундай бўлса ҳам дарслик билан чекланмасдан қўшимча адабиётлар билан дарсни ташкил қилиш мақсадга муофикдир. Абу Али ибн Синонинг Хоразмга келганлиги ва Ал Беруний билан учрашганлиги тўғрисида маълумот келтириш мумкин. “...Абу Али ибн Сино 12 ёшида олимлар билан мунозара қилиб, барчаси устидан ғолиб келди, Хоразмда 7 йил давомида Хоразмшоҳ хизматида бўлди. .... Абу Райхон Беруний билан учрашди. Гурганжда бўлганда илмий анжуманлар янада мароқли ўтадиган бўлди...” деб келтирилганлигини таъкидлаш мақсадга муофикдир.

Давлатчилигимиз тарихида мўғиллар босқинининг салбий оқибатлари кўп бора таъкидланади, ҳатто дарслиқда ҳам аниқ тасвирланган. Унда Хоразмшоҳ Муҳаммаднинг хатоси ўқувчидаги бахсли ҳолатни вужудга келтиради. Айнан шу вазиятда хатога олиб келган бир воқеани қўшимча адабиёт билан келтириш ўринлидир. «...Жалоладдиннинг илтимосларини рад қилиб, ... тақдирда бўлган фалокатдан қочиб қутилиб бўлмайди, юлдузларнинг қулай жойлашиш пайтини кутиш лозим, дерди. Ким уни бундай хато йўлга бошлади. Унинг асрида осмон ёритқичларга қараб қилинган башоратларга ишонилган бўлса ҳам, шак-



шубҳасиз, башорат қилганларнинг ўзлари ҳам бу нарсага ишонмас эдилар...». Бу каби маълумотлар ўқувчилар билимининг ошишига ва мантиқий фикрлашга чорлайди ҳамда эсда сақлаб қолиш қобилиятини чархлади.

Биламизки, 1645-йил Бухорога қозоқлар хужум қиласди. Буларга қарши Нодир Муҳаммад ўғли Абдулазизни юборади. Хондан норози бўлган гуруҳлар Абдулазизни хон қилиб кўтарадилар. Нодир Муҳаммад Эронга қочгач, жангни ўғли Абдулазиз давом қилдиради. Тарихий манбаларда шундай дейилган «... июнь ойида Абдулазизхон қўмондонлигидаги ўзбек лашкарлари билан шахзода Аврангзеб лашкарлари тўқнашдилар ва ўзбеклар енгилдилар. У жангларнинг бирида, жанг энг қизиган пайтида пешин вакти бўлгач ҳамманинг кўз олдида намозга туриб фарз, суннат ва нафл намозларини ўқиган ва буни эшитган Абдулазизхон “Бундайлар билан жанг қилиш йўқ бўлиш демакдир” деб хитоб қилган...». Тарих гувоҳки, Абдулазизхон Балхни икки йилдан кейингина қайтариб олган.

Айнан шундай, малумотлар асосида дарсни бойитиш билан ўқувчи қалбига кириш, тарихий хотирасини кенгайтиришга эришиш мумкин.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР.

1. “Авесто” ва унинг инсоният тараққиётидаги ўрни. «Хоразм» нашриёти. X. Бобаев, Т. Дўстжонов, С Ҳасанов, Я. Олламов. 2001 йил.
2. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари. «Фан» нашриёти. Куронбай Собиров. 2009 йил.
3. Абу Али Ибн Сино «Усул илм ал ҳандаса» асарининг математик манба сифатида фан тарихидаги ўрни. «Хоразм» нашриёти. Гулором Машарипова. 2000 йил.
4. Икки Буюк Саркарда – Чингизхон ва Амир Темур. «Фан» нашриёти. М. Иванин. 1994 йил.
5. Буюк Бобурийлар салтанати. «Мерос» нашриёти. Р. Шамсиддинов, Ф. Абдуллаев, М. Абдуллаев. 1995 йил.



АМИР ТЕМУРНИНГ ДАВЛАТЧИЛИК БОШҚАРУВИДА ДАВЛАТЛАРАРО  
МУНОСАБАТЛАР ВА ДИПЛОМАТИК АЛОҚАЛАРИ

*Каракулов Шарофиддин Ахмадович*  
*Қаршии шахар 24-умумий ўрта таълим мактаб ўқитувчиси*  
*Телефон: +998907220077*  
*ahmedovolim06@gmail.com*

**Аннотация:** Ушбу мақолада Амир Темур даврида миллий этник давлатлараро муносабатларда дипломатик ва элчилик алоқаларининг йўлга қўйилганлиги, дипломатик муносабатлари ва элчилик алоқаларидан ҳам миллий этник жараёнлар давлатлараро алоқаларни мустаҳкамлашга қаратилганлиги баён қилинган.

**Калит сўзлар:** Соҳибқирон, давлатлараро, миллий, этник, дипломатия, элчилик, мамлакат.

Маълумки, мамлакатнинг ички ва ташқи сиёсатидаги ютуқлар ва муаммолар икки ва ундан ортиқ давлатларнинг мавжудлиги даври ва кучлар нисбатига, уларнинг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ривожланиш тамойиллари ҳамда дунё ҳамжамиятида тутган ўрнига боғлиқ бўлиб, бу жараёндан Амир Темур давлати ҳам мустасно эмас. Буюк бобомиз Амир Темур даврида салтанатни янада мустаҳкамлаш, айниқса миллий этник ва давлатлараро муносабатларда дипломатик ҳамда элчилик алоқаларидан фойдаланишга катта эътибор берган эди. Атокли давлат арбоби биринчи Президентимиз Ислом Каримов 1996 йил 18-октябрда Шахрисабз шаҳрида Амир Темур ҳайкаланинг очилиш маросимида сўзлаган нутқида: “Ҳали телефон, телеграф, коммуникация воситалари бўлмаган бир шароитда Амир Темур Шарқни Ғарб билан тинчлик, тижорат, элчилик йўли воситасида бирлаштиришга ҳаракат қилган. Бизнинг бугунги сиёсатимиз Амир Темурнинг бу борадаги олижаноб ишларининг давомидир”. деб алоҳида қайд қилган эди. Шу боисдан ҳам ўтмишда ва ҳозирги кунда ушбу муаммо қўплаб олимлар ва тадқиқотчиларнинг диққат-эътиборини жалб этиб келмокда. Бу борада хорижда ва мамлакатимизда бир қатор ишлар эълон қилиниб, улар жумласига М.М.Қазвений, Абдул Ҳусайн Навоий, Исмоил Ака, Ибн Арабшоҳ, Низомиддин Шомий, Шарафиддин Али Яздий, Ҳофизу Абрӯ, Рюи Гонсалес де Клавихо, Люсъен Кэрэн, И.И.Умнаков, А.А.Ҳасанов, А.Ўринбоев, О.Бўриев, Х.Исматуллаевларнинг асарлари диққатга сазовордир. Тадқиқотчилар Т.Тошпўлатов ва Я.Ғаффоровлар таъкидлаганидек: “Испания – Кастилия қироли Генрих III нинг вакили Рюи Гонзалес Клавихонинг Ўрта Осиё, Самарқанд ва Европа мамлакатлари орасидаги савдо ва дипломатик муносабатлар тўғрисидаги эсадаликлари, Самарқанд Давлат университетининг профессори, таникли шарқшунос олим И.И.Умняковнинг илмий тадқиқотларида Амир Темурнинг Англия, Франция, Испания ва Италия каби давлатлари билан дипломатик муносабатлар ўрнатиш ва савдо алоқаларини ривожлантириш муносабати билан Соҳибқиронга ёзган хатлари диққатга сазовордир”. Бунга яна қўйидаги тадқиқотчиларнинг изланишлари далил бўла олади.

Ушбу адабиётларда билдирилган фикрлар ва келтирилган далиллар муаммонинг барча жиҳатлари қамраб олинган деб бўлмайди. Боз устига айрим тадқиқотчилар хусусан тарих фанлари доктори, профессор А.Чориевнинг қайд этишича: “...Кўп асрлик давлатчилик тарихига эга бўлган ўзбек халқининг ўтган даврдаги халқаро алоқалар, чунончи ташқи сиёсий муносабатлари ва дипломатияси масалалари деярли тадқиқ этилмаган.

Айниқса, дунё миқёсида танилган сиёсатчи Амир Темур ва Темурийлар даври дипломатиясини ўрганиш энг долзарб вазифалардан бири бўлиб турибди”.

Шундан келиб чиқиб, соҳибқирон Амир Темур ўз салтанатини миллий этник жараёнлар ва давлатлараро муносабатларда дипломатик ва элчилик алоқаларидан кенг фойдаланганлигидан далолат беради. Энг муҳими, бу муносабатларни ўрганиш ҳозирги даврида ҳам алоҳида аҳамият касб этмоқда.



Фойдаланилган адабётлар рўйхати:

- 1.Ислом Каримов. Соҳибқирон камолга етган юрт//Манба. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб, Мустақил Ўзбекистон тарихи, “Шарқ” нашриёти, Тошкент-2000, Б-446.
- 2.Қаранг. Маннонов Б.С. Амир Темур дипломатияси//”Шарқшунослик” №7 1996 йил, Б-10-11. Б-34-37.
- 3.Тошпўлатов Т., Ғаффоров Я. Тарих ўқитиш методикаси. (Дарслик) Тошкент “Tigron-iqbol” 2010, Б-218.
- 4.Маннонов Б.С. Амир Темур дипломатияси//Манба: “Шарқшунослик” №7, 1996, Б-10-37.
- 5.Амир Темур дипломатияси//Манба Бобобеков X., Каримов Ш. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. Қисқача маълумотнома “Шарқ” нашриёти, Тошкент-2000, Б-98-100.
- 6.Ибраҳимов Абдуқаҳҳор. Ўзбек дипломатияси ёки рамзий ишоралар//Манба: Ўша муаллиф: Биз ким ўзбеклар... “Шарқ” нашриёти, Тошкент-1999, Б-78-82.
- 7.Носир Муҳаммад. Амир Темур даври дипломатлари//Манба Ўша муаллиф. “Насаф ва Кеш алломалари” (IX-XX асрлар) Тазкира. Фоурғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент-2006, Б-100-104.
- 8.Равшанов Поён. Кешлик Амир Темур элчилари//Манба Ўша муаллиф Шахрисабз тарихи (Энг қадимги даврлардан XX асрнинг биринчи чорагигача) Тошкент “Янги аср авлоди” 2011, Б-347-357.



## ПРОБЛЕМЫ ВНУТРЕННЕЙ И ВНЕШНЕЙ МИГРАЦИИ: НА ПРИМЕРЕ МИГРАНТОВ ИЗ УЗБЕКИСТАНА В БАЛТИЙСКОМ РЕГИОНЕ

Зарипов Жахонгир Гулмуродович  
*Jahongirwomenizet@gmail.com*  
+998905127222

*БухДУ "Жахон тарихи" кафедраси таянч доктаранти*

**Аннотация:** В этой статье написаны проблемы мигрантов в государствах Прибалтики и проблемы связанные с трудовыми миграциями. Рассказывается исследования британского исследователя С.Каслза и А. Портеса в создания теорий среднего уровня для анализа современных видов миграции.

**Ключевые слова:** ООН, Миграция, трансмиграция, вынужденная миграция, трудовая миграция, узбеки, СССР.

Сегодня неоспоримым является тот факт, что в XXI в. проблема миграции выйдет на одно из первых мест как во внешней, так и во внутренней политике многих стран мира. Налицо беспрецедентное увеличение масштабов миграции, причем не только международной, но и внутренней.

По официальной оценке ООН, в настоящее время насчитывается около 200 млн внешних мигрантов, что составляет 3 % от общей численности населения планеты, а внутренних — около 1 млрд человек (почти каждый шестой житель планеты)<sup>1</sup>. Но эта информация является не совершенным поскольку информации которые связывают теми или иными источниками всегда изменчивы но 2019 году мир открыто показал то что в XXI век это век обмена культур и информации, так что мы являемся субъектами которые всё это распространяют. В процессе миграции существуют много наименований такие как: трансмиграция, вынужденная миграция, внутренняя миграция (переселения) и самое основная которая сталкивает развитые государства с разными проблемами: это рабочая миграция (проблемы с законом и порядками). В научной литературе данный подход вызвал критическое отношение. Например, британский исследователь С. Каслз и американский ученый А. Портес обосновывают целесообразность создания теорий среднего уровня для анализа современных видов миграции, таких как вынужденная миграция или экономическая миграция, где эмпирические исследования были бы включены в более широкие рамки теоретического объяснения структурных детерминант миграции нежели разработки объединительной модели.<sup>2</sup>

Так как мы начали эту статью проблемами перейдем на самую основную проблему это трансмиграция узбеков которые в данный момент не имеют никакого гражданства не на одной из государств. Узбеки которые начали свою глобальную миграцию начиная 1920 года являются по оценкам С. Карлз и А. Портеса самыми редкими мигрантами, по причине их наследники в данный момент которые проживают (к примеру мигранты государств Прибалтики) и поддерживают их культуру (похороны, традиционные праздники и день независимости Узбекистана), узбекскому языку. Они также поддерживают отношения с родственниками с Узбекистана. При таких обстоятельствах они имеют прямое отношения на экономическую и политическому развитию этих стран.

Одна из этих мигрантов является Раиса Дадарчук которая является гражданином СССР и с 1984 года проживает в Эстонии в столице Талин, но не имеет ни Узбекского и не Эстонского гражданства. Для таких мигрантов ещё не придумали даже названия и мы вынуждены их звать трансмигрантами которые имеют характеры трудовых мигрантов. По этой системе А.Портес выявляет свои теории тем что не все мигранты являются трансмигрантами. Транснациональная активность проявлялась на протяжении всей истории миграции, но размеры, регулярность и разнообразие межграницной активность в настоящее время имеют беспрецедентные масштабы. Транснационализм определяется как повторяющееся

<sup>1</sup> International migration 2006. New York, United Nations, 2006.

<sup>2</sup> Castles S. Towards a Sociology of Forced Migration and Social Transformation // Sociology. 2003. Vol. 37 (1) с 13-34



или привычное движение индивидов через международные границы в качестве части их устоявшейся экономически выгодной деятельности, политической или культурной жизни. А. Портес выделяет в числе мигрантов всего 5—8 % трансмигрантов<sup>1</sup>.

Экономически развитые страны характеризуются устойчивым положительным сальдо миграции. Страны с переходной экономикой (Литва, Латвия, Эстония, Россия) занимают промежуточное место в миграционных передвижениях и играют в них двойную роль, будучи одновременно и донорами, и реципиентами населения. На многорегиональном уровне более распространен миграционный прирост населения. Отток происходит в небольшом количестве регионов и чаще характерен для постсоциалистических стран<sup>2</sup>.

Так как в современном мире все жители этого мира нуждаются в поддержке своих государств миграции происходят по разным причинам но нам не определить почему это происходит глобально по всему миру но мы знаем одно если создать конкретную систему миграции мы тогда точно можем вычислить их экономическую и социальную роль в жизни других государств.

#### Список Литератур

1. International migration 2006. New York, United Nations, 2006.
2. Castles S. Towards a Sociology of Forced Migration and Social Transformation // Sociology. 2003. Vol. 37 (1) с 13-14
3. Portes A. Theoretical Convergencies and Empirical Evidence in the Study of Transnationalism // International Migration Review. 2003. Vol. 37 (3).
4. Т.Ю.Кузнецова "Особенности миграционного движения населения в странах Балтийского макрорегиона" Миграция и социально-экономическое развитие стран региона прибалтики/материалы международной конференции 5-7 июня 2008 ст.285

1 Portes A. Theoretical Convergencies and Empirical Evidence in the Study of Transnationalism // International Migration Review. 2003. Vol. 37 (3).

2 Т.Ю.Кузнецова "Особенности миграционного движения населения в странах Балтийского макрорегиона" Миграция и социально-экономическое развитие стран региона прибалтики/материалы международной конференции 5-7 июня 2008 ст.285



## КО'ННА MINORA PESHTOQIDAGI BITIKLAR

*Jabborova Iroda Ashurovna  
Andijon viloyati Qo'rg'ontepcha tumani  
XTBga qarashli 5-maktabning tarix fani o'qituvchisi  
Telefon : +998994341903*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xalqimizning tarixidan so'zlaydigan Sulton Saodat majmuasi, Shayx Aloutdin Attor, Iso Termizi, Hakim Termizi, So'fi Olloyor maqbaralari bugun yurtdoshlarimizning muborak ziyoratgohiga aylangan. Mustaqillik yillarida, amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot, qazishma ishlari jarayonida, ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan ulug' mutafakkirlarimizning hayoti va faoliyatini chuqur tadqiq etish, milliy o'zlikni anglash, ma'naviyatimizni yuksaltirish, yosh avlodni Vatanga muhabbat, tariximizga hurmat-ehtirom ruhida voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etish haqida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, obida, tarix, davlat, minora, xalq, qadimiyy.

O'zbekiston – quyoshli, buyuk tarixiy insonlar yashagan, Buyuk Ipak Yo'li o'tgan ajoyib, betakror, ming asrlik an'analar va madaniyatiga ega o'lka.

Betakror, so'lim go'shalarga ega O'zbekistonimiz, ko'ngli ochiq xalqimiz, o'tib ketgan bobo-kalonlarimiz, hozirda mustaqillikka erishgandan keyingi yutuqlarimiz haqida qancha gapirsak ham ozdir.

Muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoevning 2019 yil 1 may kuni Surxondaryo viloyatiga qilgan tashrifi chog'ida Payg'ambarimizning beshinchi avlodi bo'lmish Sulton Saodat majmuasini rekonstruktsiya qilish va muqaddas qadamjoga aylantirish bo'yicha mutasaddi rahbarlarga tegishli topshiriqlar berdi. Hozirgi kunda Sulton Saodat majmuasi, Shayx Aloutdin Attor, Iso Termizi, Hakim Termizi, So'fi Olloyor maqbaralari bugun yurtdoshlarimizning muborak ziyoratgohiga aylangan. Yaponiya, Frantsiya, Germaniya kabi rivojlangan davlatlarning mashhur arxeologlari miloddan avvalgi V asrda shakllangan shaharning yangi qirralarini kashf etishda tarixchi va arxeologlar bilan mustahkam hamkorlik o'rnatgan. Bu borada olib borilayotgan izlanishlar o'z samarasini berayapti. Eramizdan avvalgi VI asrda Termizga kelgan Ahamoniylar sulolasini bu shaharni "Qadimgi shahar" deb atagan.

O'zbekiston - buyuk allomalar yurti. Vatanimizda tug'ilib, kamol topgan mutafakkirlarning jahon ilm-fani rivojiga qo'shgan xissasi necha asrlarki e'tirof etilib, chuqur tadqiq etilmoqda. Ulug' alloma Hakim at-Termizi tasavvufning "Hakimiya" maktabi asoschisi sanaladi. Alloma Hakim at-Termizi qo'lyozmalar hozirda Parij, Qohira, Damashq, London, Iskandariya va Istanbul kutubxonalarida saqlanmoqda.

Xalqimizning tarixidan so'zlaydigan yana bir noyob maskan – Fayoztepa yodgorligining topilishi oddiy tasodif bilan bog'liq. 1968 yilning bahorida cho'pon Asad Beknaev shu yerdan o'tib ketayotib, oq rangli haykaltaroshlik namunasiga ko'zi tushadi va uni Termiz o'lkashunoslik muzeysiiga topshiradi va bu tarixiy obida to'liq qazib olinadi, ilmiy o'rganiladi. Fayoztepadan topilgan yozuvlar, tangalar, haykallar buddaviylik dini tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat kilmoxda. Xususan, yaqinda vohaning Zarabog' qishlog'idan topilgan Zarautsoy yozuvlari – Zarautsoy dasasidagi toshlarga ishlangan rasmlar ibtidoiy san'atning nodir namunasi sanaladi. Zarautsoydan topilgan 200 dan ortiq rasmlar mezolit, neolit va keyingi davrlarga mansub bo'lib, ular chizma tarzda kontur va soya uslubida qizil angob (oxra) bilan chizilgan. Zarautsoyda odamlarning itlar yordamida yovvoyi buqalarni ovlash manzarasi tasvirlangan. Hayvonlar (yovvoyi buqa, it, tulki, burama shoxli echki, jayron, tog' echkisi), turli buyumlar (o'q-yoy, nayza, o'roqsimon qurollar), niqoblangan odamlar o'ziga xos tarzda hayotiy qilib ishlangan. Teshiktosh-O'zbekistondagi arxeologik qo'riqxona: u Boysun tog' tizmasidagi g'orda joylashgan. For Machaydag'i Zovtolosh soy dasasida dengiz sathidan 1500-1600 metr balandlikda bo'lib, buyi 7, eni 20, uzunligi esa 21 metrni tashkil etadi. Forning shifti teshik bo'lgani uchun gulxan yoqilsa, tepadagi tuynukdan chiqib ketavergan. Forda 1,5 metr qalinlikda 5 madaniy qatlam bo'lib, har qatlamdan bittadan, ba'zilarida ikkitadan diametri 40 santimetr, sathi 2 metrغا yetadigan gulxan qoldiqlari topilgan. Ayniqsa, Teshiktosh g'oridan topilgan qadimgi odam qoldiqlari xalqimizning qadim ildizlarga ega ekanini ifodalaydi. Bu yerga har yili ko'plab sayyoohlар tashrif buyuradi. Surxon voxasidagi qadimiy minoralardan biri bu-Jarqo'rg'on minorasidir. Jarqo'rg'ondag'i Minor



qishlog’ida joylashgan bu minora peshtoqida saqlanib qolgan yozuvlar inshootning 1108-1109 yillarda qurilganidan dalolat beradi. Tarixchi va san’atshunos-me’morlarning ta’kidlashicha, uning umumiy balandligi 50 metrga yaqin bo’lib, hozir minoraning omon qolgan qismi 21,6 metrni tashkil etadi. Jarqo’rg’on minorasi qurilishida oddiy g’isht, ravoqlar va epigrafik hoshiyalar juda ustalik bilan qo’llanilgan, minoraning asosi 8 qirrali baland kursiga o’rnatilgan. Har bir qirraning markazida ravoqli taxmonchalar ishlangan, ana shunday taxmonchalardan birida joylashgan eshik orqali minora ichki qismidagi aylanma zinaga chiqilgan. Barcha minora kabi Jarqo’rg’on minorasi ham gumbazsimon muazzinxona bilan yakunlangan. Jarqo’rg’on minorasi me’moriy-badiiy yechimiga ko’ra, Shimoliy Hindiston va Xuroson minoralariga yaqin turadi.

Mustaqillik yillarida, amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqt, qazishma ishlari jarayonida xususan Teshiktosh, Machay, Zarautsov, Sopollitepa, Dalvarzintepa, Qoratepa, Fayoztepa, Tillabuloq, Jondavlattepa, Eski Termiz kabi yodgorliklarning hali fanga noma’lum qirralari o’rganilib, xususan Surxon vohasi tarixini, yurtimiz ilm-fani rivojini jahonga namoyon etmoqda. Bu yo’nalishdagi ezgu sa’y-harakatlar tariximizni mukammal o’rganish, jahon ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo’shgan ulug’ mutafakkirlarimizning hayoti va faoliyatini chuqur tadqiq etish, milliy o’zlikni anglash, ma’naviyatimizni yuksaltirish, yosh avlodni Vatanga muhabbat, tariximizga hurmat-ehtirom ruhida voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalaniłgan adabiyotlar :

1. Narzulla Jo’raev. O’zbekiston tarixi Sharq. 2004-yil.
2. Karimov I.A Tarixiy hotirasiz kelajak yo’q. T., “O’zbekiston”, 1998-yil.



## MARKAZIY OSIYONING OLTIN DAVRI

*Tuxtayev Javohir Ulug'muratovich  
Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar  
Koson tumani 25-umumi o'rta ta'lim  
məktəb tarix fani o'qituvchisi  
Telefon: +998996694409*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyoning jahon madaniyatining markazi bo'lganining ilmiy dalillari keltirilgan. Markaziy Osiyo hududida yashagan buyuk allomalarning dunyo insoniyat sivilizatsiyasidagi tutgan o'rnı xususida fikrlar yozilgan. Markaziy Osiyoning oltin davri tugashining bir nechta sabablari sanab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** sivilizatsiya, Frederik Starr, intellektual, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Umar Xayyom, Zardushtiylik, yunon politeizmi, induizm, buddizm, iudaizm, xristianlik va islom dini

Miloddan avvalgi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasi Yevropa, Yaqin Sharq va Osiyoning, shu jumladan, Xitoy va Hindistonning asosiy sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shgan jahon madaniyatining markazi bo'lgan deyish mubolag'a emas. Markaziy Osiyo-Kavkaz instituti raisi va tadqiqot professori, Jon Xopkins universiteti, Ilg'or xalqaro tadqiqotlar məktəbi va Kennan institutining asoschisi. 2007 yil 4 dekabr kuni Kennan institutida ma'ruza qilgan Frederik Starr, "Markaziy Osiyoda madaniy va intellektual gullash haqida so'zlab berdi, ular ko'plab sohalarni qamrab olgan va mintaqani "bu dunyoning markazi" ga aylantirgan" degan fikrni ilgari surgan. Mintaqqa Afg'oniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonni, shuningdek, sharqi Eron, G'arbiy Xitoy, Pokiston va Hindiston shimolini qamrab olgan edi. Muhokama qilinayotgan davrda bu yerlar yirik savdo yo'llari bilan kesishgan va san'at va fanning turli sohalarida madaniy va intellektual yutuqlarga erishgan yirik imperiyalarning o'chog'i bo'lgan. Mintaqada matematika, astronomiya, adabiyot, tilshunoslik, siyosatshunoslik, din va arxitektura rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan ko'plab tarixiy shaxslar paydo bo'ldi.

Masalan, O'zbekiston hududida tug'ilgan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy algebra asoschisi sifatida tanilgan va algoritmning nomi hisoblanadi. Umar Xayyom, yetakchi shoir, matematikaga kub tenglamalarining barcha shakllarini aniqlash va hal qilish orqali ham hissa qo'shgan. O'rta Osiyo olimlari astronomiya va kartografiyada katta yutuqlarga erishdilar. Buyuk fors tilidagi shoirlarning aksariyati bugungi Eron emas, balki O'rta Osiyodan bo'lганlar.

Abu Nasr al-Farobi "eng ilg'or musulmon faylasufi va faylasuflar orasidagi Aristoteldan keyin ikkinchi o'rinda" edi. Ularning ko'pi bir nechta sohalarda faol bo'lishgan. "Menimcha, bular, haqiqatan ham, g'ayrioddiy sermahsul, g'ayrioddiy serhosil, ko'plab fanlardagi ijodiy daholar bo'lib, ularning barchasi bir necha yuz yil tarixga egadir. Bir-biridan bir necha yuz yil davomida Frantsiyadan taxminan yarim asr kattaroq bo'lgan davrda paydo bo'lgan edi. Ushbu madaniy va intellektual fermentning to'rtta sababini aytish mumkin. Birinchidan, mintaqqa boylikka qo'shimcha ravishda g'oyalar va bilimlarni tarqatadigan yirik savdo yo'llarida joylashgan edi. Ikkinchidan, mintaqada ulkan shaharlar, shu jumladan Afg'oniston shimolidagi Balx bor edi. Uchinchidan, mintaqada ulkan boylik to'planishini rag'batlantiradigan buyuk imperiyalar mavjud edi, bu esa homiylik gullab-yashnashi uchun ideal sharoitlarni yaratdi. To'rtinchi omil - mintaqadagi dinlarning o'zaro uyg'unligi. Zardushtiylik, yunon politeizmi, induizm, buddizm, iudaizm, xristianlik va islom dinining paydo bo'lishi mintaqada sezilarli iz qoldirgan. Nima uchun Markaziy Osiyoning oltin davri tugaganligi haqida turli xil qarashlar mavjud, 14-asrda Temuriylar davrining oxiriga kelib O'rta Osiyoda uyg'onish davrini qo'llab-quvvatlovchi ko'plab omillar kamayib ketdi. Buyuk imperiyalar, shu jumladan, Temuriylar sulolasi ham uzoq davom etmadidi. Chegaralar sonining ko'payishi natijasida O'rta Osiyo orqali o'tadigan yo'llar bo'ylab savdo-sotiq qimmatlashdi va portugaliyaliklar kabi savdogarlar alternativ yo'llarni izlashga qaror qilishdi. San'at va fanni homiylik qilishning ulkan an'analari izdan chiqdi. Diniy pluralizm ham sekin pasaya boshladi. Muhit ko'plab dinlar ta'sirida bo'lgan madaniyatdan to tobora ko'proq Islom hukmronlik qiladigan madaniyatga aylandi. Va nihoyat, Islomdagagi jiddiy o'zgarishlar yanada muhim ahamiyat kasb eta boshladi. O'rta Osiyo sivilizatsiyasining ulkan yutuqlariga qaramay, G'arbda ko'pchilik bu tarixni bilmaydi. O'sha davrning ko'plab buyuk



madaniy va intellektual namoyondalari boshqa sivilizatsiyalarga mansub deb noto'g'ri tan olingan. O'tgan davrdagi asarlarning aksariyati arab yoki fors tillarida yozilgan va ularning mualliflari ko'pincha arablar yoki forslar sifatida noto'g'ri tan olingan. Markaziy Osiyo rolining nisbiy mavhumligining yana bir sababi Sovet davrining merosi bo'lib, bu davrda Sovet Ittifoqidan tashqarida bo'lganlar Markaziy Osyoning mumtoz tarixiy shaxslarini tanqid etishgan yoki targ'ib qilishmagan. Ushbu davr haqida xabardorlik kamligiga qaramay, bugungi dunyo uchun uning tarixi juda muhim hisoblanadi. Beshta sovet davlatlari va Afg'oniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston o'zlarining tarixiy merosini qaytadan kashf etish jarayonida. Mintaqaga tarixi G'arb mamlakatlari uchun tushunish uchun muhimdir, chunki ular Markaziy Osiyo mamlakatlariga bugungi dunyoda muhim bo'lgan masala sifatida qarashadi. Uchinchidan, Markaziy Osiyo dunyosi olimlar, ilmiy bilimlar, g'oyalar, dirlar va katta iqtisodiy imkoniyatlarning o'chog'i edi. Erkin savdo yo'llari Markaziy Osyoni bu dunyoning sivilizatsiyasi o'chog'iga aylantirdi va asosiy savdo yo'llarining yopilishi uning yo'q qilinishiga olib keldi. Markaziy Osiyodagi voqealar sivilizatsiyaning muhim va insoniyatning ulkan yutuqlari amalga oshirilganini ta'kidlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fierman, W. 2009, O'rta Osiyoda o'ziga xoslik, simvolizm va til siyosati ' , Evropa-Osiyo tadqiqotlari, jild. 61, № 7, 1207-1228.
2. Glenn, J. 1999, The Soviet Legacy in Central Asia, Palgrave, New York.
3. Akbar, Z. (2012). "Markaziy Osiyo: yangi buyuk o'yin", Vashingtonda turk va evroсиyo ishlariga sharh.
4. Bekon, EE rus hukmronligi ostidagi Markaziy osiyoliklar: Madaniyat o'zgarishini o'rganish. Ithaca: Cornell University Press, 1966.



## MARKAZIY OSIYONING GEOSTRATEGIK VA GLOBAL IQTISODIY SHAROITIDA MUHIMLIGI

*Usmonova Sarvinoz Murodullayevna  
Qashqadaryo viloyati Kitob tumani  
1-umumi o'rta ta'lim maktabining  
Milliy istiqlol g'oyasi va Tarix fanlari o'qituvchisi  
Telefon: +998973817616*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Markaziy Osiyoning asosiy tarixiy va geosiyosiy xususiyatlarini yoritishga qaratilgan. Turli geosiyosiy oqimlar Markaziy Osiyoning geostrategik va global iqtisodiyot sharoitida muhimligini ta'kidlaydi. Markaziy dalil shundaki, bu hozirgi iqtisodiy senariyda Sharqiy va G'arb o'rtasidagi strategik mavqe, buyuk davlatlar o'rtasidagi raqobat makoni sifatida katta ahamiyatga ega bo'lган mintaqadir. Bundan tashqari, mintaqada so'nggi yillarda yirik neft va gaz zaxiralari mavjudligi sababli xorijiy investorlarning e'tiborini jalg qilishda davom etmoqda.

**Kalit so'zlar:** potentsial va geostrategik; tarix; geosiyosat; postsoviet hududi; Markaziy Osiyo respublikalari; ekspluatatsiya

Markaziy Osiyo dunyoning eng muhim mintaqalaridan biridir. U Evrosiyo kontinental kosmosining yadrosida joylashgan va Xitoy, Evropa Ittifoqi, Hindiston, Yaponiya va Rossiya kabi bir qator barqaror va dinamik iqtisodiyotlar o'rtasidagi hal qiluvchi bo'g'in hisoblanadi. Dunyo siyosatchilarining so'zlariga ko'ra, "O'rta Osiyo asta-sekin dunyo iqtisodiy markaziga aylanib borishini hisobga olgan holda, unga berilgan ulkan iqtisodiy potentsial va geostrategik joylashushi juda muhimdir. Yangi energiya atlasi ostida Markaziy Osiyo qo'shni mintaqalar bilan mustahkam aloqada bo'lган strategik mintaqada joylashgan. Uning rivojlanishi, birinchi navbatda, dunyoning qolgan qismiga kirishga bog'liq. Markaziy Osiyo siyosiy va iqtisodiy dunyo tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, "dunyoning eng dinamik iqtisodiyotlari, shu jumladan, uchta davlat (Rossiya, Hindiston va Xitoy) bilan o'ralgan. Armando Markes Guedes ta'kidlaganidek "Markaziy Osiyo qaysidir ma'noda mintaqqa zonasi" bo'lib, u "shubhasiz ham tarkibiy, ham konyunkturaviy favqulodda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chet el bosqinchilari faqat bosqinchilik harakatlari bilan cheklanib qolmadi, ular keng madaniy aloqalarni yaratdi. Madaniyat, til, din va odamlarning uyg'unligini taklif qilib, ular mintaqada o'ziga xoslik tushunchasini o'ta murakkab holga keltirishga hissa qo'shdilar. Vaqt sinovidan o'tgan Markaziy Osiyoning asosiy norasmiy institutlari bu qabilalar va urug'lar edi. Shu sababli, Markaziy Osiyo ishlari bo'yicha mutaxassislarning soni tobora ko'payib borayotgani klan siyosatining mintaqqa iqtisodiyoti va siyosatiga nisbatan nazorati nuqtai nazaridan muhimligini ta'kidlamoqda. Markaziy osiyoliklar orasida oilaga yoki qishloqqa sadoqat sub-etnik darajada eng muhimdir. Ushbu sadoqat jamiyatning siyosiy tashkilotining asosiga asoslanadi.

Tarixiy nuqtai nazaridan, O'rta Osiyo Turkiston deb nomlangan, uning forsiy tarjimasi "turklar yurti" degan ma'noni anglatadi (Encyclopædia Britannica, 2013). Turkistonning dominant lingvistik guruhi turkman, o'zbek, qirg'iz va qozoq kabi turkiy tillar tomonidan shakllantirilgan. Jug'rofij jihatdan Turkiston hududi Kaspiy dengizining sharqiy qismidan Oltoy tog'larigacha, janubda Fors va Afg'oniston chegaralaridan, shimolda Rossiya yerlarigacha cho'zilgan. G'arbiy Turkiston va Sharqiy Turkiston ikkiga bo'lingan. Ruslar uchta xonlikni egallab oldilar, ammo ular faqat Qo'qon xonligini o'zlashtirdilar Xiva va Buxoro xonliklariga erkinlik maqomini berdilar. Shunday qilib, 1867 yilda Rossiya imperiyasining tarkibiga kirgan va Rossiya Turkiston deb nomlanuvchi G'arbiy Turkiston, turkiy xalqlar (turkman, o'zbek, qirg'iz va qozoq) yashaydigan yerlarning katta qismini egallagan, lekin rasman protektoratlarga kirmagan. Buxoro va Xiva shaharlari o'z navbatida, Sharqiy Turkiston (shuningdek, Xitoy Turkiston deb ham ataladi) Xitoyning shimoli-g'arbiy qismidagi yerlarni, ya'ni Shinjon avtonom viloyati hududini o'z ichiga olgan mintaqaning sharqiy qismiga ishora qildi. 1860 yildan Sovet Ittifoqi parchalanguniga qadar 1991 yilda O'rta Osiyo bir asrdan ko'proq vaqt davomida Rossiya hukmronligi ostida edi. Mark Dikkens Markaziy Osiyoni zabt etishga yordam bergen ba'zi omillarni taklif qiladi. "Buyuk Tatar O'rda qulashi natijasida vujudga kelgan geosiyosiy bo'shlioni to'ldirishga qaratilgan instinctiv turtki ..." ni ta'kidlaymiz. "O'rda bosib olgan hududlarni qayta bosib olishning tarixiy ruhi ..."; "osonlikcha



islomga qarshi kayfiyatga aylangan an'anaviy turklarga qarshi pozitsiya"; va "Rossiyaning sharqiy va janubi-g'arbiy Osiyo mintaqalarida yashaydigan oz sonli odamlar ... mintaqani egallab olishganida, nazorat va ekspluatatsiya qilish uchun oson nishon edi".

Aslida mustamlaka bo'lган Rossiya rahbarligi ostida mahalliy aholi muhim o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Vaqt o'tishi bilan "Turkiston" atamasi "Srednaya Aziya" (Rossiya Ichki Osiyo yoki Markaziy Osiyo) atamasi bilan almashtirildi. Boshqa mustamlaka mamlakatlari singari, podshohlar hukumati uning madaniyatining haddan tashqari ustunligiga ishongan", aslida "ruslar o'z tillaridan foydalanishni talab qilishgan, mahalliy odatlar va madaniyatlardan, xususan Islomdan nafratlanishgan va ularga xos bo'lган munosabatlarni ochib berishgan".

Ruslar hukmronligi davri nafaqat siyosiy va iqtisodiy o'tish, balki, avvalambor, rus madaniyati va tilining hukmronligi bilan ajralib turdi. Amalda, "mustamlakachi istilochi" tili O'rta Osiyo xalqlari uchun til bo'lib qolgan. Rus tilini "majburiy" targ'ib qilish, Sovet Ittifoqi respublikalarida (ruslashtirish yoki rusifikatsiya deb ataladigan) turli darajalarda amalga oshirilgan, Moskva tomonidan ishlab chiqilgan bosh muhandislik sxemasining asosiy elementi edi. Shuni ta'kidlash kerakki, keyinchalik Sovetlar bir nazariyani ishlab chiqadilar, unga ko'ra sotsialistik jamiyat haqiqiy kommunizm tomon olg'a borar ekan, xalqlar yaqinlashishga moyil bo'ladilar va shu bilan birga yangi sovet madaniyati paydo bo'ladi. "Yangi odam" Sovet odami ("Sovetskiy chelovek") paydo bo'ladi, o'tmishdan ozod va baxtiyor bo'ladi. O'zbeklar va ruslar, estonlar va qirg'izlar o'rtasida ma'naviy, intellektual va hatto jismoniy tafovutlar bo'lmaydi; bir xil madaniyatni baham ko'ring, bir xil marksizm-leninizmga ishoning, bir xil ovqatni iste'mol qiling va bir xil liderlarga sajda qiling. Sovet odamining madaniyati boshqa barcha madaniyatlarning eng yaxshi elementlarining uyg'un aralashmasidan iborat "

Markaziy Osiyo respublikalari katta energiya va insoniy imkoniyatlarga ega bo'lib, "qiyinchilik va imkoniyat" bilan bir vaqtida duch kelmoqdalar, chunki "Evrosiyo iqtisodiy makoni global integratsiyaning yangi bosqichining faol qismidir". "Markaziy Osyoning buyuk davlatlar uchun ahamiyatini" tushuntirib beradigan uchta asosiy sabab bor. Birinchidan, mintaqqa neft va gazda katta miqdorda energiya manbalariga ega. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy va mintaqalararo davlatlar Markaziy Osyoning energiya potentsiali muhimligini yaxshi bilishadi. Haqiqatan ham mintaqqa "yirik global energiya yetkazib beruvchisi" ga aylanmoqda, xususan "neft va gaz sohalarida". Mintaqaning yirik kuchlar uchun ahamiyatliligining ikkinchi sababi, qo'shnilarining "Xitoy, Rossiya, Kavkaz va Evropada" to'qnashuvi bilan bog'liq.

### **Adabiyotlar:**

1. Akbar, Z. (2012). "Markaziy Osiyo: yangi buyuk o'yin", Vashingtonda turk va evrosiyo ishlariga sharh,
2. Antunes, FM (2012). Shaxsiy suhbat. Lissabon.
3. Asia Times, 2012, [http://www.atimes.com/atimes/Central\\_Asia/NH09Ag01.html](http://www.atimes.com/atimes/Central_Asia/NH09Ag01.html)
4. Asimov, S. (2001). YuNESKOning O'rta Osiyo tsivilizatsiyalari tarixidagi loyihanining tavsifi,
5. Asimov, S. e Bosvort, E. (1998). O'rta Osiyo tamaddunlari tarixi, IV jild. YuNESKO nashriyoti.
6. Babak, V. (2006). "Qozog'istondagi neft va gaz sektori", O'rta Osiyo va Kavkazda, N.º 4 (40), 41-54 betlar
7. Bekon, EE rus hukmronligi ostidagi Markaziy osiyoliklar: Madaniyat o'zgarishini o'rganish. Ithaca: Cornell University Press, 1966



## “МИЛЛИЙ ҒОЯНИНГ ИЛДИЗЛАРИ, МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШДАН – МИЛЛИЙ ЎҚСАЛИШ САРИ”

Рахматуллаева Гавҳар Илҳомовна  
Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги хузуридаги  
“Маънавият ва маърифат маркази” мутахассиси  
Телефон: +998(99) 854-63-45  
gavharshodbeginman@gmail.com

**Аннотация.** Мақолада миллий ғоя ўзининг моҳияти бўйича миллатнинг манфаатларини умумлаштирадиган, уни ўз олдига қўйган ягона олий мақсадлари сари бирлаштирадиган ва сафарбар этадиган ғоя эканлиги айтиб ўтилган. Мақолада биз яшаётган фаровон ҳаёт осонликча қўлга киритилмагани, бугунги тинч замонга эришиш учун ўз жонини фидо қилган аждодларимизнинг ҳиссаси ҳақида маълумотлар келтирилган. Мақолада миллий ғоянинг илдизларидан тортиб, миллий тикланишдан миллий юксалиш сари бажарилган-бажарилаётган ишлар эътироф этилган. Бу фаровон ҳаёт, ёруғ қунларнинг қадрига етиш, унга муносиб бўлиш, Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида миллий ғояни ривожлантириш ҳар биримизнинг бурчимиз, вазифамиз эканлиги таъкидланган.

Мақолада миллий ғоя, миллий-тикланиш, миллий-юксалиш каби тушунчаларнинг мазмун моҳияти, келиб чиқиши ва тадрижий ривожланишига оид маълумотлар таҳлил қилинади.

**Калит сўзлар:** Миллий ғоя, миллий-тикланиш, миллий-юксалиш, маърифатпарварлик, ижтимоий тафаккур, сиёсий тараққиёт.

Ҳар бир даврнинг ўз миллий ғоя ва мафкураси бўлганини биласизми? Миллий ғоямизнинг маърифий асослари уч минг йиллик давлатчилигимиз билан бир вақтда шаклана бошлиганиничи? Ўзлигимизни англашнинг ва тараққиётимизнинг кафолати ҳисобланадиган миллий ғоя ўзи нима? Ушбу саволга луғатларда шундай таърифлар келтирилган.

Миллий ғоя – миллатнинг ўтмиши, бугуни ва истиқболини ўзида мужассамлаштирган, унинг туб манфаатлари ва мақсадларини ифодалаб тараққиётга хизмат қиладиган ижтимоий ғоя шакли<sup>[1]</sup>.

Миллий ғоя – муайян миллат ҳаётига мазмун баҳш этадиган, уни эзгу мақсад сари етаклайдиган фикрлар мажмуи<sup>[2]</sup>.

Миллий ғоя – миллатни, ҳалқни эзгу мақсадлар сари етакловчи улуғвор фикрdir<sup>[3]</sup>.

Ушбу таърифлардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, миллий ғоя ўзликни англаш ва ижтимоий-сиёсий тараққиётни таъминловчи миллий омил сифатида намоён бўлади. Эътироф этиш жоизки, Ватанимизда милоддан аввалги VIII-VII асрларда бошлиғич маданият марказлари вужудга келган, шаҳарлар ташкил топа бошлаган. Шаҳар маданиятининг энг асосий элементи эса бу маърифат масканлар, таълим тарбия бўлган. Миллий ғоя ва мафкура инсонларнинг қадриятлари ва менталитетига сингиб, жамиятнинг эзгу ғоялар ва мафкурасиз ривожлана олмаслигини тасдиқлаган. Ҳаттоқи, “Авесто”да унинг бош ғояси – Эзгу фикр, эзгу сўз, эзгу амал эканлиги, бу ғоя ҳалқнинг яшаш турмуш тарзи ва қадриятларига сингиб кетгани айтилган.

“Авесто” китобидаги қадимий ёзувларда ҳам миллий ғоя ҳақида кўплаб мисралар битилган, кўрсатилган. Ижтимоий тафаккурнинг мумтоз намуналари бўлган дунёвий, илмий дурдоналари миллий ғоямизнинг фалсафий негизларини белгилайди. Юнон файласуфи Гераклит ўзининг Шарқда ўтган ғоявий устозларини, «Авесто»дек муқаддас китобда битилган фалсафий фикрларни назарда тутиб, юртимизга «фалсафий тафаккур бешиги» деб таъриф берган эди.

Мустакилликдан сўнг олиб борилган илмий тадқиқот ва изланишлар натижаси қадимий маданият илдизлари қадимги юонон цивилизацияси билан тенглаша олишини кўрсатди. Аниқроқ қилиб айтадиган бўлсақ, Фалес билан бир мақомда турадиган, Салон билан баҳслашган мутафаккир файласуф Анаҳарсис Марказий Осиёдан етишиб чиқсан.

Ҳаттоқи Собиқ Иттифоқ давридаги адабиётларда ҳам қуидаги мулоҳазаларни тан олишга мажбур бўлишган. “Қадимги Гречиянинг машҳур мутафаккири Сукрот яқин вақтгача “ахлоқ фалсафасининг отаси” ҳисобланиб келинган эди. Шарқ маданияти билан чуқур танишиш натижасида XX-аср олимлари бу фикрдан қайтишга мажбур бўлиб, этика



тўғрисидаги фикр ва мулоҳазалар анча бурун, яъни, бундан 26 аср олдин Шарқ мамлакатларида пайдо бўлган, деган фикрга келдилар<sup>[4]</sup>.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” асарида таъкидлаганлариdek, Ислом олами жаҳон фани ва цивилизациясиага қўшган бекиёс хиссаси билан фаҳрланишга тўла ҳақлидир. Ҳусусан, Марказий Осиё худуди Шарқ Ренессансининг йирик марказларидан бири сифатида бутун дунёда маълум ва машҳур бўлган. Бугунги нотинч ва таҳликали замонда тараққиёт ва ижтимоий барқарорликни таъминлашда буюк аждодларимиз қолдирган, бутун инсониятнинг маънавий бойлиги бўлган бебаҳо мероснинг ўрни ва ахамияти бекиёсdir. <sup>[5]</sup>

XI-XII асрлар, Туркистон ўлкаси. 1004 йилда Хоразмда ташкил этилган Дорул Ҳикма ва маориф - Хоразм Маъмун академияси, унда фаолият олиб борган олимлар, мөғуллар босқини, Ж.Мангуберди ва Т.Маликнинг ёвларга қарши кураши, Н.Кубронинг ватанига бўлган садоқати давридир.

«Миллий тарихимизнинг яна бир ёрқин юлдузи Абу Райхон Беруний фаолиятига ҳаққоний баҳо берар экан, америкалик фан тарихчиси Сартон XI асрни «Беруний асли» деб таърифлайди. Бундай юксак ва ҳақли баҳо аввало қомусий тафаккур соҳиби бўлмиш буюк ватандошимизнинг илм-фан тараққиётига қўшган бекиёс хиссаси билан изоҳланади. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, Беруний илмий масалаларда ҳам, тарихий воеа-ходисаларга, ўз замондошларига баҳо беришда ҳам ўта холислик ва ҳаққонийлик билан фикр юритган. Шу боис ҳам у ҳаётда кўп азиятлар чеккан, ҳатто умрининг охирида турмуш қийинчиликларига дучор бўлган, аммо ҳар қандай оғир шароитга қарамасдан, эътиқодидан қайтмагани унинг ўз маънавий идеалларига накадар содиқ бўлганидан далолат беради»<sup>[6]</sup>.

Беруний фаннинг ҳамма соҳаларида самарали ижод қилган эди. Унинг илмий мероси жуда кенг ва ранг-баранг. Берунийнинг илмий иш соҳасидаги зўр қобилияти унинг кўпчилик замондошлари ва кейинги олимлар томонидан эътироф этилган.

Илм ва маърифат ўчоғи бўлган Хоразм Маъмун академиясининг ташкил этилиши, шундай илм-фан ва маданият ўчоқларини сақлаб қолиш ва она замин ҳимояси учун душманлар босқинига қарши курашган буюк саркардаларимиз, кубровия тариқатининг асосчиси бўлган Нажмиддин Кубронинг **“Ё Ватан ё шарафли ўлим”** деган шиори ўша давр тарихида миллий мағкура вазифасини бажарган.

XIII-XIV асрлар, Ўрта Осиё. Манбаларга қарайдиган бўлсак, Нақшбандия тариқати, Амир Темур салтанати, шахси, фаолияти, Навоий сиймоси, ижод жараёнидаги лавҳалар намоён бўлади. Яниким, Нақшбандия тариқатининг **“Дил баёру даст бакор”** яъни **“Қўлинг ишида, қалбинг эса Аллоҳда бўлсин”** деган шиори, Амир Темурнинг буюк давлатни барпо этиши, Темур тузукларининг яратилиши, давлатни **“Куч адолатдадир”** деган шиор остида бошқаргани ҳақидаги гаплар айтилади. Биз юртимизни узоқ ва ғоят мураккаб тарихига назар ташласак, бу жараённи аниқ ифодалайдиган тарихий манзараларга гувоҳ бўлишимиз мумкин. Биргина Амир Темур ва Темурийлар даври тарихи бунинг ёрқин исботи бўла олади. Темурийлар салтанати бир неча асрлар мобайнида гуллаб-яшнади, улуғ алломаларни дунёга келтирди, илм-фан, маданиятда етакчиликка еришли. Буни сабаби нимада эди? Жавоб битта: А.Темур мамлакат ижтимоий-сиёсий бўхрон исканжасига тушиб қолган, феодал тарқоқлик ва ўзаро нифоқ авж олган бир шароитда халқни ўз ғоялари атрофида бирлаштира олди. “Мен ўз салтанатимни дини Ислом, тўра ва тузук асосида мустаҳкамладим,” – деган эди улуғ соҳибқирон, – салтанатни бошқаришда учраган ҳар қандай воеа ва ишни тузук асосида бажардим”<sup>[7]</sup>.

XIX-XX асрлар, Туркистон. Бу даврда тарихга назар соладиган бўлсак, Чор Россиясининг босқини, бу босқинга қарши курашган маърифатпарвар боболаримизнинг шонли фаолияти, мактабларни ислоҳ қилиши, дунёвий илм-фналарни ўқитилишини жорий қилиш, театрларнинг ташкил қилиниши, оммани саводли бўлиши учун курашиши ва тарғиботлари ҳақида сўз боради. Маълумки, бу даврда Авлонийнинг **“Тарбия биз учун ё ҳаёт, ё мамот, ё најсом, ё ҳалокат, ё саодат, ё фалокат масаласидир”** деган сўzlари ҳамда Беҳбудийнинг **“Ҳақ олинур-берилмас”** деган сўzlари маърифатпарварлар учун дастури амал бўлиб хизмат қилган.

Ҳар бир миллатнинг ўзига хос ва ўзига мос бўлган миллий ғояси мавжуд бўлади. Бундай ҳол жамиятнинг бир қонуниятидир. Ер юзининг қайси бир минтақасида бўлмасин, турли миллатларнинг шаклланиши билан биргаликда, уларнинг миллий ғояси ҳам



шаклланиб боради. Жадид маърифатпарварларнинг фикрича, миллий ғоя мазмунинг туб, асл эҳтиёжларидан, туриш-турмушидан, асрий анъаналаридан, ўзлигидан ва табиийки, имкониятларидан келиб чиқмоғи лозим<sup>[8]</sup>. Ҳар бир миллатнинг миллий ғоясининг мазмунини, у қўп йиллар давомида бошидан кечирган ижтимоий-сиёсий, хукукий, иқтисодий ва табиат билан боғлиқ бўлган шарт-шароитлар, воқеа ва ҳодисалар белгилайди.

Шунинг учун хам миллий ғоя тушунчасининг том маъно-мазмунини озодлик, тинчлик, инсонийлик, меҳрибонлик, садоқат, фидоийлик, ўзаро меҳр-оқибат, муруват, дўстлик, биродарлик, бағрикенглик каби энг олий қадриятлар ташкил қиласди.

2017 йил 7 февраль Президентимиз Ш.Мирзиёев бошлилигига янгиланаётган Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотлар, Ҳаракатлар стратегиясида қўйилган вазифалар ижроси бўйича амалга оширилаётган ишлар, бунёдкорлик ишлари, Ўзбекистоннинг дунёга очилгани, замонавий, осмонўпар биноларнинг қурилиши, мақом, баҳшичилик, хунармандчилик бўйича ҳалқаро фестивалларнинг ташкил этилиши, ҳалқаро ташкилотлар томонидан янги ислоҳотларнинг эътироф этилаётганини кўришимиз мумкин.

Миллий ғоянинг асосий мазмуни деганда, унда ифодаланган мақсадлар тушунилади. Яъни, миллий тараққиёт ғояларидаги конкрет мақсадлар, унинг асосий мазмунини ташкил этади. Бу мақсадлар – озод ва обод Ватан, эрки ва фаровон ҳаёт барпо этиш ёки юртимизда хукукий демократик давлат ва эркин фуқаролик жамияти қуришдан иборатдир.

Хозирги ахборот технологиялари ривожланган глобаллашув даврида турли ахборот хуружлари, ёшларнинг онги ва тафаккурини эгаллашга бўлган курашлар кетаётгани, ёт ғояларга қарши курашиш, ёш авлоднинг бўш вактларини мазмунли ташкил этиш мақсадида илгари сурилган 5 та ташаббус доирасида амалга оширилаётган ишлар, диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувликнинг таъминлангани катта аҳамиятга эга.

Миллий ўзликни англаш орқали, ўтмишда ҳалқимиз дуч келган муаммоларни ва уларнинг қандай ҳал қилинганлиги билиб олиш, шубҳасиз бугунги кундаги муаммоларни тўғри ва тезроқ ҳал қилинишига ёрдам беради ва жамиятимизнинг тараққиётини тезлаштиради. Биз яшаётган фаровон ҳаёт осонликча қўлга киритилмаган, бугунги тинч замонга эришиш учун ўз жонини фидо қилган аждодларимизнинг ҳиссаси катта. Бу кунларнинг қадрига этиш, унга муносиб бўлиш, Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида миллий ғояни ривожлантириш ҳар биримизнинг бурчимиз, вазифамиздир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Т.: F.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. 410-б.
2. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Т.: F.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. 410-б.
3. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т.: ЎФМЖ, 2004. 188-б.
5. Хайтов Шавкат. Муроса ва Ўзбекистон фалсафаси тарихига кириш. Т.:Фалсафа ва хуқук институти. 2010й. 262 бет.
6. Шавкат Мирзиёев. Нияти улуғ ҳалқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Т. Ўзбекистон, 2019. 209 б.
7. Каримов И.А. Юксак маънавият енгимас куч. Т.Маънавият, 2008. 43- бет
8. Амир Темур ўғитлари. – Т.: Наврӯз, 1992. 19-б.



## TARIX DARSALARIDA QO'LLASH MUMKIN YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

*Ahmedov Qudrat Axmedovich  
Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani 94 – maktab  
Tarix fani o'qituvchisi + 998934214175*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix darslarida qo'llash mumkin yangi pedagogik texnologiyalardan biri bo'lган "sakkizoyoq" metodini qo'llanishi, qaysi mavzularda qo'llash mumkinligi haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiyalar, Sakkizoyoq metodi, Amir Temur sultanati, Dunyo dinlari.

Hozirgi kunda ta'lim mazmuni va sifati masalalari jamiyatda ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga etkazishda hal qiluvchi o'rinn tutadigan ta'lim-tarbiya sohasidagi ishlar ko'lami tobora ortib bormoqda. Ta'lim-tarbiya tiziminining bugungi kundagi asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan hamda jamiyatda o'z munosib o'rnini egallashga qodir bo'lgan, komillikkha intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir.

Bugun biz sizga tavsiya etmoqchi bo'lgan metod tarix darslarining ayrim mavzularida qo'llash uchun mo'ljallangan bo'lib, bunga o'qituvchi o'z ijodiy yondashishiga qarab turli o'zgarishlarni kiritishi mumkin. Bu metod orqali nafaqat tarix darslarini o'zlashtirish, balki boshqa fanlar aro bog'lanishni ham ko'rish mumkin. Biz bu metod nomini "Sakkizoyoq" metodi deb nomladik.



Biz hozir bu metodni tarix fanida qanday qo'llashni o'rganamiz: 7-sinf O'zbekiston tarixi Amir Temur sultanatining vujudga kelishi mavzusi.

Bizga ma'lumki Amir Temur sultanati yurtimizda vujudga kelib boshqa o'lkalarga ko'plab istilochilik yurishlarini amalga oshiradi bunda biz ham geografiya fani va hozirgi kunga murojaat qilamiz.

Dunyo xaritasidan foydalanim sakkizoyoq bosh qismini yurtimiz hududiga o'rnatamiz va uning oyoqlarini o'quvchilarga tarqatamiz o'quvchilar Amir Temur bobomiz qaysi hududlarga istilochilik yurishlarini amalga oshirganliklarini o'z bilimlariga suyangan holda o'yin tarzida tezkorlik bilan aniqlaydi.



Bu metoddan yana davlatlarning faoliyati, dunyo dinlarining vujudga kelishi va fashizmning vujudga kelishi mavzusida ham foydalansa bo'ladi bunda bizga Yevropa xaritasi kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston xalqlari tarixi, 2-t., T., 1994.
2. To'ra Halimov, "Tarix darslarida interfaol usullardan foydalanish", 2008-y.



## O'Z TAJRIBAMDA QO'LLAGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Boymurzayev Bekzod Toxirovich  
Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani 4 – maktab  
Oliy toifali tarix fani o'qituvchisi +998904412619

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarix darslarida qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar, kun vat tun, bilimlar mamlakatiga sayohat, hosilni teramiz metodlari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Yangi pedagogik texnologiyalar, kun va tun, ta'lism sifati.

Jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida ta'lism jarayoniga qo'yilgan talablar turli xil bo'lgan. Chunonchi, ular jamiyat rivojlanishining qonuniyatlaridan va uning eng muhim vazifasi hisoblangan – yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashdan kelib chiqqan.

Bizning kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni xalqaro talablarga javob bera oladigan yetuk mutaxasislar bo'lib etishishi, ularning bilim va ko'nikmalarida bo'shlqlarning bo'lmasligi uchun ustozlar oldida katta ma'suliyatli vazifalar qo'yilgan.


Ta'lism sifatini oshirishda ustozlarning roli muhim sanaladi. "Yaxshi muallim – sifatli ta'lism" deb bejizga aytilmagan. Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'l mish ilmu ma'rifat, ta'lism va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar. Tarix darslarini o'qitishda ham turli yangi metodlardan foydalanish, mavjud metodlardan darslarda to'g'ri foydalana olish o'quvchilarning bilim samaradorligini oshirishda xizmat qiladi.

Ta'lism-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamонавија va innovatsion paedagogik uslublarini hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali ta'lism sifatini yanada oshirish mumkin.

O'qituvchi darslarni qiziqarli tarzda o'tish nafaqat o'quvchining bugungi kunini mazmunli o'tkazishga, balki uning butun umrini mazmunan boyitishga xizmat qilishini umutmasligimiz lozim.


### "Kun va tun"

O'tilgan mavzuni takrorlashda "Kun va tun" metodidan foydalanib, o'quvchilarning bilimlari mustahkamlanadi. Bunda ko'rgamaning kun va tun qismi berilgan. Kun qismida Quyosh bulutlar ortiga berkingan, savollarga javob berish orqali bulutlar terib olinadi va tun qismi yulduzlar bilan charog'on qilinadi. Har bir berilgan to'g'ri javobda bitta yulduz ilinadi.



### "Bilimlar mamlakatiga sayohat"


Ushbu metoddan 5-9-sinfлarda foydalanish mumkin. Bunda bekatlar belgilanadi. 5-7 tagacha bekatlar qilish mumkin. Savollar oddiydan murakkablashib boradi. Birinchi berilgan savolga javob bergan o'quvchi bekatga chiqadi. Keyingi savol beriladi. Javob to'g'ri bo'lsa, keyingi bekatga o'tib ketiladi va oxirigi bekatgacha shu tarzda davom etadi. Savolga javob bo'lmasa, qaysi bekatda turgan bo'lsa o'sha bekatdan tushib qoladi. Boshqa javob bergan o'quvchi chiqadi va 1- bekatdan qayta boshlanadi. Barcha savollarga to'g'ri javob bergan o'quvchi bilimlar mamlakatiga yetib kelgan bo'ladi.



### "Hosilni teramiz"



Bu metod butun dars davomida o‘quvchilarni faol bo‘lishga undaydi. Bunda turli mevali daraxtlarning tasvirlari mevalar bilan birga qo‘yiladi. O‘quvchilar darsda ishtirok etish orqali mevalari terib boradilar. Yangi mavzuni o‘rganishda ham samarali natija bo‘ladi. O‘quvchilar mavzu yuzasidan o‘rganib kelgan ma’lumotlarini aytishga harakat qiladi. Guruhlar bilan ishslash mevalarning turli xilidan foydalanish mumkin. Masalan: olma, anor, nok va shu kabi. Qaysi guruh o‘z mevalarini to‘liq terib olsa rag‘batlantiriladi.



O’ylaymizki biz sizlarga taqdim etgan metodlar biz kabi o‘qituvchilarning ish faoliyatida asqotadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. SH. M. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”.
- T. “O‘zbekiston”- 2017
2. Jahon mamlakatlari qisqa ma’lumotnoma.



## O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANISHI UCHUN QILINAYOTGAN ISHLAR

*Maraximova Xurshida Abdusattorovna  
Andijon viloyati Qo'rg'ontepcha tumani  
XTBga qarashli 15-maktabning tarix fani o'qituvchisi  
Telefon : +998999196648*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'z tarixiga to'plangan tajribaga, dunyoda eng katta boylik sanalgan intellektual salohiyatga chuqur hurmat bilan yondashish har qanday davlatning moddiy va ma'naviy taraqqiyoti asosini tashkil etishligi. O'zbekiston turistlar uchun haqiqiy xavfsiz sayohat maskaniga aylanganligi. O'zbekiston o'zining ko'plab tarixiy-me'moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur'atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o'ziga jalg etayotganligi haqida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, istiqlol vatan, tarix, davlat, turizm, xalq, turist, mamlakat.

O'zbekiston o'zining ko'plab tarixiy-me'moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur'atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o'ziga tortmoqda.

Asrlar mobaynida O'zbekiston Buyuk ipak yo'lining savdo, savdogarlar va sayohatchilar, jo'g'rofiyashunoslar va missionerlar, isti'lochilar va zabit etuvchilarning yo'lida joylashgan edi. Ayni paytda esa, O'zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an'ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo'nalihsidan biriga aylanmoqda.

O'zbekiston ajdoddlardan bugungi kungacha saqlanib qolgan me'moriy yodgorliklari bilan faxrlanadi. Xivadagi Ichon-Qala majmuasi, Buxorodagi tarixiy markazlar, Shahrisabz va Samarqand shaharlari UNESCO ning "Butun dunyo me'rosi" ning maxsus ro'yxatiga kiritilgan. Bu shaharlardagi takrorlanmas yodgorliklar va me'moriy inshoatlar o'tmish zamonlarni o'zida aks ettirib, mamlakat tarixida katta rol o'ynaydi.

Buyuk Ipak Yo'li chorrahasida yashovchi o'zbek xalqining an'ana va odatlari ko'plab asrlar davomida zaroastritlar, so'g'diyalar, baqtriyaliklar va ko'chmanchi qabilalar urf odatlari va shuningdek islom dini urf-odatlari tasiri natijasida shakllandi.

O'zbekistonda turizm sohasi nisbatan yangi bo'lsada, u rivojlanishda ko'pgina sohalardan oldinga chiqib oldi.

Afsonaviy o'tmishi, Ipak Yo'lining tarixiy-muhandislik merosi, tabiatining ajoyib manzaralari, avloddan-avlodga o'tib keluvchi mahalliy hunarmandchilik, xalqning mehmono'stligi va insoniy qadriyatlari bilan sayyoohlarni hayratga soluvchi, mahliyo qiluvchi shu bilan birga ularni hursand etuvchi O'zbekiston barcha burchaklaridan kishilarni o'ziga jalg etadi. Shu o'rinda davlatimiz rahbari tomonidan yurtimizda turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiyotni taraqqiy toptirish va xalq farovonligini yuksaltirishga alohida e'tibor bermoqda. Shuning uchun "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5611-sون 05.01.2019-yilda farmon qabul qilindi.

Har bir yo'nalihsayyoohlarni mahalliy xalqni yashash tarzini ko'rish, milliy taomlarni tatif ko'rish va falklor shou dasturlarini ko'rish uchun mahalliy xonodonlarga tashrifni o'z ichiga oladi.

Sharqona bozorlar haqidagi an'anaviy tasavvurlar; to'kin-sochinlilik, xushmanzaralilik, shovqunlilikni O'zbekiston bozorlarida yaqqol ko'rish mumkin.

Qadimdag'i karvonsaroylar o'rnini zamonaviy qulay mehmonhonalar egalladi. Sayyoohlilik hududlarda joylashgan mehmonxonalar har qanday mehmonning talabini qondirishi mumkin. Toshkent, Samarqand, Buxoro va Urganch kabi katta shaharlardagi birinchi darajali mehmonhonalaridan foydalanishinish mumkin.

O'zbekiston hozirda rivojlangan transport infrastrukturasiga ega. Manzilga yetib olishingiz uchun sizga Buyuk Ipak Yo'li davridagidek bir oy kerak emas. O'zbekiston bo'ylab katta shaxarlarga aviatsiya yordamida yetib olish tez va qulay.

Sayyoohlarni mamlakatning chiroyli manzaradan qulay va tez bo'lgan transport vositasi mashina yoki avtobuslardan foydalanadilar.

O'zbekiston faqatgina tarixiy va afsonaviy me'morchiligi bilan mashxur bo'lib qolmasdan, aktiv sayyoohlilik yo'nalihslariga ham ega. Mamlakatimizning geografik jihatdan qulay joylashganligi bu yerda zamonaviy qulaylik va yovvoyi tabiatning uyg'unlikka kirisha olishiga



inkoniyat beradi. O'zbekiston hududida har qanday tabiat landshaftlarini; tog', vodiy, cho'l, daryo va ko'lni uchratish mumkin.

O'zbekistonning turfa xil maftunkor tabiatı G'arbiy Tyan-Shan tog'i bo'y lab piyoda yurish va tog'ning butun go'zalligini his qilishni imkoniyatini beradi. Otta yurish har qanday yoshdag'i va har qanday temperamentdagi odamga zavq bag'ishlaydi.

Olis o'tmishdagi Buyuk Ipak Yo'lining harakatini his qilmoqchi bo'lsangiz Qizil-Qum cho'li bo'y lab sayohatga taklif qilamiz.

Mahalliy tez oqar daryolarda rafting bilan shug'llanuvchi ishqibozlar O'zbekistonni "Osiyoning Shvetsariyasi" deb ham atashadi.

Prezident shuningdek, mamlakat ichki turizmni tiklash va rivojlantirish borasidagi rejalar bilan tanishildi. Ma'lumki, joriy yil 16 martdan mamlakat tashqi va ichki turistlar uchun yopilgan, oqibatda 1,5 mingdan ortiq turoperator, 1,2 mingta mehmonxona o'z faoliyatini to'xtatgan edi.

O'zbekiston prezidenti SHavkat Mirziyoevga "Uzbekistan. Safe travel guaranteed" "O'zbekiston. Xavfsiz sayohat kafolatlangan" brendi ostida turistlar uchun sanitariya-epidemiologik xavfsizlik tizimi loyihasi taqdim etildi.

O'zbekistonni boy tarixi, mazali taomlar va xushko'ngil aholiga ega bo'lgan O'zbekiston turistlar uchun haqiqiy xavfsiz sayohat maskaniga aylandi. Hozir butun dunyoda sog'lom turmush tarzi va ekologik oziq-ovqatlar mavzusi juda ko'p muhokama qilinmoqda. O'zbekistonda GMOLi mahsulotlar yo'q. Respublikada turizmni ommaviylashtirishda reklama va sifatli ekskursiya dasturlari tashkil qilinib bir qancha turistlar jalb qilinmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar :

1. Narzulla Jo'raev. O'zbekiston tarixi Sharq. 2004-yil.
2. Karimov I.A Tarixiy hotirasiz kelajak yo'q. T., "O'zbekiston", 1998-yil.



## IKKINCHI JAHON URUSHI KO'LAMINING KENGAYISHI

*Sayipnazarova Raxila Sabirbaevna  
Qoraqalog'iston Respublikasi Qorao'zak tumani  
XTV ga qarashli 16-sonli umum talim maktabining Tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ikkinci jahon urushining dastlabki oylarida Germaniyaning Yevropaga kirib keladi va qoshni davlatlarga hujum uyiştira boshlaydi. Germaniyaga qarshi bir qancha davalr ittifozi tuziladi.

**Kalit so'zlar:** Germaniya, Polsha, Angliya, Frantsiya, Majino chizig'I, A.Gitler, harbiy sanoat, texnika, aviatsiya.

Germaniya armiyasi 20 kun ichida Polshani tor-mor keltirdi. G'arb davlatlarining har qancha ishontirishlariga qaramay, shartnomalar bajarilmadi. 20 yil davomida Polsha G'arb davlatlarining sovetlarga qarshi siyosatida yetakchi o'rinn egallab kelgan edi. Endi esa hatto Angliyaning Germaniyagadek qudratli davlatga 1939-yil 1-sentabrda urush e'lon qilishi ham ta'ziya izhoridan boshqa narsa emasdi.

G'arbiy frontda osoyishtalik hukm surardi. Fransuzlar Majino chizig'i ortida payt poylashdi, Angliya esa shoshilinch ravishda qayta qurollanib, an'anaviy dengiz qama-lini tashkil qildi. Bu holatni tarixchilar g'alati urush yoki „zitskrieg”(„o'tirib urushish”) deb nomlashdi. G'arb davlatlarining rahbarlari Gitlerni „tinchitish” uchun Polsha unchalik qimmat to'lov emas deb hisoblashdi va hammasi yaxshi tugashiga umid qilishdi. Biroq, Gitlerni endi to'xtatishning iloji yo'q edi. Germaniyada ulkan armiya va harbiy sanoat yuzaga kelgan bo'lib, u bor kuchi bilan harakat qilishi va ishlashi lozim, bu esa faqat urush sharoitidagina mumkin edi.

Gitler qat'iy va shiddatli harakat qildi. U G'arbda asta- sekin qurolli kuchlarni to'plab, 1940-yil bahorida Belgiya va Fransiya chegaralarida 135 dan ortiq diviziyanı jamladi, tirik kuch, texnika va aviatsiyada juda katta ustunlikni qo'lga kiritdi. Biroq, Germaniya qo'mondonligi oldin Skandinviyada harbiy-dengiz va havo bazalarini barpo etishga qaror qildi, chunki ulardan turib Angliya flotining faol harakatlariga qarshilik ko'rsatish mumkin edi.

1940-yil 9-aprelda „Vezeryubung” operatsiyasi boshlanib, uning natijasida atigi ikki kun ichida nemis qo'shnulari Norvegiya va DANIYANI bosib oldi. Tronxeym va Narvikda harbiy bazalar barpo etilib, ularda Germaniya suv osti flotining asosiy qo'shilmalari hamda suv usti flotining asosiy qismi jamlandi. Bundan tashqari, Bergen va Tronxeym-da harbiy-havo bazalari barpo etilib, ularning kuchlari bilan Angliya hududini bombar-dimon qilish rejalashtirildi. Ko'p vaqt o'tmay Belgiya, Gollandiya va Fransiyaga navbat keldi. 1940-yil 10-mayda bu uch davlatni tor-mor keltirishni ko'zda tutuvchi „Gelb” operatsiyasi boshlandi. Nemis qo'shnularining bosqini Gollandiya, Belgiya va Fransiya-ning aerodromlari, komanda punktlari, harbiy omborlari va muhim sanoat markazlariga kuchli havo hujumi bilan boshlandi. Vermaxtning 3000 dan ortiq samolyotlari bu ob'ektlarni kun bo'yli bombardimon qildi. So'ng zirhli qo'shilmalar hujum boshladidi. 2,5 mingdan ortiq tanklardan iborat hujumkor tuzilmalar zaif qarshilik o'choqlarini oson-gina yanchib o'tib, shimolga va Fransiya chegarasiga tomon yo'l oldi. Ikki kun ichida ular 110 km yo'lni bosib o'tib, Fransiya chegarasiga yetdilar. 14-mayda Gollandiya taslim bo'ldi, 20-mayda esa Germaniyaning asosiy qo'shnulari La-Mansh bo'g'oziga chiqib, Belgiya va Fransiyaning shimolini Angliya-Fransiya-Belgiya qo'shnularining yirik qo'shilmasidan kesib qo'ydi. Qarshi hujum muvafifaqiyatsiz tugadi. 1940-yil 28-mayda Belgiya ham taslim bo'ldi.

Dengiz bo'yidagi ittifoqchilar qo'lida bo'lgan so'nggi yirik port - Dyunkerk xavf ostida qoldi. Angliya qo'mondonligi o'z qo'shnulari va Belgiya-Fransiya qismlarini evakuatsiya qilishga qaror qildi. 1940-yil 4-iyungacha davom etgan Dyunkerk operat-siyasi davomida 300 mingdan ortiq kishi, shu jumladan 123 ming fransuz va belgiya-liklar olib chiqib ketildi. Bor og'ir harbiy texnika evakuatsiya hududiga tashlab ketildi va gitlerchilarning qo'liga tushdi.

Nihoyat, Yevropa davlatlarining rahbarlari haqiqiy urush boshlangani va Gitler uchun g'oyaviy masalalar ikkinchi planga chiqqanini tushunib yetishdi. Germaniyaning Yevropa va jahon miyo-sidagi eski da'volari haqida gap borardi. Germaniya harbiy yutuqlari Angliyada shu qadar hayratmuz taassurot uyg'otdiki, bu Chemberlen hukumatining iste'foga chiqishiga sabab bo'ldi. 10-mayda, Germaniya Gollandiyaga qarshi hujumni uyuştirayotgan bir paytda, Angliya parlamenti Uinston Cherchill boshchiligidagi yangi hukumatni sayladi. U konservatorlar, leyboristlar



va liberallardan iborat koalitsion hukumatni boshqardi. Bu „milliy birlashish” hukumati bo’lib, urush-ning oxirigacha 1945-yil iyunigacha faoliyat ko’rsatdi.

Hukumat dasturining taqdimoti chog’ida U.Cherchill o’z hukumatining maqsadini shunday tushuntirdi:

„Dengizda, yerda va osmonda Tangri bizga bergen butun kuch va qudrat bilan urush olib borish, inson jinoyatlarining qayg’uli ro’yxatida tengi bo’limgan mudhish zolimlikka qarshi urush olib borish”. Butun ingliz millati urushni g’alabagacha, Gitler zulmi to’liq yo’q qilingunga va insoniyat fashizmdan xalos etilgunga qadar olib borishga so’z bergen yangi hukumat atrofiga jipslashdi.

U.Cherchill Germaniya va Rossiyaning ashaddiy dushmani bo’lib, fashizm va kommunizmni birdek qoralardi. Biroq, uning qarshisida juda katta xavf - Gitler Germaniyasi turardi. U Britaniya imperiyasiga xavf solar va eng muhimi shu edi. Cherchill bu dushmanga qarshi urush olib borishga ingliz millatining barcha tabaqalaridan vakolat oldi.

Cherchill Uinston Leonard Spenser (1874-1965) - 20-yillardan boshlab Buyuk Britaniya konservatorlar partiyasining rahbarlaridan biri. 1908 yildan boshlab turli vazirlik lavozimlarida ishlagan (ichki ishlar vaziri, aviatsiya vaziri, harbiy vazir, moliya vaziri). 1940-1945 va 1951-1955-yillarda - Buyuk Britaniya Bosh vaziri.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Нуридинов З.Р. Фарб мамлакатларининг енг янги тарихи (1939-1971) Тошкент. Ўқитувчи 1976. Б.18.
2. Фураев В.К. Енг янги тарих (1939-1988) Тошкент. Ўқитувчи 1990.Б.10.
3. Хидоятов Г.А. Всемирная история. Т. 2000. 46-50 б



## BUXORO AMIRLIGI QUSHBEGI DEVONXONASI ARXIV MA'LUMOTLARI.

*Buxoro viloyati Vobkent tuman  
11-maktab tarix fani o'qituvchisi  
Sharopova Gulshana O'ktamovna  
Tel: +998912462833*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buxoro amirligi qushbegi arxivining shakllanishi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** tarix, manba, hujjat, arxiv, avlod.



Buxoro amirligi tarixini yoritishda bugungi kunda saqlanayotgan Qushbegi arxivi materiallari tarixchilar uchun muhim tarixiy materiallardir. Arxivning "Buxoro amirligi Qushbegi devonxonasi arxivi" deb nomlangan hujjatlarida amirlikdagi vaqf mulklari holati, ulardan foydalanish tartiblari, vaqf daromadlaridan ulamolarga nafaqa to'lash haqidagi arznomalar kabi qiziqarli ma'lumotlarga ega. Shuningdek arxivning, "Vaqf yorliqlari kolleksiyasi" deb nomlangan jamg'armasida katta hajmdagi vaqf hujjatlari jamlangan bo'lib, ularning aksariyat qismi, ya'ni 90 foizi Buxoro amirligiga mansubdir. Qolgan 10 foizi Xiva hamda Qo'qon xonliklariga tegishli.

Buxoro amirligida davlat ishlarini boshqaruvchi oliy amaldor qushhegi bo'lib, u soliqlar yig'imini boshqarar, ma'muriyamaldorlartarkibiga rahbarlikqilar, mahalliybeklar bilan yozishmalar olib borar edi. Qushbegi har kuni shaxsan hukmdorga amirlikdagi ahvol to'g'risida ma'lumot berib turar edi. Barcha amaldorlar qushbegi tomonidan, faqat oliy amaldorlargina amirning o'zi tomonidan tayinlanar edi. Xazina va zakot yig'imini boshqargan devonbegi lavozimi ahamiyati va mavqeji jihatidan qushbegidan keyin turardi. Uning ixtiyorida 300 dan ziyod amaldor bo'lgan. Sudlov, notariat ishlarini, ruhoniylar va ta'lim muassasalarini boshqargan boshqozi diniy-sudlov ishlariga rahbarlik qilardi.

Buxoro amirligi qushbegi arxivining hozirgi holatigacha bo'lgan shakllanish jarayonlari ham uzoq davrni bosib o'tgan bo'lib, buni quyidagi jihatlarda ko'rib o'tamiz. Viloyatlardan amirning Arkiga haftalik ma'lumotlar choperlar orqali etkazib turilgan. Bunday hujjatlar asosan bir xil shaklda tuzilgan. Yuqoridaq o'ng burchagiga «Hazrat Haqq subhonahu va ta'olo», chap burchagida «Huva-l-fayoz» yozuvlari bo'lib, (ya'ni, Hazrat Haqq (Alloh) pok va oliydir (va) u fayz ulashuvchidir), o'rtada «janob zilli ilohiy, oliy hazratam, mavloyam sallamahullohu ta'olo» (ya'ni Allohning (erdagi) soyasi bo'lmish janob (Amir) oliy hazratim, Xojam, Allah u (kishi)ni salomat qilsin) murojaatli yozuvlar bilan xitob qilinib, viloyatlarda tinchlik, osoyishtalik ekanligi, fuqarolar amirning duosida bo'lib turishgani haqida xabar beriladi. Hokimlarning sadoqat izhor qiluvchi «tasadduq shavam» (yo'lingizda siz uchun tasadduq bo'lay) xitoblari va duolari bilan maktublar tugatiladi. Turli viloyatlardan kelgan maktublarning bir xil shakl mazmundaligi o'sha paytda amirlik devonxonalarini uchun maxsus kotiblar o'qitilganligidan dalolat beradi. Ko'pincha kotiblarning dastxatlari ham bir xil, bir-biriga o'xshab ketadi. Ana shu choperlar orqali Arkka qushbegining qo'liga keltirilgan har xil hujjatlar qayd qilish daftariga qayd qilingach, devonxona sandiqlariga taxlab qo'yilar edi. Mutaxassislarning aytishicha, mansabdor kishilar ko'p narsalarini vaqf qilsalar uni hattotlar naqsh va chiroyli bezaklardan foydalanib, yozgan. Oddiy odamlarning vaqflariga naqsh solinmagan, yozuvlardan iborat bo'lgan.

Ana shu zaylda Buxoro amirligida arxiv ishlari shakllana boshlagan. Buxoro amirligidagi arxiv o'z faoliyatini 1865 yil, ya'ni Amir Muzaffar davridan boshlagan. Yana shuni taxmin qilish mumkinki, arxivning vujudga kelishida rus ma'muriyatining ta'siri ham bo'lgan. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining noziri olim va tarixchi Musojon Saidjonovning yozishicha, Buxoro amirligining arxivi ikki qismiga bo'lingan edi: Birinchi bo'lim Buxoro amirligining shaxsiy devonxona arxiv; Ikkinci bo'lim, Buxoro Qo'shbegising devonxonasi arxiv. SHuni aytib o'tish kerakki, Buxoro



amirligi devonxona arxivni bevosita amir qo‘l ostida bo‘lgan. Masalan, Amir Muzaffar Buxoroda o‘zining qarorgohida arxivni o‘z yonida saqlardi. Uning o‘g’li Sayyid Abul Ahad Buxoro amirligi devonxona arxivini o‘zi bilan birgalikda Karmanadagi qarorgohiga olib keldi. 1910-1920 yilda Amir Olimxon uni Buxoroga keltirdi. Devonxona parvonachi qo‘l ostida edi. Baxtga qarshi Buxoro amirligining devonxona arxivni hozirgi kunga qadar saqlanib qolmagan. Shunday taxminlar borki, 1920 yildagi Buxoro inqilobi davrida bu arxiv sovet askarlari tomonidan ishg’ol qilingan edi va bu arxiv turk frontiga ko‘chirib o‘tkazilgan. O‘zbekiston Milliy arxivida 5 mingga yaqin Buxoro amirligi devonxona hujjatlari saqlanadi, lekin ularning hammasi Buxoro Qushbegisi nomiga yozilganligi sababli «Buxoro amirligi Qushbegisingning kanselyariysi» arxivida saqlanadi. Bundan tashqari, fondda Buxoro amiri va Afg‘oniston shohi o‘rtasidagi yozishma hujjatlari ham saqlanadi. Qushbegi Buxoro amirligida katta imtiyozlarga ega edi, butun devonxona orqali davlat boshqaruviga tegishli siyosiy, madaniy, iqtisodiy doiradagi hujjatlar o‘tardi. Mirzo Nasrulloh qushbegigacha arxiv tartibga ketirilmagan bo‘lib, er ostida maxsus sandiqlarda saqlanardi. Yangi tayinlangan Usmonbek Qushbegi savodsiz kishi bo‘lganligi sababli, arxivning tarixiy ahamiyatiga uncha e’tibor bermagan. 1920 yil sentyabr oyida Buxoroda Sovet hokimiyati o‘rnatalgandan so‘ng, Kuybishev boshchiligidagi Amir va Qushbegining arxivini topish va uni saqlash yuzasidan Buxoro Revkomi tomonidan buyruq chiqarilgan edi. CHK va miliitsiya xodimlari tomonidan Arkning er osti xonalarida hujjatlar saqlangan sandiqlar topilgan. Ayrim hujjatlar devonxonaning polida va tokchalaridan topilgan. Taxminan ular ham amaldorlar tomonidan quvg‘in paytida tashlab ketilgan. Barcha hujjatlar hech qanday tartibsiz va yozuvsiz qutilarga solingan va sobiq Sovet Xalq Nozirligi omborlariga jo‘natilgan, u erda tashqi ishlarni vazirligi omborlariga joylashtirilgan.

Ming yildan oldin yozilgan bu hujjatlarning shu kunlarga qanday yetib kelgani ko‘pchilik uchun qiziq albatta.

Arxiv ma’lumotlarida keltirilishicha, vaqf hujjatlari 1972 yilga qadar Petrburgda saqlangan. Bizning hujjatlari olis yurtlarda nima qilib yuribdi desangiz, Chor Rossiyasi davrida O‘zbekiston boyliklari sifatida barcha manbalar olib ketilgan. Yillar davomida bu hujjatlar kerak, nokerakka ajratilgan. Mutaxassislar o‘rganib, vaqf muhim hujjatlar qatoriga kirmasligi, ularni O‘zbekistonga qaytarish mumkinligini tavsiya etishgach, bu hujjatlar davlat arxiviga topshirilgan.

Nima ham deymiz? Bu hujjatlar bizga kerak va eng muhimi yurtimizga qaytdi. Kim biladi deysiz, ajdodlarimizning qanchadan-qancha bebafo durdona asarlari, ilmiy yutuqlari qaysi o‘lkalarda ushlab turilibdi. Eh, beshafqat tarix.

Foydalanimizda adabiyotlar:

1. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, S.Xoshimov, O’.Ubaydullayev “Vatan tarixi” kitobi Sharq nashriyoti Toshkent 2016
2. A.Sa’diyev “O‘zbekiston xalqlari tarixini o‘qitish” O‘qituvchi nashriyoti Toshkent 1993-yil
3. R.H.Murtazayeva va boshqalar. “O‘zbekiston tarixini” darslik. Yangi asr avlodи Toshkent 2005-yil
4. Aim.uz
5. Wikipedia.org



## ПЕРВЫЕ ИЗЫСКАНИЯ В ГОЛОДНОЙ СТЕПИ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ ХХВЕКОВ И ПРОЕКТЫ ОРОШЕНИЯ

*Хакимов Равшан Раимович, преподаватель  
Гулистанский государственный университет  
+998915001275, ravshan-khakimov@bk.ru*

**Аннотация.** В статье рассматриваются первые изыскательские работы, проведенные в Голодной степи царской администрацией в связи с её орошением. До начала строительства магистрального канала ряд специалистов проводили исследовательские работы и составляли проекты по орошению Голодной степи, которые рассматривались специальной комиссией.

**Ключевые слова:** Голодная степь, орошение, изыскания, проект, магистральный канал, освоение земель.

Как известно из истории, первоначальные изыскания в Туркестане в ирригационных целях были организованы на территории Голодной степи. Летом 1867 года произведены первая топографическая съёмка и рекогносцировка южных подступов в Голодной степи по линии Беговат-Нау-Уратюбе. В начале мая 1868 года царскими войсками, продвигавшимися из Ташкента чеез Голодную степь, был занят город Самарканд, а в 1869 году между этими городами был открыт почтовый тракт, пересекший Голодную степь по направлению Чиназ-Джизак. Для обеспечения тракта водой была организована изыскательская партия под руководством Г.А.Аминова, которая в 1869-1870 гг. провела первые топографические изыскания для установления возможности обводнения почтового тракта из р.Санзара по арыку Мурза-рабат с подпитыванием Санзара из арыка Эсқитуятартар водой реки Зарагушан. 22 сентября 1869 года экспедиция барона Аминова переправилась через Сыр-Дарью. В газете «Туркестанские ведомости» от 10 июля 1873 года за подписью «Барон Аминов» сказано: «Исследованная мною степь вполне заслуживает названия Голодной, не представляет с первого взгляда ничего интересного. Но если поближе взглянем на нее, то мы увидим, что почти вся эта безводная, в настоящее время никуда не годная равнина, когда-то была населена оседлыми жителями. Это доказывается теми знаками оседлости, которые в этой степи не совсем исчезли. Они заключаются в развалинах старых зданий, в признаках брошенных пашен и главное — в следах древних водопроводов»[2]. Были произведены съёмки и рекогносцировка территории между Чиназом, Джизаком и Беговатом на площади 6147 квадратных вёрст и обследованы все урочища, пригодные для орошения пастбищ. По материалам этих обследований подача воды из Санзара и подпитывание по арыку Эсқитуятартар из Зарагушана были признаны вполне возможными.

В 1869 году экспедиция под руководством инженера-технолога Н.Ф.Ульянова выяснила технические возможности орошения земель Голодной степи водами реки Сырдарья. В этом же году изыскания были закончены. На их основе был составлен первый проект строительства магистрального канала с головным сооружением на реке Сырдарья у Джанчукура без плотины для орошения 120 тыс. десятин в центральной части Голодной степи [1].

В 1895 году американский инженер Фицьюг по поручению американской компании просил разрешения включиться в строительство канала, в 1896-ом — московский коммерсант Н. Решетников. Но их предложения никак не устраивали Петербург: претенденты просили отдать им орошающую землю для пользования на несколько десятилетий.

С 1895 года начинается государственная разработка проектов орошения Голодной степи, для чего была создана специальная Сырдарынская изыскательская партия под руководством инженеров Н.А. Петрова и Ф.А.Елистратова. Проект Н.А.Петрова, предлагавшего оросить 50 тыс.десятин в южной части Голодной степи, был отвергнут. Проект Ф.А.Елистратова по орошению 45 тыс.десятин в северо-восточной части Голодной степи был утвержден как предварительный и в 1900 году принят Государственным Советом для строительства. Только после организации Управления строительством канала в первой половине 1901 года начались непосредственная трассировка канала, составление необходимых профилей и смет на предстоящие работы.

Пока разрабатывались все эти проекты, в течении 1895 – 1896 гг. великий князь Николай Константинович Романов предпринял строительство еще одного канала, названного им канал



«Николай I» (ныне К-3). Этот канал осуществлял водозабор ниже Бекабадских порогов, для чего на левом берегу были построены несколько дамб, соединяющих отдельные острова в пойме, и водозахватная шпора в сочетании со стариинными приспособлениями – «сипаями». Канал с расходом несколько более 5 м<sup>3</sup>/сек имел очень малое сечение и значительную длину – 84 км. Трасса его проходила по пойме реки, затем выходила на обрывистый берег Сырдарьи возле Кията и потом поворачивала в направлении железнодорожной станции Голодная степь.

В 1907 году начальник Голодностепской опытной станции Михаил Михайлович Бушуев начал изучать на опытном поле прогрессирующую засоление орошаемых земель из построенного канала. В опубликованной позже статье «О солонцах» он обратил внимание на то, что причиной засоления является подъем минерализованных грунтовых вод из-за недостаточности их естественной отточности. Усиливающуюся фильтрацию канала предполагалось для отвода грунтовых вод и предупреждения их подъема снабдить устройством на каждом участке орошения.

В 1908 году в Голодной степи изыскательская партия под руководством агронома-почвоведа Н.А.Димо начала работы по изучению почвогрунтов и составлению почвенной карты степи. Работа была закончена в 1909 г. и материалы были переданы в проектную организацию по орошению Голодной степи.

В 1909 году инженеры С.Ф.Островский и А.И.Кусиш представили в Отдел земельных улучшений проект магистрального канала с уточнениями схемы Елистратова. Кроме проектов частичного орошения, проводились исследования для составления общей схемы орошения всей степи на площади 500 тыс. десятин. В 1910 году первая такая схема была разработана С.П.Максимовым, вторая – Г.К.Ризенкампфом и С.Ф.Островским, третья – Ф.П.Моргуненковым. В 1913 году Г.К.Изенкампф предложил схему по орошению всей Голодной степи и Дальверзинской степи. Она предусматривала устройство плотины у Беговата, ниже Романовского головного канала и была одобрена.

Все проектно-изыскательские работы в Голодной степи, возглавляемые Г.К.Ризенкампфом, северо-восточную, северо-западную, центральную и южную части Голодной степи на площади 500 тыс. десятин. В результате был предложен комплексный проект орошения и освоения 500 тыс. десятин, в котором был разработан план оросительной системы и план заселения освоенной площади, намечены расположение новых городов и административных центров, предприятий и заводов, схемы железных и шоссейных дорог, линий связи и др. Он предусматривал устройство плотины на р.Сырдарье, орошение 40 тыс. десятин Дальверзинской степи на правобережье Сырдарьи, а также расширение Романовского канала для орошения 180 тыс. десятин на левобережье р.Сырдарьи.

Проектом намечалось орошение центральной части Голодной степи на площади 260 тыс. десятин путём устройства водозабора из Сырдаи, а также машинное орошение 60 тыс. десятин в южной части степи [3]. Это был последний проект по Голодной степи в колониальный период, который не был осуществлен в связи с началом Первой мировой войны.

#### Литература:

1. ЦГА РУз. Ф.17, оп.1, д.25016, лл.21-23.
2. Туркестанские ведомости. 10 июля 1873 г.
3. Ризенкампф Г.К. Проект орошения 500000 десятин Голодной степи. Л., 1922-1924 гг.



## МАҲОСИН АСАРИНИНГ ОКСФОРД ҚЎЛЁЗМАСИ: КОДИКОЛОГИК ТАҲЛИЛ

Нигора Ҳакимова  
Ўзбекистон халқаро ислом академияси  
3-босқич таянч докторанти  
Телефон: +998 90 932 00 82  
nigora\_24@yahoo.com

**Аннотация:** Ушбу тезисда Қаффол Шоший қаламига мансуб Маҳосин асарининг Бодлейн кутубхонасида сақланаётган қўлёзма нусхасининг қисқача кодикологик таҳлили берилган.

**Калит сўзлар:** кодикология, фикҳ, қўлёзма, ислом

Биз бевосита тадқиқот олиб борган Қаффол Шошийнинг қаламига мансуб Маҳосин асарининг қўлёзмаси Буюк Британиянинг Оксфорд Университети Бодлейн кутубхонасининг Хантингтон тўпламида “Маҳосин ал-шариъ” номи билан, 259 рақам остида сақланади<sup>1</sup>. Қўлёзманинг ўлчовларига келсак, китобнинг бўйи 26.5 см, эни 18 см, қалинлиги эса, 5.5 смни ташкил этади. Ҳар бир бет 25 сатрдан иборат матнни ўз ичига олади, ҳар бир бир сатрда эса, ўртacha 17 тадан сўз ишлатилган. Сахифалар хаттот томонидан рақамлар билан эмас, балки ўша давр қўлёзмаларига хос тарзда пойгиrlар билан тартибланган. Қўлёзма сахифаларининг ҳар ўнинчи бетида битта пойгири билан белги қўйилган. Оксфорд қўлёзмасида колофон мавжуд бўлмагани сабабли уни кўчирган хаттонинг исми шарифи ва қўлёзманинг кўчирилган аниқ санаси ва жойи, афсуски, маълум эмас.


Лекин қўлёзманинг сарлавҳаси ёзилган 3-б бетнинг пастки ўнг бурчагида, унга эгалик қилинган сана ҳижрий 841 (милодий 1437) йил деб қайд қилинган. Шундан келиб чиқиб, қўлёзма ҳижрий 841 йилдан аввал ёзилган деган хуносага келдик.

Қўлёзманинг муқоваси теридан ишланган бўлиб, муқованинг ички қисми мато ва қофоз билан қопланган. Қўлёзманинг муқовасига ишланган нақшлар ва унинг боғичи, у яратилган санани аниқлашга ёрдам бериши мумкин, лекин муқова йиллар ўтиб алмаштирилган бўлиши эҳтимоли борлигини инобатга олсак, муқова қўлёзма ёзилган аниқ санани белгилаш учун ишончли асос бўла олмайди.

Шунга қарамасдан, биз турли қўлёзмаларнинг муқовалари ва уларнинг безакларига бағишлиган бир қанча илмий ишларни кўриб чиқдик. Хусусан, Охта Алисоннинг Мамлуклар даврида ёзилган қўлёзмалар жилдларини тадқиқ қилишга бағишлиган докторлик диссертацияси билан ҳам танишиб чиқдик. Қўйида келтирилган икки нақш XIII асрда Марокашда ишлаб чиқарилган китоб жилдлари устида безак сифатида ишлатилган. “A” билан белгиланган нақш тури Гроҳманнинг палеографик асосларига кўра XI ёки XII асрларга мансуб китобларнинг муқоваларида ва сўнгги бетларида кузатилган. Нью Йоркнинг Метрополитен музейида сақланаётган мато нусхаларига кўра, “A” билан белгиланган нақш тури X асрларда тўқимачилик саноатида ҳам қўлланилган. Мазкур нақшларнинг қўлёзмалар муқова ва хошияларида қўлланилиши Мамлуклар даврида ҳам давом этади<sup>2</sup>. Оксфорд қўлёзмасининг жилдида ҳам ўша давр безакларига ўхшаш жиҳатлар мавжудлигига гувоҳ бўлдик. Тахминимизча, қўлёзманинг жилди XIII - XIV асрлардан аввал араб мағриби давлатлари ҳудудида тайёрланган.

<sup>1</sup> Oxford University, Bodleian Library, Ms Huntington 259.

<sup>2</sup> Ohta, Alison (2012), Covering the book: bindings of the Mamluk period, 1250-1516 CE. PhD Thesis. SOAS, University of London. <http://eprint.soas.ac.uk/16626>



A

B

1 расм: Охта Алисон диссертациясида келтирилган безаклар.



2 расм: Қаффол Шоший қаламига мансуб "Маҳосин" асарининг Оксфорд қўлёзмаси жилди.

Маҳосин асарининг Оксфорд қўлёзмаси кўчирилган хат тури орқали унинг ёзилган санасини аниқлаш мақсадида биз қўлёзма нусхасини Оксфорд Университетининг араб тилидаги қўлёзмалар бўйича мутахассис Др. Умбертотга юбордик. Мутахассиснинг бизга ёзган жавоб хатида, қўлёзманинг хат услуби ўзига хос эканлиги ва у бу каби хат турида кўчирилган қўлёзмага ҳозиргача дуч келмаганлиги ҳакида ёзи. Унинг фикрича, қўлёзма араб мағриби ва машриқи хат турларининг ҳар иккаласидан фойдаланган ҳолда ёзилган. Қўлёзмадаги хат тури жуда қизиқарли бўлиб, ёзувда бир қанча араб мағрибида қўлланиладиган хусусиятлар мавжуд. Лекин "фа" ва "қоф" ҳарфларининг нуқталари машриқ ҳудудидаги матн кўчирувчиларнинг ёзув услубини аник такрорлайди. Бундан келиб чиқиб, араб мағриби ҳудудларида таҳсил олган мутахассис араб машриқида қўлланилган хат услубида ёзишга ҳаракат қилган, деб тахмин килишимизга асос бўлди. Ёки мазкур қўлёзма араб мағриби ҳудудидан араб машриқи ҳудудига кўчиб ўтган оиласаларда тарбия топган инсонлар томонидан кўчирилган ёки, мағриб ва машриқ оралиғидаги ҳудудларда, масалан Тунисда таҳсил олган мутахассис томонидан кўчирилган бўлиши мумкин, деб ёзи Др Умберто ўз хатида.

Маҳосин асарининг Оксфорд университети кутубхонасида сақланаётган қўлёзмасини қисқача кодикологик таҳлил этиш жараёнида у ҳакида қуйидаги холосаларга келдик:

1. Мазкур қўлёзма насх хатида кўчирилган;
2. Манба колофонида хаттотнинг исми, манба кўчирилган жой ва вакт қайд қилинмаган;
3. Қўлёзманинг 3-б бетидаги эгалик ҳакидағи қайдномага кўра, манба ҳижрий 841(милодий 1437) йилдан олдин кўчирилган;
4. Хат турига кўра, қўлёзма араб мағриби ва машриқи ҳудудлари туташган ерда яъни, ҳозирги Тунис ёки Марокаш ҳудудида кўчирилган бўлиши мумкин;
5. XIII-XIV асрларда тахминан ҳозирги Марокаш ҳудудларида китоб муқоваларига ҳудди ҳудди биз ўргангандан қўлёзмадаги каби нақш билан безатиш урф бўлганлигини инобатга олиб, мазкур қўлёзма XIV асрдан аввал муқоваланган деб хulosаси чиқардик;
6. Қўлёзманинг мағриб ва машриқда қўлланилган хат турларидан аралаш фойдаланиб



ёзилгани тахминимизча, кўп сафар қилган ва ҳар икки ҳудуд хат турларини ўзлаштирган ҳамда ўша давр хаттотлари билан солиштирганда улардан кўра анча эркин ёндаша оладиган хаттот томонидан кўчирилган.

Кўлёзманинг шакли, мавзуларнинг ёзилиш анъанаси, қўлда кўчирилганми ёки ёзув жараёнида бошқа асбоблар ҳам ишлатилганми, деган саволларга жавоб бериш, у кўчирилган жой ва вақтни аниқ билиш кўлёзмада берилган маълумотларни тўғри тушунишга ёрдам беради. Кўлёзманинг дунёга келиши ва унинг қўлланилиш мақсадлари давр шароитини эътиборга олган ҳолда ўрганилади. Китоб археологияси деб ҳам аталадиган кодикологик таҳлилда китобни моддий предмет сифатида ўрганилади ва уни маълум контекстдаги вазифасини аниқланади. Бизнинг тадқиқотимизнинг асосий мақсади қўлёзмани кодикологик таҳлил қилиш эмас, балки Маҳосин асари муаллифининг назарий қарашларини ўрганиш бўлгани боис, биз манбанинг умумий кодекологик таҳлили билан чегараландик.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абу Бакр Қаффол Шоший. Маҳосин ал-шария. Оксфорд Университети, Бодлейн кутубхонаси, Хантингтон тўплами 259 рақам остидаги қўлёзма.
2. Ohta, Alison (2012), Covering the book: bindings of the Mamluk period, 1250-1516 CE. PhD Thesis. SOAS, University of London. <http://eprint.soas.ac.uk/16626>



## БУХОРОДА МАВЖУД МУЗЕЙЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИДА САМАРАДОРЛИККА ЭРИШИШ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖОРИЙ ҚИЛИШ

*Очилов Алишер Тўлис ўғли-  
Бухоро давлат университети таянч докторанти  
Майл: Galaktikos2191@mail.ru  
Тел: +998997094939*

**Аннотация:** Ушбу мақолада Бухоро вилоятидаги музейлар фаолиятини ривожлантириш бўйича бир қанча муҳум таклифлар илгари сурилган. Бу таклиф ва мулоҳазалар жорий қилинадиган бўлса, албатта музейлар фаолиятида самараали ҳиссасини қўшади деган умидда ман.

**Калит сўзлар:** Музей, экспозиция, инновация, самарадорлик, ривожланиш.

Ўзбекистонда туризмнинг ривожланиши ёлида қилиниётган ишлар сабабли, бугунги кунда Бухоронинг туризм салоҳияти тобора дунё ҳамжамиятини ўзига тортиб боряпти. Туризмни ривожланишида, миллий қадриятларни тиклашда, мафкуравий иммунитетни шакллантиришда, ҳамда чет эллик сайёхларни ўзига ром эттираётган маскан бу албатта музейлардир. Бир сўз билан айтганда “Музейлар-маданият маскани”dir.

Дунё Музейларида намоиш этиладиган экспозицияларга қараб музейларни шартли равишда икки турга бўлишимиз мумкин. Булар: Традицион (ањанавий) музейлар ҳамда, Замонавий музейлар.

Традицион (ањанавий) музейлар эса асосан билимни, қадимиликни ва тарихни кела-жакка етказадиган асосий маскандир. Бундай музейлар фақатгина экпонат сақланадиган жой эмас, балки амалий машғулот ва илмий тадқиқотлар ўтайдиган жой ҳамдир. Бухоро давлат музей қўриқхонаси таркиби кирувчи барча музейлар ҳам айнан ањанавий музейлар сирасиги киради.

Ҳозирги кунда дунёнинг ривожлан мамлакатларида Замонавий музейларлар кенг тарқаб сони кескин ортиб боряпти. Замонавий музейларларда асосан янги кашфиётлар, замонавий технологиялар намоиш этилади.

Музейлар фаолиятида жуда катта ўзгаришлар бўлаётган бир пайтда Замонавий музейлар Бухорода ҳам ташкил этилса Бухоронинг туризм салоҳиятини етарлича оширишга хизмат қиласди.

Жамият хаётида, ҳалқни фан ва маданият билан якиндан танишувида, илм-фан, маданият ривожида, шунингдек ҳалқ маорифида музейларнинг ўрни тabora ўсиб бормоқда. Шунинг учун ҳам Бухорода мавжуд музейларининг фаолиятида самарадорликка эришиш ва инновациялар жорий қилиш бўйича қуидаги таклифларни келтириб ўтишни жоиз деб топтим:

- Музейлар аввало ягона тармоққа бирлашиши керак. Ҳозирда баъзи музейлар ЎзФА, баъзилари Маданият вазирлиги, баъзилари Вазирлар Маҳкамаси таркибида;
- Музейларнинг кичик залларида кўплаб экспонатларнинг жўйлаштирилмаслиги керак. Бу кузатувчиларнинг диққатини сусайишига ва кузатувчиларнинг ҳаракатланишига таъсир кўрсатад;
- Музейларда мавжуд экспанат ҳақида тўлиқ, аниқ ва чукурроқ маълумот қуидаги ёзувда акс эттирилиши керак. Кузатувчи қисқача маълумотда экспанатни тўлиқ тушуниб етмайди;
- Кўп музейлар витранасида нусха топилмалар билан асл нусхалар аралашиб кетган. Булар ҳақида музей ходимлари билиши мумкин аммо, келувчилар ҳам албатта бу ҳақида билиши лозим;
- Ноёб топилмаларга ёруғлик етарлича берилиши, топилмани яққол кўрсатиб бера олиш музей маъмурияти томонидан назорат қилиниши лозим. Бу ҳолатга этиборсизлик экспанатнинг ҳолатига таъсир кўрсатали;
- Музейларда реставрация лабораториясини ташкил этиш керак. Бу артефактларни сақлаб қолишга ва музей фаолиятини янада ортишига хизмат қиласди. Лабораторияда топилмаларининг нусхасини тайёрлаб келган меҳмонларга сотишни йўлга қўйиш ҳам тижорат, ҳам маданиятни тарғиб қилишга кўмаклашади;



- Музейларда маркетинг хизматини яхши йўлга қўйиш керак. Реклама, Тарғибот, Телеграм, ФБда ўз саҳифалари бўлиши лозим. Интернетда музей ҳақида унинг Экспанатлари ҳақида доимий маълумотлар бериб турилиши керак. Шу йўл билан музейга ташриф буюрувчилар сони ошириш мумкин;
  - Ҳар бир музейда музейнинг маҳсус бренди ёки логотипи бўлиши керак;
  - Музейда музейнинг маҳсус бренди туширилган селфи майдончаси бўлиши, бепул реклама тарқатишга олиб келади. Ташриф буюрувчилар маҳсус жойда расм тушиб, ўз расмлари орқали ўзлари билмаган ҳолда музейни ўз яқинлари орасида реклама қилишади;
  - Мунтазам витринадаги топилмалар янгилаб турилиши лозим. Афсуски айрим музейларда бу ҳолат умуман кузатилмайди. Бунга қўшимча равишда бошқа музейларда сақланаётган Бухоро тарихифга оид топилмаларни олиб келиб (ҳеч бўлмаса нусхасини) кўргазмалар ташкил қилиниши, бу жараёнлар еса ОАВда ёритилиши лозим. ОАВ ва бухоро музейлари ўртасидаги интеграция тобора ёқолиб боряпти;
  - Музейлар ва ОТМлар ўзаро чуқур ўйланган мақсадли ҳамкорликни йўлга қўйиши керак. Бу музей фаолиятини самарали ошишига олиб келади;
  - Музер топилмалари биринчи планга чиқариш учун топилмаларни жойлаштиришда барча жиҳозлар фақат тўқ рангда (ёки шунга яқин ранг) бўлиши мақсадга мувофиқ;
  - Музейларнинг барчасини Web саҳифани доимо янгилаб туриб, саҳифада вертуал саёҳатни йўлга қўйиш керак. Бу ҳолат дунёни исталган нуктасида туриб Бухоро музейларини кузатишига ва маданиятни кенг ёйилишига олиб келади;
- Хулоса ўрнида шуни такидлаш жоизки, ҳозирги кунда барча соҳада бўлгани каби музей соҳасида ҳам янги инновациялар жорий қилинишини замон талаб қиляпти. Юқоридаги фиклар ҳам айнан шундан келиб чиқсан ҳолда музей фаолиятини ривожлантиришга хизмат қиласи деган умиддамиз.



## ИККИНЧИ ЖАХОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН САНОАТНИ ФРОНТГА САФАРБАР ЭТИЛИШИ

Юлдашева Шахноза Эргаш қизи  
ЎзР ФА тарих институти кичик илмий ходими  
977071512  
[shaxnoza.yuldasheva.2019@bk.ru](mailto:shaxnoza.yuldasheva.2019@bk.ru)

**Аннотация:** Мақолада асосий эътибор иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон саноатини фронтга сафарбар этилиши, саноатнинг ривожланиши ва уларга таъсир қилган омиллар, алоқа воситалари фаолияти каби масалалар тадқиқ этилган.

**Калит сўзлар:** Саноат, авиасия, станоксозлик, машинасозлик, телефон, почта.

Кўпмиллатли Ўзбекистон халқи бутун тараққийпарвар инсоният қатори 1941-1945 йилларда Иккинчи жаҳон урушида фаол иштирок етиб, фашизм устидан қозонилган буюк Ғалабани таъминлашга муносаб хисса қўшди. Эл юртимизни уруш йилларида кўрсатган мардлик ва қаҳрамонлиги биз учун улкан жасорат мактаби, ғуур-ифтихор манбаи бўлиб, вақт ўтгани сайн бу ўлмас қадриятларнинг аҳамияти тобора ортиб бормоқда. Иккинчи жаҳон уруши дунё тарихида мисли кўрилмаган даражада катта ва даҳшатли, бутун инсоният бошига оғир кулфатларни солган уруш бўлди. 1939-йил 1-сентябр куни фашистлар Германияси қўшинларининг Полшага бостириб кириши билан бошланган бу уруш жаҳоннинг 61 мамлакатини, ер шари аҳолисининг 80 фоизини яъни 1,7 млрд. кишини ўз гирдобига тортди. Иккинчи жаҳон урушини йирик давлатлар ўртасидаги ихтилофлар, агрессив кучларнинг дунёга ҳукмрон бўлиш учун интилишлари келтириб чиқарди.

СССР таркибиға кирган барча республикалар, муҳтор округлар, шу жумладан, Ўзбекистон халқлари ҳам уруш гирдобига тортилди. Ўзбекистон халқларнинг бошига оғир синовлар тушди. Урушнинг бошланганлиги тўғрисидаги шум хабар етиб келган куни ёқ Ўзбекистоннинг барча шаҳарлари ва туманларида, корхона ва муассасаларида митинглар ва ийғилишлар бўлиб ўтди. Ишчилар, хизматчилар, дехқонлар, зиёлилар, талаба ёшлилар ўз Ватанларини ҳимоя қилишга, юзма-юз жангларда босқинчиларни тор-мор этиш учун урушга боришга, ғалабани таъминлаш учун фронт орқасида фидокорона меҳнат қилишга тайёр эканликларини билдирилар.

Ўзбекистонликлар фронтга отландилар. Урушнинг биринчи ойидаёқ ҳарбий комиссарликларга 32 мингдан кўп ишчилар, хизматчилар, колхозчилар, ёшлар ўзларини фронтга жўнатишни сўраб ариза бердилар. Барча вилоят, шаҳар ва туман ҳарбий комиссарликлари ҳарбий хизмат мажбуриятида бўлғанларни сафарбар этиш билан шуғулландилар. Урушнинг дастлабки ойидаёқ юз минглаб ватандошларимиз кўлга қурол олиб фронтга жўнабкетдилар.[1] Ўрта Осиё ҳарбий округи фронт учун жангчилар ва зобитлар тайёрлайдиган ўчоққа айлантирилди. Бу округ 1941-йил июнидан 1942-йил охиригача бўлган муддатда ҳарбий сафарбарлик асосида 109 та ҳарбий кўшилма тузди, харакатдаги армияга ва Олий Бош Қўмондонлик қароргоҳи захирасига 86 дивизия ва бригада жўнатди. Ўзбекистон ҳукумати ва ватанпарвар кучлар миллий ҳарбий кўшилмалар тузиш ташабуси билан чиқдилар. 1941-йил ноябридан 1942-йил мартағача бўлган даврда 14 та миллий ҳарбий кўшилмалар, жумладан, 9 та ўқчи бригада, 5 та отлик аскарлар дивизияси тузилиб фронтга жонатилди. Миллий қошилма аскарлари ва зобитларига яхши ҳарбий таълим беришда, улар билан фронтни мустаҳкамлашда Ўзбекистонда тузилган заҳирадаги 24-ўқчи дивизия катта рўл ўйнади. Дивизиянинг бошликлари ва зобитлари таркибида 178 ўзбек ўғлони фаол хизмат қилди.

Бу дивизия уруш йилларида 390 минг кишидан зиёд жанговар кучлар тайёрлади ва фронтга жўнатди. Умуман олганда 1941–1945-йиллар давомида Ўзбекистондан аниқроғи 1.433.230 киши урушга сафарбар бўлган.[2] Ўзбек халқи, кексалар, ота-оналар даҳшатли синов пайтида ўз фарзандларини фронтга жўнатар экан, уларга мард ва ботир аскар бўлишларини, ҳамиша биринчи сафда юриб, қаҳрамонларча жанг қилгин, ғалаба билан қайтгин деб қолардилар.

Ўзбекистоннинг иқтисодий ва меҳнат ресурслари фронтга сафарбар этилди. Бутун СССР ҳудудида, жумладан, Ўзбекистонда янги меҳнат режими жорий қилинди, яъни иш куни узайтирилди, дам олиш кунлари ва меҳнат таътиллари бекор қилинди. Ўзбекистон



саноатчилари 1941-йил охиригача 300 га яқин корхонани жанговар техника, қуроллар, ўқдори ишлаб чиқаришга мослаштириб қайта қурдилар. Бу корхоналарда фронтта сафарбар этилган эркаклар ўрнини кексалар, хотин-қизлар эгалладилар[3].

Урушнинг дастлабки пайтларида ёк 20 мингга яқин тошкентлик хотин-қизлар саноат корхоналари ва қурилишларда, 1700 га яқин республика хотин-қизлари кўмир кони шахталарида ишлашга йўл олдилар. Ишлаб чиқаришни ишчи ва мутахассислар билан таъминлаш чоралари кўрилди. Республика олий ва ўрта маҳсус ўқув юртлари, хунартехника билим юртлари, фабрика-завод таълими мактабларининг фаолияти уруш даври талабларига мос кадрлар тайёрлашга ёъналтирилди. Якка тартибда ва бригада тариқасида хунар ўргатиш ишлари ёълга қўйилди. Республикамиз қишлоқларининг ахолиси фронтни ва фронт орқасини озиқ-овқат, саноатни хом ашё билан таъминлаш учун оёққа турди.

Ҳар бир колхозчи ва совхоз ишчиси икки-уч иш нормасини бажариш учун фидокорона меҳнат қилди. Уруш бўлаётган ва душман яқинлашиб келаётган худудлардан муҳим саноат корхоналарини, колхоз, совхоз ва МТСларнинг мулкларини, маданий бойликлар ва ўқув масканларини Шарққа, жумладан, Ўзбекистонга зудлик билан кўчириб келтириш, жойлаштириш ишлари бошланиб кетди. 100 га яқин саноат корхонаси, жумладан, 48 та машинасозлик, металл ишлаш, кимё ва бошқа ҳарбий техника ва маҳсулотлар ишлаб чиқарувчи йирик заводларнинг асбоб-ускуналари кўчириб келтирилди.[4] Ўзбекистон шаҳарларида шошилинч бўшатиб берилган ёки янгидан курилган биноларга кўчириб келтирилган асбоб-ускуналар зудлик билан жойлаштирилди ва монтаж қилинди. Улар ишчи кучи, хом ашё, инструментлар билан таъминланди ва фронт учун маҳсулотлар ишлаб чиқариш ёълга қўйилди. Саноат корхоналари қисқа вақт ичida ҳарбий изга солиниб, миномёт ва автоматлар, самолёт ва танклар учун эҳтиёт қисмлари ва бошқа ҳарбий қуроллар ишлаб чиқара бошладилар. Қишлоқ хўжалик машиналари ишлаб чиқараётган Тошкент қишлоқ хўжалик машинасозлиги заводи ҳарбий қуроллар ишлаб чиқара бошлади.

Ўзбекистон саноатчилари корхоналарни ҳарбий изга туширишдек ишларни кўчириб келтирилган корхоналарни жойлаштириш ва ишга туширишдек янада оғирроқ ишлар билан қўшиб олиб бордилар. Тошкентда зудлик билан жойлаштирилган "Ростсемаш" заводи "Катюша" ва миномёт снарядлари, авиатсия заводи жанговар самолётлар, Колчугинскдан келтирилган кабел заводи ҳарбий алоқа маҳсулотлари етказиб бера бошлади. Республика бўйича 1941-йил охирларига келиб 300 та саноат корхонаси фақат ҳарбий маҳсулот ишлаб чиқара бошлади.[5]

Уруш йилларида курилиш материаллари саноати, тўқимачилик ва поябзал саноати, озиқ-овқат саноати, маҳаллий саноат тармоқларини ривожлантириш тадбирлари амалга оширилди. Фақат 1943-йилда 12 та ёғ заводи, 3 та пахта тозалаш заводи, 4 та қанд ва 4 та консерва заводлари курилиб ишга туширилди. Уруш йилларида Ўзбекистонда 280 та янги саноат корхоналари қурилиб ишга туширилди. Саноатнинг янги тармоқлари – авиатсия, станоксозлик, оғир машинасозлик, кора ва рангли металлургия ҳамда бошқа тармоқлари вужудга келди. Тошкент СССРнинг энг катта саноат марказларидан бири бўлиб қолди. [6]

Алоқа, телефон, телеграф ходимлари ҳам уруш талабларига мослашиб ишладилар. Алоқа ходимлари Ўзбекистоннинг Марказ билан, республика раҳбариятининг вилоят, шаҳар, туманлар, юзлаб саноат корхоналари билан алоқасини ёълга қўйдилар. Тошкент – Самарқанд – Ашхобод, Тошкент – Самарқанд – Боку, Тошкент – Самарқанд – Красноводск телефон линияси, иккита Тошкент – Самарқанд – Бухоро телефон алоқа ёъллари курилди. [7]

Йирик корхоналарнинг ўзларида ҳам 50–100 ўринли телефон стансиялари курилди. Натижада хўжаликларга раҳбарлик қилиш, уларга ўз вақтида кўмакла шиши ишлари яхшиланди. Почта бўлимларида ҳам иш хажмлари ошиб борди. Агар 1941-йилда ўрта хисобда битта почта ходими томонидан 50 минг хат-хабар жўнатилган бўлса, бу кўрсаткич 1942-йилда 74,5 мингга, 1943-йилда 77,5 мингга етди.

Почта ходимлари фронтдаги жангчилар билан уларнинг ота-оналари, рафиқалари, қариндошлари ўртасида алоқа боғловчи кўпприк ролини бажардилар. Хулоса қиладиган бўлсак Уруш йилларида ишчилар билан дехқонлар ўртасидаги жипслик, ўзаро ёрдам янада кучайди. Урушдан кейинги даврда Республика саноати гуркираб ривожланди.



Адабиётлар рўйхати:

1. [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz)
2. Ўзбекистон янги тарих, 2-китоб [Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида], Т., 2000. Б 206
3. Вторая мировая война. Краткая история, М., 1984
4. Ш.Р.Рашидов. Совет Ўзбекистони. Т. 1978 Б 44 [www.e-tarix.uz](http://www.e-tarix.uz)
5. Фашизм устидан қозонилган ғалабада Ўзбекистоннинг тарихий ҳиссаси. 1941 – 1945 [Илмий назарий канференция материаллари], Т., 1996;
6. [www.e-tarix.uz](http://www.e-tarix.uz)

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 19-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(3-қисм)**

**Масъул мұхаррір: Файзиев Шохруд Фармонович  
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович  
Саҳифаловчи: Шахрам Файзисв**

Эълон қилиш муддати: 30.08.2020

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000